

ISSN 2181-2896

Belorus-O'zbek ILMIY-METODIK JURNAL

Белорусско-Узбекский научно-методический журнал
Belarusian-Uzbek scientific and methodological journal

Muassis:

Belorus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik
kvalifikatsiyalar instituti

2023

6-son

DOI:

Jurnal 2021-yil iyul oyidan chiqa boshlagan

O'zMAA tomonidan 2021-yil 3-sentabrda ro'yxatga olinib, 1157-raqamli guvohnoma berilgan.

Свидетельство о государственной регистрации №1157 от 09.03.2021 выдано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента РУз

OAK Rayosatining 2023 yil 30 sentabrdagi 343/2-son qaroriga asosan PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy natijalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

В соответствии с постановлением Президиума ВАК №343/2 от 30 сентября 2023 года журнал включен в список национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций на соискание ученых степеней докторов философии (PhD) и докторов наук (DSc) по педагогическим наукам

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal
Международный научно-методический журнал
International scientific and methodical journal

TOSHKENT

MUNDARIJA

<i>Asqarova Dilorom Qurbonovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGI MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINING OMILI SIFATIDA.....	4
<i>Atavullayev Behzod Baxtiyor o'g'li</i>	
TALABALAR JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATINI O'ZIGA XOSLIKLARI HAMDA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHNING MUHIM FAKTORI SIFATIDA	9
<i>Berdiyeva Shouira Akhmadjonovna</i>	
MAHALLALARDA XOTIN-QIZLAR MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH IJTIMOIY -PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	13
<i>Begmatov Mansur Adgarovich</i>	
ИНТЕНСИВНЫЙ МЕТОД ПРЕПОДАВАНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В СРЕДНИХ ШКОЛАХ, ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИИ	20
<i>Abdullaeva Nafisa Shavkatovna</i>	
TA'LIMNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BOSHQARUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH.....	27
<i>Atakulova Nargizaxon Alijonovna</i>	
TALABALAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA KOMPONENTLARI.....	31
<i>Axmedova Shoxida Muxtarovna</i>	
Y.A.KOMENSKIYNING PEDAGOGIK G'OYALARI	36
<i>Bayturaeva Nasiba Ismatullaeva</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARINI IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	40
<i>G'aniyeva Shaxrizod Nurmaxamadovna</i>	
BLENDED LEARNING INTERAKTIV METODLARI YORDAMIDA TA'LIM JARAYONLARINI ZAMONAVIYLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	44
<i>Haydarov Jomol G'ulommamatovich</i>	
SHAXSNING HISSIY BARQARORLIGI HOLATI MASALASIGA DOIR ILMIY- NAZARIY XULOSALAR	50
<i>Ismoilova Marhabo Boysarovna</i>	
BADIIY ASARLAR VA SHE'RIYAT ORQALI O'QUVCHI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	54
<i>Jo'rayeva Zilola Sayfiddin qizi</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARIGA INTEGRATSION YONDASHISH ASOSIDA MA'NAVIY- AXLOQIY TARBIYALASH IMKONIYATLARI	59
<i>Nurov Shakir Rozikovich</i>	
YOSH FUTBOLCHILARNI MUSOBOQAGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH.....	63
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
SHARQ ALLOMALARI TA'LIMOTLARIDA BOSHQARUV FAOLIYATIGA OID PEDAGOGIK FIKRLAR.....	68
<i>Umaralieva M.</i>	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	72

<i>Зиёдуллаева Сарвиноз Шамсиддин қизи</i> ЛИДЕРЛИК МУАММОСИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	77
<i>Aslonova Orzigul Pirimovna</i> VARIATIV TA'LIMNI IJTIMOY FAOLLIK MODELİ.....	79
<i>Болтаева Раъно Амириллаевна</i> ТАЛАБАЛАРДА ИЛМИЙ ХАБАРДОРЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.....	85
<i>Лафасов Бегзод Жаелиевич</i> ТАЛАБАЛАРНИНГ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ПЕДАГОГИК КЛАСТЕР ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МАЛАКАВИЙ ПЕДАГОГИК АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ.....	90
<i>Ibragimov Anvarjon Jahongirovich</i> KURSANTLARARO MULOQOT VA MUNOSABATLARNI TASHKIL ETISHDA QADRIYATLI YONDASHUVNING O'ZIGA XOSLIGI.....	97
<i>Абдусаматова Наргиза Джамолидиновна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПОДГОТОВКИ К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....	104
<i>Пардаева Комила</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА АБДУЛЛЫ АВЛОНИ	110
<i>Шеранова Марьям Базарбаевна</i> ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ В УЧЕБНЫХ КЛАССАХ.....	114
<i>Samatova Iroda A'zamjon qizi</i> VITAGEN TA'LIM TEXNOLOGIYASI MAZMUNI VA MONIYATI	119
<i>Азимова Сайёра Тоштемировна</i> ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА Ота-оналар педагогик маданиятини ривожлантириш МЕХАНИЗМЛАРИ	122
<i>Азимова Сайёра Тоштемировна,</i> ОТА-ОНАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК МАДАИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ	125
<i>Dangalov Sunnatilla Mustafayevich</i> TIFLOPEDAGOGIKADA O'QITISH MUAMMOLARI.....	128
<i>N.J.Saidxonova</i> UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI FANLAR KESIMIDA FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKAT QILISHGA TAYYORLASHDA TA'LIM USULLARI	131
<i>Атахожаев Валихожа</i> СЕН-МИ ЁКИ СИЗ-МИ?	135
<i>Абдуллаева Озода Сафибуллаевна</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВЫХ УСЛОВИЯХ ...	139
<i>Temirov Dilshod Sheraliyevich</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM-TARBIYA SIFATI VA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING MONITORING SHAKLI	154

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ВА ОТА-ОНАЛАР НАМКОРЛИГИ МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ СИФАТИНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА

Аннотация: мактабгача та'лим ташкилотларининг оила билан ҳамкорлиги мактабгача та'лим сифатининг муҳим таркибий қисмларидан биридир. Ушбу мақоллада мактабгача та'лим ташкилотларининг оила ва маҳаллий жамоатчилик билан ҳамкорлик алоқалари, тарбиячилар, оилалар ва жамоат а'золари о'ртасидаги кучли ҳамкорлик болаларнинг ривожланшидаги ижобий аҳамияти, шунингдек, олиб борилган ишларнинг натижалари йоритилгани ҳолда хулоса ва тавсиялар берилган.

Калит со'злар: мактабгача та'лим, оила, ҳамкорлик, маҳаллий жамоатчилик, ҳамкорлик алоқалари, тарбиячилар, жамоат а'золари, семинар, ота-оналар клуби, тренинг, маслаҳат, конференция, давра суҳбати, мулоқот.

Аскарова Дилором Курбановна
Доцент кафедры методики дошкольного образования
НамДУ

ОРГАНИЗАЦИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И СОТРУДНИЧЕСТВО РОДИТЕЛЕЙ КАК ФАКТОР КАЧЕСТВА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: сотрудничество организаций дошкольного образования с семьей является одной из важных составляющих качества дошкольного образования. В данной статье приводятся положительное значение сотрудничества дошкольных образовательных организаций с семьей и местным сообществом, тесное сотрудничество воспитателей, семьи и членов общества в развитии детей, а также результаты проведенной работы.

Ключевые слова: дошкольное учреждение, семья, партнерство, местное сообщество, партнерство, педагоги, члены сообщества, семинар, родительский клуб, обучение, консультация, конференция, круглый стол, диалог.

Askarova Dilorom Kurbanovna
Associate Professor of the Department of Preschool Education Methods
NamDU

ORGANIZATION OF PRE-SCHOOL EDUCATION AND COOPERATION OF PARENTS AS A FACTOR OF THE QUALITY OF PRE-SCHOOL EDUCATION

Abstract: cooperation of preschool education organizations with families is one of the important components of the quality of preschool education. In this article, the

positive significance of the cooperation of preschool educational organizations with the family and local community, the strong cooperation between educators, families and community members in the development of children, as well as the results of the work carried out, are given.

Key words: preschool, family, partnership, local community, partnership, educators, community members, seminar, parent club, training, consultation, conference, roundtable, dialogue.

KIRISH

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish sharoitida inson omilini vujudga keltirish davr talabiga aylandi. Insonning har tomonlama etukligi, ma'naviy-axloqiy sifatlari oilada shakllanadi. Jamiyat mustahkam, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom oila bo'lishidan manfaatdordir. Shu sababli O'zbekistonda oilani mustahkamlashni, bolalar tarbiyasi, shuningdek, ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashni davlat ahamiyatiga molik ish deb hisoblanadi.

O'sib kelayotgan avlodni Vatanga, yurtga, jamiyatga, oilaga sodiq farzand etib tarbiyalash, yurt ravnaqi, himoyasi yo'lida ongli qaror qabul qilishga qodirlik ruhida balog'atga etkazish bugunning eng dolzarb muammosi va talabidir. Yoshlar davlat va millat istiqbolini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

MTTning ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. MTT ota-onalar va mahalliy hamjamiyat¹ bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkin:

- bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish, seminar, ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferentsiya, davra suhbat, pedagogik mehmonxonalar va boshqalar;

-muntazam ravishda muloqotni ta'minlash, ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlagan holda pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuv va yig'ilishlarni o'tkazishi, electron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berishi va boshqalar;

-ota-onalarni guruh yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish, rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish;

-ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida, tashkilotida, ko'maklashish topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish va boshqalar;

-MTTga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish, umumiy va guruhlarning ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, MTTning yangi dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish, bolaning qiziqishlariga qarab MTT-da qo'shimcha xizmatlarni tanlash;

1 "Илк қадам" давлат ўқув дастури /такомиллаштирилагн II-нашри. –Т.:, 2022 й.

- bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish ya'ni MTTlari faoliyatini takomillashtirishda mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalanish, hududdagi muzeylar, istirohat bog'lari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlariga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish.

MTTning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muammoga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, suhbat, maxsus pedagogik-psixologik metodikalar, tajriba-sinov, matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir nechtasini keltiramiz:

1.Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. MTTlarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan;

- oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar;

- ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

2.Ko'rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko'rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo'yicha materiallar solingan papka.

3.Ota-onaga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Bola yashab turgan oilani o'rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa, ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odat bilan o'tkazilishi kerak.

Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlari ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi. Tarbiyachi bolaning uyida ko'rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda ularni tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o'zining maslahatlarim beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan testlarda aks ettirish ham mumkin.

Oilani borib ko'rgandagi taassurotlarini tarbiyaviy ishlarni hisobga olish ustuniga yozib qo'yishi kerak Oilaga kamida yiliga 2 marta borib ko'riladi. Tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi.

Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar. Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar bilan ota-onalarni bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'ladi, shuningdek uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Ota-onalardan bola kechqurun qanday kayfiyatda bo'lganini, qanday uxlaganini, bola o'zini qanday sezishni so'rash foydali. Tarbiyachi ota-onalarga bolalarni bugun guruhda nimalar kutishi haqida qisqacha axborot beradi. Bu narsa bolani kayfiyatini ko'taradi, ota-onani xotirjam qiladi. Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan, ota-onalar bilan kechki suhbat vaqtida tarbiyachi bolaning tashqi ko'rinishiga taalluqli kamchiliklar aytilishi mumkin. Bolani guruhda kunni qanday o'tkazgani, nimalar bilan mashg'ul bo'lgani, o'zini qanday tutgani, nimaga e'tibor berish kerakligi haqida axborot beradi. Ota-onalarni bola tarbiyasida yo'l qo'ygan biror kamchilik va xatosini tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o'tkazish zarurati tug'ilganda vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo'lganda maslahatlar o'tkaziladi. **Guruhiy maslahatlar va majlislar.** Agar tarbiyachiga aynan bir masala bir nechta ota-onani qiziqtirayotgani ma'lum bo'lsa, ular uchun umumiy maslahatlar tashkil etadi. Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabiyotlarni va ko'rsatmali materiallarni tanlaydi. Maslahat o'tkaziladigan aniq vaqt haqida ota-onalarini ogohlantiradi. Bunday maslahatlar onda-sonda va muntazam o'tkazilishi mumkin. Ota-onalarning guruhiy majlislari zaruriyatiga qarab yil choragida bir marta o'tkaziladi. Bunday majlislardan maqsad ota-onalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur guruhdagi bolalarni tarbiyalash masalalari muhokama qilinadi, guruh ishi bilan bog'liq tashkiliy masalalar qarab chiqiladi, ota-onalarning bayramda ishtirok etishlari haqida gapiriladi.

Majlislar mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik ko'rishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarni yoshini hisobga olish zarur. SHu munosabat bilan o'yin yoki mehnat faoliyatlari haqida masalalar ko'proq o'rin egallash mumkin. Ota-onalarning umumiy majlisi maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamma tarbiyalanuvchilarining ota-onalari uchun yiliga ikki marta o'tkaziladi. Ularni maktabgacha tashkilot mudirasi, vrach, tarbiyachilar ishtirokida tashkil etiladi. Umumiy majlislarda ta'lim-tarbiyaviy ishning yakunlari muhokama qilinadi. Birinchi umumiy majlis o'quv yili boshida o'tkazilib, unda mudira ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasi bilan tanishtiradi. Rejaning oila bilan bog'liq qismiga aniq to'xtalib o'tish lozim. Ikkinchi umumiy majlis o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotining o'tgan yildagi ish yakunlari haqida ma'lumot beriladi. Bolalar tashkilotida tarbiyalanuvchilarning yashash sharoitlarini yaxshilashda ota-onalarning qo'shgan hissalarini ta'kidlab o'tiladi. Umumiy majlislarda bolalar tashkiloti jamoasi qanchalik katta va murakkab ishni bajarishni va bu ishda qanday yordam berish kerakligini ishonchli tarzda ko'rsatish kerak. Majlislarda pedagog ma'ruzasining hajmi 20- 25 minut ga mo'ljallanadi.

Ota-onalar bilan MTT xodimlarini birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni MTT dagi sharoitlarga bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiriladigan joyda o'zaro yordam, bir-birini tushunish, topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi. Ota-onalar MTT maydonini ko'kalamzorlashtirish, xonalarni qish mavsumiga tayyorlash, sog'lomlashtirish ishlarini o'tkazishda yordam ko'rsatishlari, bolalarga bayram kostyumlari tayyorlashda, bolalarni sayohatga kuzatib borishda

ishtirok etishlari mumkin. Agar ota-onalar orasida fotosuratçilar, tikuvchilar, rassomlar bor bo'lsa, ular MTT ga bevosita yordam ko'rsatishlari kerak. Ota-onalarning ishi ijtimoiy xarakterga ega va ixtiyoriylikka asoslangan bo'lishi kerak. Birgalikdagi ishni to'g'ri tashkil etish uchun yillik reja tuziladi va ko'rinadigan joyga ilib qo'yiladi. Ota-onalardan qaysi kunlari MTTga kelib yordam berishlari mumkinligini so'rash lozim.

Ochiq eshiklar kuni ota-onalar bilan ishlashning samarali shaklidir. Ochiq eshiklar kuni jamoaning o'z kalendar yillik rejasi bo'yicha har bir yosh guruhning ma'lum rejimi bo'yicha odatdagi mehnat kunidir. Bunday kunlarni yiliga 1-2 keyinchalik esa "Ota-onalar bizning mehmonimiz", "Bizda ochiq eshiklar kuni" mavzusida foto ko'rgazma tashkil etish mumkin. Bu ochiq eshiklar kunida qatnasha olmagan ota-onalarda qiziqish uyg'otadi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo'lib qolmoqda. Yuqoridagi keltirilgan omillarni to'g'ri tashkil etilganda hamkorlik ishlari yahshi natija beradi. Olib borilgan ilmiy izlanish va tajribalar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilar, oilalar va jamoat a'zolari o'rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishiga ijobiy hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.

2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

3. Bolangiz maktabga tayyormi? Nashr uchun mas'ul: R.Axliddinov. –T.: "Ma'rifat-Madadkor", 2000 y, -320 b.

4. Otavaliyeva O'. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. – T.: O'qituvchi, 1994, -72 b.

5. Pedagogika / Bakalavriat yo'nalishi uchun darslik / Prof. M.X. Toxtaxodjayeveaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010.

6. Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik. Metodik qo'llanma. A.V.Shin, Sh.Sh.Mirziyoeva, I.V.Grosheva va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Muvofiqlashtirish kengashining 2020 yil 17 iyuldagi 1-bayonnomasi. Toshkent-2020.

TALABALAR JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATINI O'ZIGA XOSLIKLARI HAMDA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHNING MUHIM FAKTORI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda jismoniy tarbiya va sport faoliyatlarini yuqori kasbiy kompetenlilik, pedagogik shart-sharoitlar hamda metodikasini takomillashtirish bo'yicha ishlar yoritib berilgan

Калит сўзлар: jismoniy tarbiya, seksiya, komponent, intellektual, estetik, festival, ekskursiya, turist, metodologiya.

Аннотация: В данной статье описана работа по совершенствованию методики педагогического моделирования физкультурной деятельности студентов.

Ключевые слова: физическое воспитание, секция, компонент, методика, интеллектуальный, эстетический, фестиваль, экскурсионный, туристический.

Annotation: This article describes the work on improving the methodology of pedagogical modeling of physical culture activity of students.

Keywords: physical education, section, component, methodology, intellectual, aesthetic, festival, excursion, tourist.

Zamonaviy tasavvurlarga ko'ra, pedagog –bu yuqori kasbiy kompetenlilikka ega bo'lgan shaxsdir. Yani ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar kasbga oid muammolarni o'zgarib turuvchi sharoitlarda hal etishni taqozo etadi. Bu zarurat esa o'z navbatida o'qituvchidan o'z-o'zini muntazam rivojlantirib boruvchi, muvaffaqiyatlarga qat'iyat bilan intiluvchi, ijodiy salohiyatli, kreativ fikrlovchi, binobarin, mehnat bozorida raqobatdan cho'chimaydigan shaxsga aylanishni talab qiladi. Bunday pedagogni tayyorlash – milliy ta'lim tizimning, davlatning, ta'lim siyosatiga nisbatan yaqin istiqbolga mo'ljallangan strategiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Shunday muhim vazifa kontekstida bo'lajak pedagoglarning salomatliklarini mustahkamlash, ularda jismoniy tarbiya vositasida zamonaviy pedagog egallashi lozim bo'lgan sifatlarni shakllantirish masalasi yanada muhimlik kasb etadi va hatto ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishi hamda ravnaq topishining muhim shartlaridan biriga aylanadi.

Pedagogik adabiyotlar tahlili hamda tadqiqot ishimiz davomida olib borgan kuzatishlarimiz keyingi yillarda talaba-yoshlarning salomatlik darajasi bir qadar pasayganligini ko'rsatmoqda. Bu hol umummilliy muammo sifatida qaralmoqda. Kundan kunga rivojlana borayotgan zamonaviy jamiyat pedagoglar hamda ta'lim oluvchilar oldiga jiddiy talablar qo'yimoqdaki, ularga javob berish uchun bo'lajak o'qituvchilar mustahkam sog'liqqa ega bo'lishlari lozim. Biroq, taassufki, davlat va jamiyat tomonidan qanchalik e'tibor qaratilmasin, yoshlar o'rtasida sog'liqning eng oliy qadriyat ekanligi haqidagi tasavvurlar yetarli emas. Salomatlik ularning nazdida mo'tadil hayotning andozasi sifatida qaralmaydi: aksar yoshlar mustahkam salomatlikni hayotda muayyan maqsadga

erishishning (mehnat faoliyatida yutuqqa erishish, oila qurish, kasbiy kompetensiyalar-ni egallash va hokazo) kafolati deb hisoblaydilar, xolos.

V.G. Vasilkovning “Jismoniy tarbiya – OTM talabasi shaxsini yaxlit rivojlantirish vositasi sifatida” mavzusidagi dissertatsiyasida bu holning tub sabablari o’rganiladi. Tadqiqotchiga ko’ra, ijtimoiy-madaniy va pedagogik makonda talaba-yoshlarning inson salomatligi haqidagi bunday sayoz tasavvurlarning paydo bo’lishida jismoniy tarbiyaga oid qadriyatlarning nazardan chetda qolishi, jismoniy madaniyatning inson madaniya-tining tashkil etuvchi bir qismi sifatida ijtimoiy ahamiyatini yo’qotib borishi kabi omillar muhim rol o’ynaydi. Talabalar muhitida hali salomatlik, sog’lom turmush tarzi, sog’lom hatti-harakatlar madaniyatiga erishish to’liq urfga aylanib ulgurganicha yo’q. Shubha-siz, bunday yoqimsiz holatlarning yuzaga kelishiga jamiyatda sodir bo’layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar, hayotga yengil-yelpi qarashni ilgari suruvchi g’oyalarning kirib kelishi kabi voqeliklar zamin yaratmoqda. Biroq unutmazlik kerakki, alohida shaxsning ibрати ham muayyan darajada muhimlik kasb etadiki, bunday shaxs sifatida o’qituvchi shaxsi birinchi o’ringa chiqadi.

Shuning uchun o’qituvchining salomatligini muhofaza qilish – jamiyatda sog’lom turmush tarzini keng targ’ib qilish, jismoniy madaniyatning inson madaniyatini hosil qiluvchi madaniyat turi sifatida nufuzini ko’tarishning eng samarali usulidir. Bugungi kunda yetarlicha ma’lumotga ega bo’lgan ziyoli odam zamonaviy jamiyatda jismoniy tarbiyaning beqiyos ahamiyatini hech qachon inkor etmagan bo’lur edi.

Jismoniy mashg’ulotlar insonning intellektual potensialini yuzaga chiqarib, uning hayotiy faolligini oshirishda katalizator vazifasini o’taydi. Bu fikr M.Y. Vi-lenskiy va A.G. Gorshkovlarning ilmiy izlanishlarida o’z isbotini topgan.

Aytish kerakki, talaba yoshlarning salomatligi ko’plab faktorlarga bog’liq. Bu faktorlarga, irsiyat, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ekologik holat, inson yashaydigan muhitdagi sog’liqni saqlash tizimining ahvoli kabilarni kiritish mumkin. Butunjahon Sog’liqni saqlash Tashkiloti (BSST) ma’lumotlariga ko’ra, talabalarning salomatligi 10-15 % hollarda sog’liqni saqlash tashkilotlarining faoliyati bilan bog’liq; salomatlik darajasining irsiyat-ga bog’liqligi – 15-20 %, 25% ekologik faktorlarga bog’liq; 50-55 % hollarda ta’lim oluvchilarning salomatligini ularning yashash sharoitlari va turmush tarzi belgilaydi. Demak, ko’rib turganimizdek, talabaning salomatligi ko’proq o’ziga, tanlagan turmush tarzi, qadriyatlari, intilishlari, uning ichki dunyosi bilan tashqi olam o’rtasidagi uyg’unlik darajasiga bog’liq ekan.

Shuning uchun bo’lajak o’qituvchilarning salomatligini saqlash va mustahkamlash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Zero, aynan ular kejalakda jismoniy tarbiya va sport faoliyatini tashkil etish orqali, avvalo o’quvchilar orasida, shu tariqa jamiyatda sog’lom turmush tarzi keng yayilishiga hissa qo’shadilar. Bo’lajak o’qituvchilarning jismoniy tarbiya va sport faoliyatini tashkil etish bo’yicha ko’nikma va mahoratlarini shakllantirish jismoniy tarbiya sohasidagi ko’plab muammolarning bartaraf etilishiga zamin yaratadi: eng muhimi, jismoniy tarbiyaga ongli munosabat qaror topadi, bu esa o’quvchilarning sog’liqlarini saqlash va mustahkamlashning ishonchli kafolatidir. O’qituvchi o’z o’quvchilari uchun ibrat, namuna ko’rsatib, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanishga, sog’lom turmush tarzini tanlashga jalb etadi. O’zidagi jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga oid ko’nikma va mahoratlarini o’quvchilarga uzata olishga qodir bo’lgan bo’lajak o’qituvchining salomatlik madaniyatini shakllantirish vazifasi bugungi talabaning salomatlik madaniyati haqidagi tasavvurlariga bevosita bog’liqdir. Zero, talabani bilim olish, ko’nikmalar egallash, mahoratlar

o'zlashtirishga majburlab bo'lmaydi. Ko'plab turdagi faoliyatlar orasidan talabaga o'z intilishlari, qiziqishlariga mos keladigan faoliyat turini tanlash imkonini berish lozim. Bu imkon ularga o'z yo'llarini topish, tanlagan faoliyat turiga qiziqish va motivatsiya bilan kirishishlariga yordam beradi.

Buguni kunda zamonaviy jamiyat oldida ta'limni insonparvarlashtirish, bo'lajak o'qituvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy rivojlantirishdek dolzarb masala turibdi. Bu muammolarning yechimi, birinchi navbatda, o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning mustahkam sog'lig'ini kafolatlash, ta'limda va jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, buning uchun esa jismoniy tarbiya va sport faoliyatini takomillashtirish, qamrov miqyosini kengaytirish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishni taqozo etadi. Pedagogika yo'nalishdagi OTMLarda jismoniy tarbiyani keng joriy etish kam harakatlilik (gipodinamiya), zararli odatlar (chekish, ichish, noto'g'ri ovqatlanish), turli kasalliklar va shu kabi salbiy holatlarning oldini olishning, shuningdek, talabalarning sog'liqlarini muhofaza qilish va mustahkamlashning eng samarali vositasidir. O'quv-metodik mashg'ulotlar bo'lajak o'qituvchilarining jismoniy tarbiya bo'yicha ilimiy-amaliy va maxsus bilimlar majmuasini o'zlashtirishlariga yordam beradi. Bu bilimlar majmuasi ularga kelajakda kasbiy faoliyatga tezda moslashish, shaxs va mutaxassis sifatida rivojlanish jarayonlarining samarali kechishini ta'minlaydi. Shu tariqa, OTM o'qituvchilari talabalarning salomatliklarini mustahkamlash, ularda jismoniy madaniyatni shakllantirish orqali yosh avlodning mukammal ravnaqi uchun tamal toshini qo'yadilar.

Mazkur vazifalarning bajarilishi samaradorligini oshirish doirasida talabalarning jismoniy tarbiya va sport faoliyati jarayonining tuzilmasini yanada takomillashtirish, bu jarayonning ratsionalligi va samardorligini oshirish, shu barobarida, jismoniy tarbiya o'qituvchilarida yangi pedagogik tafakkurni shakllantirishni nazarda tutadi. Talabani o'z-o'zini tarbiyalashini rag'batlantirish jismoniy tarbiya o'qituvchisining muhim vazifalaridan biridir. O'z-o'zini tarbiyalash shaxsning irodasi toblanganligi, ruhan kamolotga yetganligining alomati sifatida qaraladi. O'z-o'zini tarbiyalash talaba o'zligini topishining, tom ma'noda mustaqil faoliyatga erishishining mantiqiy yakunidir. To'g'ri tashkil etilgan mustaqil mashg'ulot jismoniy tarbiya samaradorligining uzluksizligini ta'minlaydi. Mustaqil mashg'ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda o'qituvchi topshirig'i asosida yoki sport seksiyalarida o'tkazilishi mumkin.

Universitet negizida ham har xil sport turlari bo'yicha klublar, to'garaklar faoliyat olib boradi: ularning har biriga o'qituvchilardan murabbiylar, tibbiyot xodimlari birlashtirilgan. Sport klublariga doimiy qatnaydigan talabalar jamiyatning turli qatlamlari orasida rasmiy va norasmiy tarzda jismoniy tarbiya va sportning keng yoyilishiga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradilar, joylarda sport seksiyalari tashkil etadilar. Har semestrda jismoniy tarbiya o'qituvchilari fakultetlarning sport jamoalarini shakllantiradilar. Bu jamoalar o'rtasida muhim sana yoki milliy bayram munosabati bilan sportning har xil turlari bo'yicha universitet birinchilik musobaqalari tashkil etib boriladi. Har bir sport tadbirining ochilish marosimida davlat bayrog'i ko'tarilib, madhiya yangraydi, san'at sohasi vakillarining chiqishlari tashkil etiladi. Bu tantanalar ishtirokchilarga sport va jismoniy tarbiyaning davlat miqyosida ahamiyatga molik soha ekanligini ko'rsatadi, bu bilan ulardagi motivatsiyani yanada kuchaytiradi.

Universitetdagi sport musobaqalari, turnirlar, chempionatlar jamoaviy va individual sport turlari bo'yicha o'tkaziladi. Biroq barcha musobaqalar orasida yengil atletika o'zining hammabopligi, o'tkazilish tartibining murakkab emasligi bilan ajralib turadi: yengil atletika musobaqalarida barcha istovchilar o'zlarini sinab ko'rishlari mumkin.

Yengil atletika bo'yicha estafeta ko'rinishidagi musobaqalar talabalar va tomoshabinlarni ko'p yig'ish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi, mazkur sport turining targ'ibot-tashviqot imkoniyatlari kengroqdir. Shuningdek, sportning jamoaviy o'ynaladigan futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi kabi turlari bo'yicha fakultetlararo musobaqalari ham muxlislar qo'llab-quvvatlashi bilan o'tadi.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatining inson sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash, irodasini toblash, ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bir qatorda talabaning vatanparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, o'z jamoasining sharafi uchun jonbozlik ko'rsatish kabi muhim insoniy sifatlarni shakllantirishi va davomli rivojlantirib borishini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Foydalanidgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni T. «O'zbekiston» 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» qonuni, 2015.
3. Usmonxujayev T.S., O.Tursunov. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. T 2004.
4. Salomov R.S Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari. T 2015-yil
5. Maxkamdjanov K.M. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" T 2008
6. Tulenova X.B. Malinina N.N "Umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatish metodikasi" o'quv qo'llanma TDPU, 2005
7. Mahkamdjanov K.M. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" T 2008
8. Nurullaeva Shakhlo Uktamovna. Mechanisms of self-development in pedagogical activity. E- Global Congress Hosted online from Dubai, U. A. E., E-Conference. Date: 19th February, 2023.

Бердиёрова Шоира Ахмаджоновна
ЖДПУ, должность

МАҲАЛЛАЛАРДА ХОТИН–ҚИЗЛАР МАЪНАВИЙ–МАЪРИФИЙ ФАОЛЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИЖТИМОЙ - ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Аннотация. Мазкур мақолада маҳаллаларда хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштириш ижтимоий - педагогик муаммо сифатида таҳлил этилиб, хотин–қизларнинг давлат, жамият, оиладаги мавқеини ошириш, хотин–қизлар саломатлигини муҳофаза қилиш ва мустаҳкамлаш тизимини яратиш, соғлом фарзандни дунёга келтириш ва тарбиялаш, репродуктив саломатлик тафаккурини шакллантириш каби масалалар илмий-назарий жиҳатдан ёритилган.

Калит сўзлар: маҳалла, жамият, давлат, хотин–қизлар, маънавий–маърифий фаоллик, ривожланган давлатлар, IT-технологиялари, робототехника, қурилиш, туризм, транспорт, энергетика, интеллектуал салоҳият, зукко, билимли, жисмонан ва маънавий соғлом.

Бердиёрова Шоира Ахмаджоновна
ЖГПУ, должность

ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЖЕНЩИН-ДЕВОЧЕК В СОСЕДСТВЕ КАК СОЦИАЛЬНО- ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В данной статье совершенствование духовно-просветительской деятельности женщин в микрорайонах анализируется как социально-педагогическая проблема, повышение статуса женщины в государстве, обществе и семье, создание системы охраны и укрепления здоровья женщин, рожавших и воспитание здорового ребенка, вопросы репродуктивного здоровья, такие как формирование мышления, освещаются с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: микрорайон, общество, государство, женщины, духовно-просветительская деятельность, развитые страны, информационные технологии, робототехника, строительство, туризм, транспорт, энергетика, интеллектуальный потенциал, умные, образованные, физически и духовно здоровые.

Berdiyorova Shoira Akhmadjonovna
ZhSPU, должность

INCREASING THE SPIRITUAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF WOMEN GIRLS IN THE NEIGHBORHOOD AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: In this article, the improvement of the spiritual and educational activities of women in microdistricts is analyzed as a socio-pedagogical problem, raising the

status of women in the state, society and family, creating a system for protecting and strengthening the health of women who have given birth and raising a healthy child, reproductive health issues, such as the formation of thinking are covered from a scientific and theoretical point of view.

Keywords: neighborhood, society, state, women, spiritual and educational activities, developed countries, information technology, robotics, construction, tourism, transport, energy, intellectual potential, smart, educated, physically and spiritually healthy.

Республикамизда хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштириш йўлида амалга оширилган фаолият негизида оила манфаатларини таъминлаш, маҳалла фаолларининг оилалар ва муассасалар (маҳалла худудидаги давлат ва нодавлат ташкилотлари), “Фуқаролар йиғинлари ҳузурида хотин–қизлар билан ишлаш” жамоатчилик тузилмаси билан узвий ҳамкорликда тизимли иш олиб бориш, соғлом турмуш тарзи тарғиботи асосида хотин–қизларнинг давлат, жамият, оиладаги мавқеини ошириш, хотин–қизлар саломатлигини муҳофаза қилиш ва мустаҳкамлаш тизимини яратиш, соғлом фарзандни дунёга келтириш ва тарбиялаш, репродуктив саломатлик тафаккурини шакллантириш каби масалалар алоҳида ўрин эгаллади.

Мазкур масаланинг ижобий ечими қуйидаги кенг қўламли вазифаларни самарали бажариш ҳисобига таъминланмоқда:

- қонунчилик талабларига кўра хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштириш, уларни ижтимоий ҳимоялашнинг ҳуқуқий асосларини яратиш;

- маҳаллаларда хотин–қизлар манфаатларини ҳимоя қилиш, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари асосида хотин–қизлар ижтимоий фаоллигини ошириш, неологик ва креатив ёндашувли натижавий муносабатларни такомиллаштириш ҳамда уларнинг маънавий-моддий таъминланганлик даражасини ошириш мақсадида зарур шарт- шароитларни яратиш;

-маҳаллаларда илм-фаннинг илғор ютуқлари билан уйғун ривожланишни таъминлашга хизмат қиладиган маънавий–маърифий ва тарбиявий ишлар таъсирчанлигини ошириш ишларига хотин–қизларни кенг жалб этиш;

-хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштиришни назарда тутувчи умуммиллий лойиҳа ва дастурларни ишлаб чиқиш ва уларнинг ғояларини амалиётга татбиқ этиш;

-хотин–қизларни маданият ва санъат, жисмоний тарбия ва спортга жалб қилиш, уларнинг компьютер ва интернет технологияларидан фойдаланиш саводхонлигини ошириш, китобхонликни кенг тарғиб қилиш;

-ривожланган давлатларнинг ИТ-технологиялари, робототехника, қурилиш, туризм, транспорт, энергетика ва бошқа соҳалар бўйича умуммиллий давлат дастурларига жавоб берадиган интеллектуал салоҳиятли, зукко, билимли, жисмонан ва маънавий соғлом бир сўз билан айтганда ижтимоий фаол келажак авлод тарбиячиларини (хотин–қизларни) синергетик ёндашув асосида маънавий–маърифий салоҳият ва имкониятларини кенгайтириш.

Демак, замонавий шароитда хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштириш, демократик ва инсонпарварлик тамойилларига кўра ривожланаётган ҳар бир давлат томонидан олиб борилаётган сиёсатнинг асосий

йўналишларидан бири бўлиши лозим. Шундан келиб чиқиб, синергетик ёндашув асосида хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштириш учун зарур бўлган шарт-шароитларни яратиш инсонпарварликнинг ёрқин кўринишларидан бири саналади.

Биз олиб борган тадқиқотнинг мақсади ҳам синергетик ёндашув асосида хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштириш самарадорлигини ошириш мазмуни, шакл ва методларини аниқлаш, тажриба-синов ишлари орқали уларни амалиётга кенг татбиқ этишдан иборатдир. Шунга кўра тадқиқот жараёнида синергетик ёндашув асосида хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштиришнинг назарий-методологик асосига доир манбалар куйидагича туркумлаштирилди:

- хотин–қизлар ижтимоий фаоллигини такомиллаштириш – эзгулик ва инсонпарварлик тамойилига асосланган “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” ғоясини тарғиб этишга хизмат қиладиган жараён эканлиги;

- оила, маҳалла, таълим ташкилотлари ҳамкорлигида хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштиришнинг узвийлигини таъминлашда Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг илмий мероси ва педагогик қарашларидан оқилона фойдаланиш;

- хотин–қизларнинг ҳуқуқий, маънавий–ахлоқий, педагогик, психологик ва тиббий билимларини оширишга қаратилган тадбирларни амалиёти;

- маҳаллаларда хотин–қизларга таъсирчан, сифатли, репродуктив, услубий ва консултатив ёрдам кўрсатиш механизмларини ишлаб чиқиш;

- синергетик ёндашув асосида хотин–қизларни Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиш маданиятини ошириш, ғоявий ва ахборот хуружларига қарши мафқуравий иммунитетини кучайтириш;

- хотин–қизларни ижтимоий - иқтисодий ва маданий ҳаётда фаол иштирок этишга даъват этадиган маънавий - маърифий тадбирларда дўстона ва аҳиллик муҳитини яратиш

Алоҳида эътироф этиб ўтиш жоизки, синергетик ёндашув асосида маҳаллаларда хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштириш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш масаласи бир қатор меъёрий–ҳуқуқий ҳужжатларда ҳам назарда тутилган Ўзбекистонда хотин–қизлар маънавий–маърифий фаоллигини такомиллаштириш глобал даражада Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Барқарор тараққиёт дастурлари доирасида, шунингдек 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида белгиланган хотин–қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларни қўллаб-қувватлашга доир ислохотларни амалга ошириш муҳимлиги тўғрисидаги вазифалардан бири сифатида [1]. қаралади. Биламизки, республикамизда ижтимоий институтларнинг энг қадимгиси оила ва фуқароларни ўзини-ўзи бошқариш тизимини мазмунан ва моҳиятан модернизация қилиш жараёни давлат томонидан иқтисодий қўллаб-қувватланмоқда.

Мамлакатимизда хотин–қизларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш – ҳукумат олиб бораётган ижтимоий сиёсатнинг устувор масалаларидан бирига айланган. Хотин–қизларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминловчи меъёрий–ҳуқуқий ҳужжатларнинг қабул қилинганлиги мазкур масала давлатнинг устувор вазифалардан бири эканлигидан далолат беради[10] .

Фикримиз мантиқий исботи сифатида:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 7 март 2022 йилдаги ПФ-87-сон “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонида республикада олиб борилаётган хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини янада кучайтиришга оид давлат сиёсатининг қуйидаги қоидаларга асосланишига алоҳида урғу берилган: [3]

-хотин-қизларнинг таълим-тарбия олиши учун зарур шарт-шароитларни яратиш;

-иқтидорли ва билимли қизларни тарбиялаш ҳамда уларнинг илмий салоҳиятини юксалтириш;

- хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш;

- аёлларнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий фаоллигини ошириш, жамиятда, хусусан, давлат бошқарувида уларнинг ролини мустаҳкамлаш ҳамда гендер тенгликни таъминлаш

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, хотин-қизларимизнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган барча қонун ҳужжатлари халқаро ҳуқуқий меъёрларга асосланади. Ўзбекистон Республикаси Марказий Осиёда биринчилардан бўлиб аёллар ҳуқуқини халқаро меъёр ва ҳуқуқий стандартларга мувофиқлигини таъминлаш мақсадида Аёллар ҳуқуқлари камситилишининг барча шаклларида барҳам бериш тўғрисидаги (CEDAW), аёлларнинг сиёсий ҳуқуқлари ҳақидаги, оналикни муҳофаза қилиш ҳақидаги халқаро конвенцияларга қўшилди [11]

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26 март 2021 йилдаги ПҚ-5040-сонли “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори да “...оила, таълим ташкилотлари ва маҳаллаларда маънавий тарбиянинг узвийлигини таъминлаш” масаласига алоҳида урғу бериб ўтилган. Ҳақиқатдан ҳам Янги Ўзбекистон ривожига маҳаллаларда хотин-қизлар маънавий-маърифий фаоллигини такомиллаштиришнинг самарали ва таъсирчан тарғибот технологиялари ҳамда усулларини ишлаб чиқиш муҳим ижтимоий аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 31 декабр 2019 йилдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон қарорида [8] “...маҳалла, оилаларда оналар ва болалар маънавий тарбиявий муносабатларини таҳлил этиш асосида «Намунавий оилавий тарбия муҳити» мезонларини белгилаш” масалаларига алоҳида урғу бериб ўтилган. Шунингдек, мазкур концепциянинг 4 боб “Оилаларда узлуксиз маънавий тарбияни амалга ошириш” ошириш бўйича 12 бандида “... маҳаллалардаги аёллар билан олиб бориладиган ижтимоий-педагогик, маънавий-маърифий, тиббий, психологик ёрдам ишлари тизимли ташкил қилиш” [11] долзарб вазифа этиб белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 8 январь 2021 йилдаги “Хотин-қизларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2-сонли Қарори, “Ўзбекистон республикаси маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини тартибга солиш соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги, Ўзбекистон Республикаси Вазир-

лар Маҳкамасининг 1 июнь 2022 йилдаги 292-сонли “Ўзбекистон Республикаси маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини тартибга солувчи айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентиинг 2020 йил 19 февралдаги ПФ-5938-сон «Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг “Оила институтини янада ривожлантириш ва ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 31 декабрдаги 820-сон Қарор ва фармонлари мазмун-моҳиятида, хотин-қизлар муаммолари ва турмуш тарзи, ўқув жараёни ҳамда маънавий-маърифий фаолиятларини синергетик ёндашув асосида ташкил қилишга қаратилган лойиҳалар ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Юқоридаги Қарор ва фармонларда белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида биз илмий изланишларимиз давомида синергетик ёндашув асосида хотин-қизлар маънавий-маърифий фаоллигини такомиллаштириш мазмунидан келиб чиқиб муаммонинг илмий асосланган индикаторларини ишлаб чиқдик.

Синергетик ёндашув асосида маҳаллаларда хотин-қизлар маънавий –маърифий фаоллигини такомиллаштириш замирида: ўз ҳақ-ҳуқуқларини билиши, дунёқараш ва мустақил фикрга эга бўлиш, фуқаролик манфаатларини ижтимоий-сиёсий қўллаб-қувватлаш;

- хотин-қизларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, хотин-қизлар Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунлари доирасида ўз манфаатларини амалга ошириш йўллари эркин танлаб олишларига кафолат бериш;

- жамиятни ривожлантиришга, айниқса республика хотин-қизлари ҳаётига оид сиёсат ва дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда аёллар бевоқифлиги иштирок этиши;

- хотин-қизлар ҳуқуқ ва бурчларнинг эркинлик ва фуқаролик масъулиятининг бирлигига эришиш.

- демократик қадриятларга эътиқод;

-демократик фуқаролик жамиятида яшаш кўникмаларини намоён этиш;

-инсон ҳуқуқларини ҳурматлаш ва тан олиш;

-ватанга садоқат ва унинг такомил учун сидқидилдан хизмат қилиш руҳиятини намоён этиш.

Мазкур индикаторлар маҳаллаларда хотин-қизларни маънавий –маърифий, ижодий ва ижтимоий фаолликка, ижтимоий ҳаётга мўлжаллини тўғри ола билиш маҳоратига эга бўлишга, истиқбол вазифаларни илгари суриш ва ҳал этишга қодир мустақил фикрга эга келгуси авлод вакилларини тарбиялашида ҳам муҳим аҳамият касб этади. [10]

XXI асрда жаҳонда гуманизм, инсон қадр-қиммати, шаъни, ҳаёти, ор-номуси, дахлсизлиги ҳақидаги ғоялар энг олий қадрият даражасига кўтарилмоқда. Синергетика таълимоти XX асрнинг сўнгги чорагида вужудга келган бўлсада, синергетик жараёнлар азалдан мавжуддир ва бундай жараёнларга хос қонуниятларни инсоният қадимдан таҳлил этиб келади. Синергетика таълимоти вужудга келиши натижасида оламнинг постноклассик манзараси шаклланди. Бу оламга янгича методологик нуқтаи назардан ёндашувдир. Олимлар, тадқиқотчилар борлиқ, жа-

мият, инсон тўғрисида янги фикр юрита бошлашди. Чунки бугунги кунда глобаллашув, тараққиёт жадал суръатлар билан кечаётган бир даврда янги тафаккур тарзига эга бўлиш, ҳар бир тадқиқот объектини ҳар томонлама энг янги методлар орқали ўрганиш давр талабидир.

Синергетика - грекча “сенергос” сўздан олинган бўлиб, “ҳамдўстлик”, “ҳамкорлик” каби тушунчаларнинг илмий тилдаги ифодасидир. Синетик метод - ижодкорлик фаолиятини стимуллаштириш учун алоҳида шароит, муҳит яратиб, кутилмаганда янги аналогларнинг ва ассоциациянинг туғилиши ёки яратилишига шароит яратади. Синетика сўзи турли элементларни, кўрсаткичларни, параметрларни маълум қонуният асосида бирлаштирувчи маъносини англатади.

ularning hukmlari, nuqtai nazarlari, o'z o'zini baholash ko'nikmalari rivojlanadi. Mazkur jarayonda talabalarni jamiyatdagi voqea-hodisalarni mustaqil, asosli tarzda baholashga undash alohida ijtimoiy pedagogik asosga ega. Hozirgi globallashtirish vaziyatida jamiyatdagi voqea-hodisalarni ob'yektiv baholash ijtimoiy-siyosiy hamda diniy bilimlardan xabardor bo'lishni ham talab qiladi. Bu davrga kelib talaba-yoshlar jismoniy hamda ma'naviy jihatdan yetuklikka intiladilar. Bu esa ularning ilmiy hamda diniy dunyoqarash asoslarini egallashga tayyorliklarini anglatadi. Talabalar tafakkurining falsafiy yo'nalishlari, borliqni bilishga bo'lgan munosabatlari, bilimlarni o'zlashtirish ehtiyoji ularda fundamental, metodologik g'oyalar, yuqori darajadagi umumlashtirish, qat'iy nuqtai nazarlar va e'tiqodlar, olamni bilishga intilish, xulq-atvor va faoliyat prinsiplariga qat'iy amal qilish ko'nikmalarining rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada talabalarda shaxsiy o'z o'zini anglash va qadriyatlarga amal qilish, o'z o'zini baholash, ideallarga ega bo'lish, hayotiy rejalar tuzish kabi sifatlar rivojlanadi. Talabalarning diniy dunyoqarashlari va nuqtai nazarlari ularning kasbiy axloq-odobi, kasbiy nuqtai nazarlari aniqlashida ham o'z ifodasini topadi. Mazkur kasbiy odat o'zida insonparvalik, faollik, milliy qadriyatlarga asoslangan munosabatlar, maqsadlar, etalonlar, me'yorlar, qat'iy qoidalarni mujassamlashtiradi. Shu bilan bir qatorda talabalarda axloqiy-psixologik hamda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashga ko'maklashadi. Milliy axloq-odob me'yorlarini o'zlashtirgan talabalar o'zlarining ijtimoiy va fuqarolik burchlarini chuqur anglashga muvaffaq bo'ladilar. Talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy vositasi sharqona axloq odob me'yorlarini o'zida mujassamlashtirgan didaktik hamda badiiy asarlar xalqning ijtimoiy tajribasi, xalq og'zaki ijodi namunalari, xalq pedagogikasiga oid manbalar, tasavvuf ta'limoti namoyondalarining asarlari, urf odat va an'analardan iborat. Agar talabaning dunyoqarashi, nuqtai nazarlari mazkur vositalar yordamida rivojlangan bo'lsa, xalqning turmush tarzini va o'ziga xosligini anglashga muvaffaq bo'ladi. Natijada o'z xalqining ravnaqi va jamiyat taraqqiyoti yo'lida harakat qilishga intiladi. Chunki talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirish uchun ularni intellekti, irodasi, his tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatilib, faol tarzda amaliy faoliyat ko'rsatishlariga asos yaratiladi. Dunyoqarash tarkibidagi intellektual komponenti borliqni hissiy idrok etishdan abstrakt tafakkurgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Tushunchalarga asoslangan tafakkur ilmiy hamda o'quv bilishning oxirgi elementi hisoblanmaydi. Buning natijasida abstrakt tafakkurdan aniq fikrlashga yo'nalgan faoliyat amalga oshadi. Bu esa yuqori talabalarga daraja rivojlanish imkonini beradi. Natijada talabalar diniy bilimlarni chiqur va har tomonlama tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maqola talabalar dunyoqarashini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va komponentlari bilan to'ldirilsa maqolayana ham mazmunan boyitilgan bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445147>
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.07.2021 yildagi O'RQ-699-son Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida
3. Diniy mutaassiblik: moxiyat, maqsadlarva oldini olish yullari / A. Xasanov, O. Yusupov, K. Shyermuhamedov. U. G'afurov, J. Karimov.– T.: «Movaraunnahr», 2013, - 160 b. 12-b.
4. Safarova R.G. Mutafakkir ajdodlarimiz merosi ta'lim oluvchilarni intellektual ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlantirish manbai // Pedagogika.- Toshkent. 2022 yil 5-son. – B. 14-18

5. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000dan ortiq so'z va so'z birikmasi. 5-jild, T.Mirzayev va boshq. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. –592 b. 226 bet

Y.A.KOMENSKIYNING PEDAGOGIK G'OYALARI

Annotatsiya: Maqolada hozirgi zamonaviy pedagogikaning tamal toshini qo'yan buyuk shaxs Yan Amos Komenskiyning pedagogik g'oyalari, bola tarbiyasida maktab va o'qituvchilarning o'rni, haqiqiy pedagog qanday bo'lishi kerakligi yoritiladi. Yan Amos Komenskiyning g'oyalari ayni zamon uchun ham mos kelishini ushbu maqolada ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Yan Amos Komenskiy, "Chex qardoshlar" jamoasi, "Buyuk Didaktika", Buyuk Karl, zamonaviy maktablar, tarbiya turlari.

Ахмедова Шахида Мухтаровна
преподаватель Жиззакского государственного университета

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ Я. А. КОМЕНСКОГО

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические идеи Яна Амоса Коменского, великого человека, заложившего основы современной педагогики, роль школы и учителей в воспитании детей, а также то, каким должен быть настоящий учитель. В этой статье мы видим, что идеи Яна Амоса Коменского актуальны и сегодня.

Ключевые слова: Ян Амос Коменский, Команда чешских братьев, «Великая дидактика», Карл Великий, Современные школы, Типы образования.

Axmedova Shoxida Muxtarovna
acher of Jizzakh State Pedagogical University

PEDAGOGICAL IDEAS OF Y. A. KOMENSKY

Abstract: The article describes the pedagogical ideas of Jan Amos Comenius, the great man who laid the foundation of modern pedagogy, the role of schools and teachers in the upbringing of children, what a real teacher should be. In this article we can see that the ideas of Jan Amos Comenius are also relevant today.

Keys words: Jan Amos Comenius, The Czech Brotherhood, "The Great Didactics", Charles the Great, Modern Schools, Types of Education.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon ta'lim sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Aynan ta'lim va uning sifatini oshirish maqsadida bir necha qaror va qonunlar qabul qilindi. Bunday qonun hujjatlaridan asosiy maqsad albatta ta'lim va uning sifatini yaxshilashdir. Ta'lim va uning sifatini yaxshilash uchun, avvalo ta'lim sohasiga aloqador bo'lgan shaxslar dunyoqarashi va ularning malakalarini oshirish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bunga erishish katta kuch, mehnat va vaqt talab qilinadi. Aynan shunday pedagogik kadrlarning bilim salohiyatini yuksaltirishga katta yordam beradigan vositalardan biri bu—buyuk pedagog va faylasuf Yan Amos Komenskiyning

dunyoga mashhur bo'lgan "Buyuk Didaktika" asaridir. Aynan Komenskiy asarlari orqali biz bo'lajak pedagoglarni tarbiyalasak, kelajakda o'zimiz kutgan natijaga, albatta, erishamiz.

Yan Amos Komenskiy – pedagogika otasi. Ayni mana shu ta'rifni bu insonga qo'llashni nima uchun joiz topdi deb o'ylarsiz, albatta. Yan Amos Komenskiy, shuningdek, Jon Amos Komenskiy nomi bilan ham tanilgan, ta'lim sohasida inqilobchi, zamonaviy pedagogikaning otasi hisoblanadi.

Buyuk pedagog Yan Amos Komenskiy insonga bilim va tarbiya berishni yoshligidan berish kerakligini uqtiradi. Insonni ayni shu jihatdan daraxtga o'xshatib, quyidagi fikrlarni keltiradi: «Bu sohada inson bilan daraxt bir-biriga o'xshaydi. Har holda mevali daraxt (olma,nok,anjir,tok)lar qarovsiz qoldirilgan taqdirda ham o'sishi mumkin, lekin bunday holatda o'simlik yovvoyilashib, mevasining ta'mi buziladi, mazali va shirin meva olish uchun esa tajribali bog'bon ko'chat o'tqazishi,sug'orib, daraxt tagiga ishlov berishi,uni butab turishi zarur»[1]

Demak bolani tarbiyalashni ham, unga bilim berishni ham yoshligidan boshlansa maqsadga muvofiq bo'ladi . Komenskiy aytgandek daraxt niholligidan to'g'ri parvarish qilinsa,undan shirin va mazali meva olish mumkin. Bu jarayonda bog'bonning, ya'nikim o'qituvchining roli ham katta hisoblanadi. Agar bog'bon tajribali va o'z ishining ustasi bo'lsa, uning bog'idagi har bir nihol kelajakda serhosil daraxt bo'lib yetishadi. Shunday ekan bolani tarbiyalashni kechiktirmaslik lozim.

Yan Amos Komenskiy haqiqiy inson bo'lish uchun avvalo bilim olish zarur deb hisoblaydi. Komenskiy inson bilim olishga layoqatlidir, lekin bu uning bilimligini bildirmaydi deya ta'kidlaydi. Uning fikricha har bir inson —xoh u zehni past bo'lsin,xoh iste'dodli,xoh boy yoki kambag'al,xoh yosh-u qari,kim bo'lishidan qat'iy nazar bilim olishi shart deb hisoblaydi va quyidagi fikrlarni ilgari suradi: «Demak, inson bo'lib tug'ilganlarning hammasi hech shubhasiz, odam bo'lishi uchun, va aksincha yovvoyi hayvon, vahshiy maxluq,tepsa-tebranmas ahmoq bo'lmoq qolmaslik uchun bilim olish zarur. Boshqalardan ustunroq bo'lishning siri ham ko'proq o'qib-o'rganishdadir. Demak, bu nonni Premudr kitobidan olingan quyidagi so'zlar bilan xulosalasak bo'ladi: «Donishmanlik va nasihatni nazar-pisand qilmaydigan kishi—baxtsizdir, bunday kishi maqsadiga ham erisha olmaydi, uning mehnati ham zoya ketadi,birovga foydasi ham tegmaydi».[3] Uchinchi nimaga 2 dan oldinda?

Komenskiy o'zining «Buyuk Didaktika» asarida yozishicha, bolani tarbiyalash va bilim berish aslida ota-onaning vazifasidir. Lekin ota-onalar har xil bo'lganligi yoki ishdan so'ng farzandlarga yetarli darajada vaqt ajrata olmasligi sababli ham ota-onalarga bu ishda ularga bilimli va tajribali kishilar yordam beradi. «Yoshlarni tarbiyalovchi bunday kishilar muallim» deb ataladi va ular yoshlarni birga to'plab dars o'tadigan joy esa «maktab» deb yuritiladi. Ana nima sababdan maktablar paydo bo'lgan. Maktablar azaldan bolalarga bilim va tarbiya beruvchi dargoh hisoblangan va ayni damda ham bu tushumcha o'z mazmunini saqlab qolgan. Yan Amos Komenskiy ma'lumot berishicha ilk maktablar Isroil shaharlarida, ya'nikim yahudiylar tomonidan ochilgan. Maktablarni ko'payishi esa franklar qiroli Buyuk Karl nomi bilan bog'liq ekan.

Komenskiy butun xalqiga murojaat qilib, shunday deydi: «Har bir xristian davlati bu muqaddas odatni saqlab qolish bilan cheklanmasligi,balki yanada keng ko'lamda davom ettirishi lozim,toki,odam yashaydigan har bir obod joyda (poytaxtda ham,shaharda ham , qishloqda ham) yoshlarni to'plab (o'qitish) tarbiyalash uchun maktablar bo'lsin»[2]

Darhaqiqat, maktablar yosh avlodni katta hayot yo'liga tayyorlovchi bosh bo'g'in hisoblanadi. Jadidchilik harakatlarining buyuk namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiyning «Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir» degan fikrlari yuqoridagi gaplarimizning yaqqol dalilidir.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ham maktab ta'limini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqdalar. So'nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi.

Ulug' allomalarimiz – Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Prezidentimiz nutqidan keltirilgan quyidagi fikrlar orqali ham maktab ta'limi va undagi ish jaroyonining mamlakat siyosati miqyosida muhim ekanligini anglashimiz qiyin emas.

«Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag'ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog'liq»[4]

Shunday ekan biz,bo'lajak pedagoglar zimmasida ham katta mas'uliyat turibdi. Mamlakat kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasi va ularning bilim olishi tom ma'noda bizning gardanimizdadir.

Komenkiy o'qituvchi shunchaki ta'lim berish bilan cheklanib qolmasligi kerakligini, u boladagi iste'dodni ko'ra bilishi va o'sha iste'dodni o'stirishi kerak deb hisoblaydi.

Oynani qanchalik chang bosgan bo'lsa ham,baribir kishi o'z aksini ko'rishni mumkin,albatta,toza oyna kishi aksini toza ko'rsatadi. O'qituvchining vazifasi oynagi changni artib tashlash,ya'ni bilimni bolaga ongiga yetkazish, uni aqliy tomondan o'stirishdir,degan edi.[3]

Komenkiy g'oyalarida maktab – bu muassasa, u yerda "Hammani har narsaga o'rgatmoq kerak" degan fikr ko'p marta takrorlanishini ko'ramiz.

Ko'rib turganingizdek bolaning ta'lim va tarbiya olishida maktabning o'rni beqiyosdir. Nima uchun aynan maktab deb o'ylarsiz,chunki ayni bola psixologiyasida yuz beradigan inqirozlar maktab davriga to'g'ri keladi va ayni shu jarayonda bolaning o'zligini anglash va jamoa bilan ishlash kabi xususiyatlari shakllanadi. Fransuz yozuvchisi,jurnalist va jamoat arbobi Arni Barbus maktab haqida quyidagicha fikr bildiradi: «Maktab - bu yosh avlodning tafakkuri shakllanadigan ustaxona, agar kelajakni qo'yib yuborishni istamasangiz, uni qo'lingizda mahkam ushlab turishingiz kerak».

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maksadini ko'rsatadi.Tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tganimiz Yan Amos Komenskiy — pedagogika ilmning poydevorini qurgan, uning keyingi rivojlanish yo'llarini ko'rsatib bergan, o'zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek oliyanob ishga bag'ishlagan ulug' pedagogning o'z nomi bilan buyuk asari bo'lgan «Buyuk Didaktika»dagi ayrim pedagogik qarashlar edi. Bu hali dengizdan tomchidek gap.Asar XVII asrda yaratilganligiga qaramay undagi g'oyalar shunchalik teran va asosliki,buni hech bir makon va zamon rad eta olmaydi.

Bu asar butun jamiyat, mamlakat kelajagini tarbiyalovchi yetuk pedagoglarni shakllantirishga qaratilgan g'oyalari majmuidir desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan mana shunday noyob va betakror asarlarni o'qib o'rganish, biz kabi bo'lajak pedagoglar uchun ayni muddao bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Буюк Дидактика. Ўзбек тилига таржима, “Ўқитувчи”, 1975 й.
2. Hashimov Komiljon. Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K.Hashimov, S.Nishonova. – T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005.–304 b.
3. Педагогика тарихи:(Педагогика олий ўқув юртлари ва дорилфунунлар талабалари учун ўқув қўлланма) / К.Ҳошимов, С. Нишонова, М. Иномова ва бошқ.– Т.: Ўқитувчи. 1996 – 408 б.

Bayturaeva Nasiba Ismatullaeva
A.Qodiriy nomidagi
Jizzax Davlat pedagogika universiteti
katta o'qituvchisi (PhD)

BO'LAJAK O'QITUVCHILARINI IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Annotasiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarini qo'llashga oid muammolar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiya, texnologiya, komponentlar, kategoriyalar, pedagogik tadqiqotlar, intellektual iste'dod, kreativlik.

Байтураева Насиба Исмадуллаевна
Джизакский государственный педагогический университет
Имени А. Кадири, старший преподаватель (PhD)

ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Annotatsiya: В данной статье рассматриваются проблемы использования современных технологий в развитии творческой компетентности будущих учителей.

Ключевые слова: современные технологии, технология, компоненты, категории, родословное исследование, одаренность, креативность.

Bayturaeva Nasiba Ismatullaeva
Jizzakh State Pedagogical University
Named after A. Kadiri, senior lecturer (PhD)

APPLICATION OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation: in this article, the problems related to the application of modern technologies in the development of creative competence of the future primary school teacher are considered.


Keywords: modern technology, technology, components, categories, pedagogic research, ualual talent, creativeness.

Jahon ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining asosiy bosqichi sifatida ko'rilayotgan ijodiy kompetentlikni rivojlantirish asosida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik mahoratini oshirish, intellektual ijodiy kompetentligini

takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ijodiy kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim muassasalarida ijodiy yondashuvdan foydalanish, ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minotini yaratish, bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashda ish beruvchining talablarini inobatga olgan holda kasbiy va shaxsiy sifatlarni innovasion texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalarining ilmiy echimi bilan bevosita bog'liqdir.

Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatining yakuniy va oraliq natijalari insho (esse), ochiq dars, ilmiy konferensiya yoki pedagogik kengashdagi chiqish, ish dasturi, didaktik material, metodik qo'llanma, ilmiy-metodik jurnalda maqola chop qilish kabi ijodiy mahsulotlarni tayyorlash va taqdim etishda qayd qilinadi. Oraliq ijobiy natijalarning mavjudligi ijodkor shaxs hayot strategiyasining zaruriy elementlaridan biridir. Agar o'qituvchi erishilgan yakuniy natijalarni yutuq, muvaffaqiyat sifatida qabul qilsa, bunday natijalar keyingi ijodiy o'sish uchun boshlanish nuqtasiga aylanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ijodiy to'garak ishi doirasida mustaqil ta'lim faoliyatini yanada sharoitlarga moslashuvchan va harakatchan qilish imkonini beradi. Internet tarmog'i bo'lajak o'qituvchilarga mustaqil ta'lim uchun boy imkoniyatlar yaratadi (1.4-rasm).



1.4-rasm. Internet tarmog'i vositasida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari.

Mustaqil ta'lim o'qituvchining ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish va uning ichki shaxsiy resurslarini faollashtirishga qaratilgan. Bo'lajak o'qituvchisining mustaqil ta'lim faoliyatining maqsadi ijodiy kompetentlik va kasbiy mahoratning yangi darajasiga erishishdir. Ijodiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida o'qituvchi nafaqat kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida, balki shaxs darajasida shakllanishi ham amalga oshadi. Ijodiy faoliyatni amalga oshirish va tashkil etishga bo'lgan zaruriyat va tayyorlik o'rtasidagi farqlar hamda nomutanosibliklar o'qituvchilarni ijodiy mustaqil ta'limning yana bir jabhasiga o'tishga

undaydi. O'qituvchining ichki dunyosini o'zgartirish, uning mazmun va mohiyatan o'zgartirishi, pedagogik faoliyatda ijodiy o'z shaxsiyati qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon etish uchun yangi imkoniyatlarni izlash zarurligini anglashi o'qituvchining ijodiy rivojlanishining asosiy shartidir. O'quv faoliyatining boyligi, ko'p qirraliligi va emosional intensivligi o'qituvchilarning o'zlarini kasb-hunar sifatida o'rganishga undaydi. Qo'shimcha kasbiy ta'lim muassasalari negizida pedagogik muloqotni amalga oshirish, malaka oshirish jarayonida ijodkor o'qituvchi o'zida kasbiy jihatdan ahamiyatli xususiyatlar etarli darajada shakllanmaganligini angelaydi va mustaqil ta'lim faoliyatida mavjud muammolarni hal qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchi o'zi xohlagan natijalarga erishish imkonini beruvchi maqsad, vazifa, bosqich va faoliyatlar shakllarini belgilaydigan mustaqil ta'lim dasturini ishlab chiqadi. Psixologlar shaxsning rivojlanishi insonning xatti-harakatlari muayyan maqsadga yo'naltirilgan va ichki asoslangan bo'lsagina yuzaga keladigan uning o'z faol harakati faoliyati jarayonida amalga oshadi. Mustaqil ta'limning insonning o'ziga maqsadli ta'sir ko'rsatish sifatidagi asosiy mexanizmi shaxsning belgilangan xususiyatlari, sifatleri va kasbiy faoliyatning ob'ektiv talablari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish, tinimsiz murakkablashib boruvchi ijodiy va zifalarni bajarishdir.

Kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanish mexanizmiga ifoda berishadi: rivojlanish ongli, yo'naltirilmagan tartibga solish tomonga tashqi tartibga soluvchi kuchlarning kuchi, tashqi omillar belgilaydigan harakat usuli bilan amalga oshiriladi. Kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmini bunday tushunish bizni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishga ko'maklashuvchi va to'sqinlik qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganishga undaydi. Bu masalalarni keyingi paragrafda ko'rib chiqamiz.

Mustaqil ta'lim faoliyatida aqliy, jismoniy, ma'naviy-axloqiy, mehnat va estetik rivojlanishidan iborat bo'lmish shaxsning har tomonlama rivojlanishi amalga oshadi. Aqliy rivojlanish bilim olishni, dunyoqarash va e'tiqodni rivojlantirishni anglatadi. Axloqiy rivojlanish - xulq-atvor me'yorlari haqida bilimlarga asoslanib insonga ijobiy shaxs xususiyatlarini tarbiya qilishdan iborat. Estetik rivojlanishda ham, axloqiy rivojlanishda ham estetik tarbiyaga, san'at sohasida bilimlarni va badiiy ijodning maxsus turlarini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi.

Shaxsning u yoki bu sifatlarida ifodalanadigan rivojlantiruvchi ta'sir bevosita ham, bilvosita ham namoyon bo'ladi. Mustaqil ta'lim jarayonida aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik rivojlanish o'rtasida aloqalar o'rnatiladi.

Ijtimoiy etuklik-insonning faoliyat sub'ekti sifatida shakllanishi va ijodiy imkoniyatlari namoyon bo'ladigan insonning faol mehnat faoliyati davridir. Ijodiy faoliyat nostandart pedagogik faoliyatni bajarish uchun maqsadga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z hamkasblari bilan ijodiy munosabatlarga kirishadi, buning natijasida uning muloqot sub'ekti va bilim sub'ekti sifatida shakllanishi amalga oshadi. Bo'lajak o'qituvchisining kasbiy faoliyati bilish sohasining o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishiga va, albatta, turli pedagogik vaziyatlarni ijodiy ko'ra bilishni zarur qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Demak, bo'lajak o'qituvchisi turli ta'sir manbalaridan: maxsus metodik adabiyotlar, Internet, bosma manbalar, radio, televideniadan haddan tashqari juda ko'p ortiq kasbiy ma'lumotlar oladi. Bu ma'lumotlarning bir oqimi odamlar guruhlarining ta'lim darajasiga ko'ra pedagogik maqsadlar uchun tashkil etiladigan kanallar orqali keladi. Yana bir axborot oqimi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga ommaviy axborot vositalari

orqali etib boradi va uning mustaqil ta'lim faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Har ikkala oqim ham o'qituvchiga butun hayoti davomida ta'sir qiladi va o'z dunyosini tushunish, qabul qilishini (idrokini) pedagogik nuqtai nazardan boshqarishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2016. –13-14 b.

2. Sh.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova. "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma.-T.2005 y

3. N. Bayturayeva. Developing the creative competence of future primary school teacher as a social problem. International Virtual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, USA <http://euroasi-conference.com> January 20th 2021.

Adabiyotlarni yana 2-3 taqoshish – yangilarini zarur.

G'aniyeva Shaxrizod Nurmaxamadovna
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Beknazarova Saida Safibullayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Texnika fanlari doktori, professor

BLENDED LEARNING INTERAKTIV METODLARI YORDAMIDA TA'LIM JARAYONLARINI ZAMONAVIYLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada blended learning tushunchasi, uning rivojlanishi hamda ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, aralash ta'lim afzalliklari, yutuqlari hamda kamchiliklari tahlil qilingan. Ta'limda axborot texnologiyalarini ommaviy joriy etish – ta'lim usullari va nazorat formatining o'zgarishiga olib keladi. Bunda ta'lim berishning an'anaviy shakllaridan axborotlashgan jamiyatda o'quv jarayonini tashkil etishga o'tish zarurati mavjud bo'lib, bu ta'lim jarayonida yangi ta'lim modellarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: Blended learning, aralash ta'lim, elektron ta'lim, an'anaviy ta'lim, onlayn rejim, onlayn platforma, o'qitish shakli, onlayn o'quv materiallari, mustaqil ta'lim

Ганиева Шахризод Нурмахамадовна
Докторант Наманганского государственного университета
Бекназарова Саида Сафибуллаевна
Ташкентский университет информационных технологий имени
Мухаммада аль-Хорезми, доктор технических наук, профессор

ПЕРСПЕКТИВЫ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье представлена информация о концепции смешанного обучения, его развитии и значении. Также анализируются преимущества, достижения и недостатки смешанного образования. Массовое внедрение информационных технологий в образование приводит к изменению методов обучения и формата контроля. Возникает необходимость перехода от традиционных форм обучения к организации образовательного процесса в информационном обществе, что приводит к появлению новых образовательных моделей в образовательном процессе.

Ключевые слова: Blended learning, смешанное образование, электронное образование, традиционное образование, онлайн-режим, онлайн-платформа, форма обучения, онлайн-образовательные материалы, самостоятельная работа.

Ganiyeva Shakhriyoz Nurmakhamadovna
Doctoral student of Namangan State University
Beknazarova Saida Safibullayevna
Tashkent University of Information Technology named after Muhammad
al-Khwarazmi
Doctor of technical sciences, professor


PROSPECTS FOR MODERNIZING EDUCATIONAL PROCESSES USING INTERACTIVE METHODS OF BLENDED LEARNING

Abstract. The article examines the concept of mixed education, its development, modern meaning and role. Describes the advantages and disadvantages of blended learning. The massive introduction of information technologies in education will lead to a change in teaching methods and the format of control, and will also require changes in the structure of education. A departure from traditional forms of education and organization of the educational process in the information society is necessary. This leads to the emergence of new learning models in educational activities.

Keywords: Blended learning, e-learning, traditional education, online mode, online platform, learning form, materials online learning, self-education

Kirish

Respublikamiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanib zamonaviylashtirishni taqozo etmoqda. Darslarda elektron ta'lim jarayonini tashkillashtirish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun aralash ta'lim (Blended Learning) asosida ta'lim tizimi tashkil etishni yo'lga qo'yish ta'lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Aralash ta'lim asosida an'anaviy va elektron ta'lim tizimida o'qitish metodikalarini takomillashtirish, ommalashtirish, shuningdek, aralash ta'lim metodikasi bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o'rganish – aralash ta'lim (blended learning) milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.



1-rasm. Blended learning texnologiyasi tavsifi.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim olishning internet texnologiyalariga asoslangan turlarining ko'pligini inobatga olgan holda, aralash ta'limni qo'llash metodikasini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan hisoblanadi.

Aralash ta'lim – zamonaviy ta'limning nisbatan yangi va tobora ommalashib borayotgan shakli hisoblanib, onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shaklidir.

Elektron ta'lim qanchalik qulay bo'lmasin, ana'naviy ta'lim natijasida olinadigan nutq va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarning rivojlanish darajasini bera olmaydi. Shunga qaramay elektron ta'lim an'anaviy ta'limga nisbatan samarali ko'rsatkichlarni taqdim etmoqda. Oqibatda an'anaviy ta'limning elektron ta'lim bilan birgalikdagi, ya'ni aralashgan holdagi turi samarali natija berishi yaqqol ko'rinmoqda. Aralash ta'lim an'anaviy, masofaviy va ineraktiv ta'limning birgalikda olib borilishiga asoslanadi. An'anaviy ta'lim insonlarda muloqot qobiliyatini rivojlantirib, ijtimoiylashirtira, elektron ta'lim bilim olish jarayonini jadallashtiradi.

Asosiy qism.

O'quv jarayoni odamlarning ehtiyojlariga mos keladigan va o'z shaklida mobillikka ega bo'lgan zamonaviy modelga o'tishni talab qilmoqda. Ushbu model bizga ta'lim jarayonini takomillashtirish va bir vaqtning o'zida bir nechta muhim masalalarni hal qilish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi turli sohalarda aralash ta'limni rivojlantirish va qo'llashga yordam beradi.


O'quv jarayonida AKTning vazifasi ma'ruzalar, videolar, taqdimotlar va hokazolarini uzatish va saqlash hisoblanadi. Aralash ta'limda ushbu funksiyalar o'quv jarayonida o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro muloqotni amalga oshirishga qaratilgan. Muloqot texnologiya orqali qo'llab-quvvatlanadi: suhbatlar, bloglar, videokonferensiya, Skype, Virtual reallik asosidagi o'quv auditoriyalari va boshqalar.

AKT orqali ta'lim va aralash ta'lim o'rtasidagi farqning oxirgi mezonlari o'quv jarayonida o'qituvchining roli bilan belgilanadi. Avvalo, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'rni axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan o'zgarib borayotganini aytish kerak. Bu endi klassik o'qituvchi emas, balki ta'lim muhiti bo'yicha yo'naltiruvchi yoki maslahatchidir. Aralash ta'limda o'qituvchining o'rni o'quv jarayonini tashkil etuvchi bo'lib, o'qituvchi talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etadi va qo'llab-quvvatlaydi.

Metodologiya.

Blended learning (Aralash ta'lim) - bu kompyuter grafikasi, audio va video, virtual reallik, interfaol elementlar va boshqalar kabi maxsus axborot texnologiyalaridan foydalanadigan elektron o'qitish elementlari bilan sinfda o'qitishning an'anaviy shakllarining yig'indisi.

Blended learning - onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shaklidir. Ushbu shakldagi o'qitish jarayonida talaba mustaqil ta'lim oladi, ammo ayni vaqtda unga guruh va o'qituvchi tomonidan yordam ko'rsatiladi.



2-rasm. Blended learning (aralash ta'lim)ni tashkil etish mezonlari.

Guruhli mashg'ulotlar davomida blended learning metodini qo'llanilishi tufayli har bir talaba o'quv materiallarini o'zlashtirish borasida o'zida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni namoyon etgan holda muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirib boradi, o'tilgan mavzu materiallarni takrorlaydi va yangi mavzuni o'rganishga tayyorlanadi. Aralash ta'lim ko'p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma'lumotlar negizida tashkil etiladi. Qo'shimcha materiallar esa talabaga onlayn platforma orqali uzatib beriladi. Talaba mustaqil ta'lim olar ekan, guruhning boshqa a'zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali hamkorlik qiladi. Auditoriyada va onlayn rejimda tashkil etilayotgan mashg'ulotlar vaqt miqdori bo'yicha o'zaro mos kelishi yoki turlicha o'zgarib turishi mumkin. Ta'limning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta'lim samarali ravishda qorishtirib yuboriladi.

Natijalar:

Blended learning metodikasining afzalliklari quyidagilar:

- Dars jadvalining qulayligi. O'quvchi o'ziga ma'qul bo'lgan vaqtda o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin;
- Qulay foydalanish makoni. O'quvchi internet kafe, uy, mehmonxona, ish joyi va boshqa joylardan o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin;
- Qulay o'qish tempi. Ta'lim materiallari o'quvchilarning yangi bilimlarni tushunishi tempida o'tkaziladi;
- Qulay o'quv reja. O'quv rejani talabalarga individual va davlat ta'lim talablariga mos holatda tashkil qilish mumkin;
- Ma'lumotlar bazasini yig'ilib borishi. Oldingi o'qigan talabalar bilimlarini yig'ish va undan foydalanish imkoniyati;

- Ko'rgazmalilik. Multimediya imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkoniyati;
- Malakali o'qituvchilar. Malakali, yuqori tajribali, uzoq masofalarda faoliyat yurituvchi o'qituvchilarni tanlab, ularni online ta'lim jarayoniga jalb qilish;
- Ta'limning 24/7 tartibida mavjudligi. O'quv resurslaridan kuniga 24 soat foydalanish imkonini;

- Iqtisodiy kamharjlik. Ta'lim harajatlarini nisbatan kamligi.

Ammo masofaviy ta'limning salbiy tomonlari ham borligi haqida aytish lozim. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- O'qituvchi bilan jonli muloqotning yo'qligi. Ushbu sababdan talabalar asosan, virtual holatdagi ta'lim turida emas, balki oddiy (kunduzgi va sirtqi) ta'lim turlarida o'qish istagida bo'ladilar;

- Virtual muhit va texnika ta'minot bilan bog'liqligi. Masofaviy ta'lim internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikatsion texnikalar mavjudligi va ular ishlashiga bog'liq;

- Aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi. Talabalar texnologiya haqida bilimga ega bo'lishlari va ularda kuchli o'rganish istagi bo'lishi kerakligi;

- Aralash ta'lim vositalari yoki VR qimmatligi. Aralash ta'lim vositalari va ularni o'rnatish, ekspluatatsiyasining qimmatligi.

Xulosa va takliflar.

Masofaviy ta'lim nuqtai nazaridan aralash ta'lim o'quv jarayonini amalga oshirishda ko'proq moslashuvchanlikni (erkinlikni) ta'minlaydi. Moslashuvchanlik o'quv jarayonining bir necha jihatlarini o'z ichiga oladi.

Birinchi, o'qituvchi o'quv materiallarini taqdim etishda ko'proq erkinlikka ega. Endi u dars paytida barcha materiallarni tarqatishga majbur emas. O'qituvchi barcha materiallarni ikkiga ajratish imkoniyatiga ega. Ya'ni birini dars davomida berish uchun, boshqasini talabalar tarmoqdagi mustaqil ish yoki Internetdagi boshqa manbalar orqali olishlari uchun.

Ikkinchi, aralash ta'lim o'qituvchilarga monitoring va baholash jarayonlarida ko'proq moslashuvchanlik, erkinlikni beradi. O'qituvchi onlayn test, post topshiriqlari, keyslarni va hatto, semestr oxirida yakuniy testni ham online o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday imkoniyat o'qituvchi uchun ham talabalar uchun ham qulay. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini baholashga ko'proq vaqt ajratadi va talabalar o'zlari-ning topshiriqlari bo'yicha istalgan joydan, darsga kelmagan holatda ham ishlashlari mumkin.

Bugungi kunda axborot eng asosiy ishlab chiqaruvchi resurslardan biriga aylanmoqda. Tobora rivojlanib, jadallashib borayotgan dunyoda yangi axborot kommunikatsion texnologiyalardan har bir jabhada foydalanish – o'sha soxani yetuklik darajasiga olib chiquvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Sababi yangi bilimlarni o'rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning deyarli barchasi yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirish va ularga qulay ish muhitlarini yaratishga qaratilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan, zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi". Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatleri, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yuksak malakali, bilimli mutaxassislarni tayyorlash tizimi ishlab chiqilib, jadal sur'atlar bilan hayotga tadbiiq etilmoqda.

O'zbekistonda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirish va jadallashtirish to-bora dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimi-ning salohiyati tizimli rivojlanishning yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, elektron ta'lim jarayonini tashkillashtirish ho-zirgi zamon talabidir. Shuning uchun blended learning (aralash ta'lim) asosida ta'lim tizimi tashkil etishni yo'lga qo'yish ta'lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shub-hasiz. Bundan tashqari aralash ta'limni to'g'ri tashkillash uchun ta'lim muassasalari-ni zarur texnik vositalar, zamonaviy elektron adabiyotlar va darsliklar, ularni qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lgan kardlar, virtual reallik asosida o'qitish uchun texnik vositalar, virtual laboratoriyalar bilan to'liq ta'minlash zarur. Bunda VR texnologiyalari bilan ish-lovchi kadrlarni tayyorlash, ularni malakasini oshirish va shu soxani rivoji uchun ularni rivojlangan mamlakatlarga almashinuv dasturlari asosida malaka oshirish kurslariga yuborish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бекназарова, С. С., & Ганиева, Ш. Н. (2022). ТЕХНОЛОГИИ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ. *Research Focus*, 1(4), 199-210.
2. G'aniyeva, S. (2023). VIRTUAL REALLIKKA ASOSLANGAN TA'LIMIY RE-SURSLAR YARATISH MUAMMOSINI TADQIQ QILISH YO 'NALISHLARI. *Engineering problems and innovations*.
3. Ганиева Ш.Н., Абдурасулова Д.Б., & Меликузиева С.Ф. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ. Теория и практика современной науки, (6 (36)), 180-183.
4. G'aniyeva, S. (2023). VIRTUAL REALLIKKAASOSLANGAN TA'LIM RESURS-LARI VA ULARNING TASNIFI. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/202>
5. Ganiyeva, Shaxrizod Nurmahamadovna and Bazarbayev, Mansurjon Rasulo-vich (2019) "INTELLECTUAL PROPERTY OF EDUCATION USE," *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*: Vol. 1: Iss. 5, Article 82. Available at: <https://namdu.researchcommons.org/journal/vol1/iss5/82>
6. Бекназарова, С. С., & Ганиева, Ш. Н. (2022). ТЕХНОЛОГИИ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ. *Research Focus*, 1(4), 199-210.
7. Абрамова Я.К. Смешанное обучение как инновационная образовательная технология // *Перспективы развития информационных технологий*. 2014. №17. С. 115-119.
8. Богоряд Н.В., Лысунец Т.Б. Изменение роли преподавателя в концепции смешанного обучения // *В мире научных открытий*. 2014. №3(51). С. 76-81.
9. Велединская С.Б., Дорофеева М.Ю. Смешанное обучение: секреты эффективности // *Высшее образование сегодня*. – 2014, №8. С. 8-13.
10. Долгова Т.В. Смешанное обучение – инновация XXI века *Интерактивное образование: информационно-публицистический образовательный журнал/учредитель ООО «А-Приор»*. 2017, №5

Haydarov Jomol G'ulommamatovich
*O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti
Taktika va maxsus fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

SHAXSNING HISSIY BARQARORLIGI HOLATI MASALASIGA DOIR ILMIY-NAZARIY XULOSALAR

Annotatsiya. Maqolada shaxsning yoshga doir hissiy barqarorlik hodisasining dolzarb jihatlariga oid ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, hissiy barqarorlikning turli sohalarida o'rganilgan ilmiy-nazariy xulosalar tahlili bayon etilgan. Shuningdek, oliy harbiy ta'lim tizimidagi tarbiyalanuvchilarning hissiy barqarorlik xususiyatlarining namoyon bo'lishida emotsional omillar va ushbu omillar yechimining nazariy xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: hissiy barqarorlik, shaxs, faoliyat, xulq-atvor, voyaga etish, ruhiy holat, emotsional barqarorlik, moslashish, psixofizik parametrlar, aqliy qobiliyat, hulq-atvor.

Haydarov Jomol G'ulommamatovich
Teacher of the Tactics and special Head Department of The High military aviation school of the Republic of Uzbekistan

SCIENTIFIC AND THEORETICAL CONCLUSIONS ON THE PROBLEM OF PERSONAL EMOTIONAL STABILITY

Annotation. The article provides information on the actual aspects of the phenomenon of emotional stability of an individual's age, and describes the analysis of scientific and theoretical conclusions studied in various fields of emotional stability. Also, in the manifestation of the characteristics of emotional stability of educators in the system of Higher Military Education, the theoretical conclusions of the solution of emotional factors and these factors are presented.

Key words: emotional stability, personality, activity, behavior, adulthood, mental state, emotional stability, adaptation, psychophysical parameters, mental ability, behavior.

Хайдаров Жамол Гуломмаматович
Преподаватель кафедры тактики и специальных дисциплин высшего военного училища Республики Узбекистан

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЫВОДЫ ПО ПРОБЛЕМЕ ЛИЧНОСТНОЙ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье представлена информация об актуальных аспектах феномена возрастной эмоциональной устойчивости личности, изложен анализ научно-теоретических выводов, изучаемых в различных областях эмоциональной устойчивости. Представлены также эмоциональные факторы в проявлении особенностей эмоциональной устойчивости воспитанников системы высшего военного образования и теоретические выводы о решении этих факторов.

Ключевые слова: эмоциональная стабильность, личность, активность, поведение, зрелость, психическое состояние, эмоциональная стабильность, адаптация, психофизические параметры, умственные способности, поведение.

Kirish

Ma'lumki, jahonda shaxs bilan bog'liq pedagogik-psixologik muammolar tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganib kelinmoqda. Shuningdek, shaxsiy potensialni namoyon qilishning o'ziga xos shakllaridan biri bu - shaxs tomonidan uning rivojlanishi uchun noqulay sharoitlarni yengib o'tishi hisoblanadi, shu bilan birga shaxsning emotsional barqarorligi muammosi global sharoitda atroflicha o'rganishni taqozo etdi. Bugungi kunda tor doiradagi kasb yunalishida tayyorlanadigan mutaxassislarning nostandart (ekstremal) vaziyatlardagi emotsional holatlarini aniqlash va bunday vaziyatlarda emotsional barqarorlikni yanada shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Xususan, xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadi, oliy ta'lim talabalarining asosiy qismi psixoemotsional stress va zo'riqish holatida bo'lib, bu talabalarning shaxs sifatida uyg'un rivojlanishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatganligi tasdig'ini topib kelmoqda.

Hozirgi jahon va mintaqalardagi shiddat bilan o'zgarayotgan harbiy-siyosiy vaziyatlarda barqaror shaxslarni (mutaxassislarni) tarbiyalash jarayoni ilmiy izlanishlarni takomillashtirish tizimini kengaytirish va pedagogik sharoitlarga zamin yaratmoqda.

Metodlar. Shaxsning hissiy va irodaviy barqarorligi muammosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Bu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili asosan ushbu sohada tadqiqotlar turli yo'nalishlarda olib borilganligini ko'rsatadi. Masalan, stressli vaziyatlarda xatti-harakatlarni boshqarish muammolari yo'nalishida V. A. Bodrov, L. I. Dementiy, A. O. Proxorov; faoliyatni hissiy tartibga solish masalariga doir I. A. Vasilev, M. V. Chumakov; emotsional rivojlanishning buzilishi va ruhiy kasalliklarda o'ziga xoslikni hissiy tartibga solish N. L. Belopolskaya, L. V. Kuznesova, S. G. Shevchenko kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari yaqqol misol bo'ladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarini o'qitish muammosi bo'yicha I. A. Bisko, V. P. Davydov, P. A. Korchemniy, L. G. Laptev, V. V. Mochulin va boshqalarning izlanishlar olib borgan. Kursantlarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy shakllanishi muammolarini o'rganish bo'yicha A. V. Barabanshchikova, A. A. Gorelova, M. V. Petrovskaya, I. R. Shelest, shuningdek, bo'lajak ofitserlarning qadr-qimmatini yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha M. N. Goncharov, Ye. V. Dermeleva, A. B. Nerobeev, I. N. Rodionenko, V. G. Ulyanova, A. I. Shchegol, M. N. Chernyaykov va boshqalar ilmiy-nazariy xulosalarni bergan.

O'zbekistonda I.X.Arifxodjaeva, A.Yu.Golubenko, Ch.Nasriddinov, S.D.Mamayusupov, L.O'.Ravshanovlar kabi olimlar ham psixologiya va pedagogikaning turli yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Jumladan, Harbiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan psixolog Ch.Nasriddinov Psixologik tayyorgarlik – harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarda jangovar vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan psixologik sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus chora tadbirlar tizimini takomillashtirishga doir ishlarni amalga oshirgan. Bunda asosan, psixoemotsional tayèrgarlikning yo'qligi yoki sust darajada tashkillashtiriganligi natijasida harbiy xizmatchilarda nostandart vaziyatlarda sarosimaga tushish, o'zini boshqara olmaslik, o'zini yo'qotib qo'yish, qo'pollik, dag'allik, qonunni buzish, jiddiy kasbiy buzilishlarga yo'l qo'yish kabi nojo'ya xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini aniqlab bergan.

Munozara. Emotsiya (frans. lot. — larzaga keltiraman, hayajonlantiraman) - odamlarning tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'siriga nisbatan subyektiv reaksiyalari. Emotsiya – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Haddan tashqari emotsiyaga berilish yoki emotsional holatini tarbiyalashdagi yo'l qo'yilgan nuqsonlar shaxsning stres holatiga tushib qolishi bilan belgilanish extimolini oshiradi.

Stress – inson organizmini haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir.

Bugungi kunda zamonning shiddat bilan o'zgaruvchi davrida usib kelanyotgan yoshlarning dunyo qarashlari, aql-zakovati, ilmga bo'lgan qiziqishlari va eng muxim jixatlaridan biri bo'lmish emotsional holati ta'lim jarayoniga o'z ta'sirini kursatmay qolmaydi.

Oliy harbiy ta'lim tizimida bo'lajak kursantlarni tanlab olish va ularga ta'lim berishda ushbu ko'rsatgich yuqori axamiyat kasb ettiradi. Demak kelajakda

bu kasb egalarining emotsional holati belgilangan vazifalarni bajarish, kutilmagan sharoitlarda ulardan nostandart qarorlar qabul qilish va o'z majburiyatlarini bajarishda sovuqqon xatti-xarakatlarni talab etayotgan ekan bir harbiy pedagoglar ta'lim oluvchilarning emotsional barqarorligini mustaxkamlash yo'lidagi sayi xarakatlarimizni yanada rivojlantirishimiz hamda, qo'l ostimizdagi tarbiyalanuvchilarning bunday holatlarini o'z vaqtida aniqlay olish va kerakli yordamni ko'rsati olish qobiliyatiga ega bo'lishimiz shart.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, oliy harbiy ta'limda kursantlarining hissiy va irodaviy barqarorligini tarbiyalashning nazariy shartlari pedagogika fanida yetarli darajada rivojlanmaganligi va ushbu barqarorlikni tarbiyalash yo'nalishlarida yetarlicha ilmiy izlanizlar olib borilmaganligi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi.

Kursantlarning hissiyotlarni va ularning tashqi ko'rinishini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish harbiy o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy harbiy ta'lim tashkilotida ushbu muammoni hal qilish uchun professor-o'qituvchilarning tayyorgarligi yetarli yemasligi, o'qituvchilar va komandir kadrlarini tayyorlash tizimidagi nuqsonlarning mavjudligi kelajakdagi ofitserlarning hissiy va ixtiyoriy barqarorligini ta'minlashga yetarlicha sharoit yarata olmaganini guvoxi bo'lmoqdamiz.

Bunday ammallarni bajarish uchun ta'lim oluvchilarning nostandart vaziyatlardagi holatini aniqlash muxim urin tutadi. Binobarin bunday ko'rsatgichlarni aniqlash maqsadida kursantlar o'rtasida kichik tadqiqodlar utkazildi.

Tadqiqodda (60 kursant) birinchi kurs kursantlarining test natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim oluvchilarning atigi 37 foizida bo'lajak ofitserlar uchun zarur bo'lgan o'rtacha hissiy va irodaviy barqarorlik fazilatlariga ega bo'lib, bu esa oliy harbiy ta'lim muassalariga kirish va ushbu ta'lim dargoxida taxsil olishga hamda kelajakda yetuk malakali ofitser kadr bo'lim shakllanish uchun abituriyentlar orasida bu sifat yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan ta'limning barcha darajalaridagi nafaqat o'quvchilarda hissiy va irodaviy barqarorlikni tarbiyalashning pedagogik shartlari va vositalarini qo'shimcha o'rganish, balki zamonaviy urushlar, qurolli majorolar va terrorizmga qarshi operatsiyalardagi harbiy xarakatlar tajribasini hisobga olgan holda ushbu muammoga yangicha

qarashlar shakllantirishni taqqozo qiladi.

Kursantlardagi psixo-emotsional barqarorlikni ta'minlashning eng asosiy shartlaridan biri uning individualligi bilan tavsiflanadi.

Hissiy barqarorlikni aniqlash va baholashda kursantlarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi, jamoaga bo'lgan ishonch, harbiy jamoadashakllantirilgan kayfiyatining samaradorligi va boshqa omillar inobatga olinadi. Kursantlarning emotsional barqarorligini shakllantirishda ularning ta'lim jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, mashg'ulotlarni olib borishda reallikga yaqinlashtirish va nostandart vaziyatlarni yaratish yaxshi natijalarga erishishga imkon yaratadi. Agar shaxs ilgari muayyan ekstremal vaziyatlarni boshdan kechirgan bo'lsa, bu yangi qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib o'tishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Binobarin, bunday shaxs og'ir sharoitlarda va nostandart vaziyatlarda emotsiyalarini jilovlay olishi, to'g'ri qarorlar qabul qilishi, bo'linma tarkibida yoki yakka tartibda vazifalar bajarishda tashabbusni o'z qo'liga olishi, vaziyatni to'g'ri baholash va xarakterlar davomiyligida qat'iyatlilikni ko'rsata oladi.

O'z faoliyatiga va erishadigan natijasiga bo'lgan ishonch, hatto qiyin vaziyatni yengib o'tishga urinish bo'lsa ham, muvaffaqiyatga umid beradi. Aksincha, har bir inson qiyin vaziyatlarni yengish uchun yetarli kuchni his qilmasa, o'z-o'ziga ishonchning yetishmasligi vaziyatni qayta baholashga olib kelishi mumkin, kayfiyatni boshqara olmasligi va natijada emotsiyalarga berilishi hamda muvaffaqiyatsizlikga yuz tutishiga olib keladi.

Xulosalar

Hissiy barqarorlik shaxsiy va ijtimoiy moslashishning ajralmas qismidir. Hissiy barqarorlik va hissiy zaiflik bo'lajak ofitser kadrlarning doimiy o'zgaruvchan muhitda shaxsni muvaffaqiyatli muvozanatlash uchun ahamiyati jihatidan qarama-qarshi xususiyatlar sifatida tavsiflanadi. Ushbu muvozanat yangi barqarorlashtirilgan sharoitlarga moslashish kabi ma'lum bir munosabatni saqlash yoki ko'paytirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Денисов В.А. Сравнительный анализ операторской деятельности и её срывов. Психологические проблемы деятельности в особых условиях. 1985. стр. 38-62
3. Илин Э. П. Эмотсии и чувства. Санкт-Петербург: Бутрус. 2008.
4. Писаренко В. М. Роль психики в обеспечении эмоциональной устойчивости человека. // Психологический журнал. 1986, №1, С.62-73.
5. Прохоров А.О. Неравновесие психического состояния. // Психологический журнал. 2006, №2, С.115-124.
6. Черникова, О. А. Эмотсиональное состояние в спорте. <http://www.студфилес.ру/превью/5458217/page:11>.
7. Nurullaeva Sh. Pedagogik modellashtirish muammolari // Pedagogik mahorat. 2022, №4. В.64-68.

BADIIY ASARLAR VA SHE`RIYAT ORQALI O`QUVCHI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI

Annotatsiya. O`quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirishda adabiyot beqiyos ahamiyatga ega. Mazkur maqola yoshlar tafakkurini shakllantirishda adabiyot vositalaridan, ya`ni nasriy va nazmiy asarlardan foydalanish mexanizmlarini muhokama etishga bag`ishlanadi.

Kalit so`zlar: Ta`lim-tarbiya jarayoni, adabiyot, tafakkur, she`riyat, badiiy asarlar.

Ismoilova Marhabo Boysarovna
Каршинский государственный университет
должность

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СТУДЕНЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ И ПОЭЗИЮ

Аннотация. Литература имеет несравненное значение в развитии мышления учащихся и формировании их мировоззрения. Данная статья посвящена обсуждению механизмов использования литературных средств, то есть прозаических и поэтических произведений, в формировании мышления молодежи.

Ключевые слова: учебный процесс, литература, мышление, поэзия, художественные произведения.

Ismoilova Marhabo Boysarovna
Karshi State University
должность

MECHANISMS FOR FORMING STUDENT THINKING THROUGH ARTWORKS AND POETRY

Abstract. Literature has incomparable importance in developing students' thinking and shaping their worldview. This article is devoted to discussing the mechanisms of using literary means, that is, prose and poetic works, in shaping the thinking of young people.

Key words: educational process, literature, thinking, poetry, works of art.

KIRISH

Ta`lim-tarbiya jarayonining har bosqichida o`quvchilarda insoniy tuyg`ularni shakllashtirish va takomillashtirish, estetik taraqqiyotini oqilona boshqarish nafaqaularning badiiy asarlarni o`zlashtirish xususiyatlarini bilishni, balki har bir o`quvchining bu bora-

dagi individual anglash, tafakkur yuritish, his qilish, hukm-xulosa chiqarish xususiyatlarini hisobga olishni ham talab qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tafakkur orqali o'quvchilar badiiy asar haqida fikr yuritadilar. Buning uchun o'qiyotganlarini tasavvur qilib, xayolan ko'z oldiga keltiradilar: asar qahramonlari ham, ro'y berayotgan voqea-hodisalar ham, to'qnashuvlar, personajlar ham ilg'ab olinganicha tasavvur qilinadi. O'z tasavvuriga tayanib fikrlagan o'quvchi mulohazalarini nutqi orqali bayon qiladi, his-tuyg'ularining ko'lami ham nutqidan seziladi. Demak, tasavvur ham, tafakkur ham boshqa psixologik jarayonlar bilan tabiiy ravishda aloqador. Insonning har qanday fikri, tuyg'usi, harakatida tasavvur mavjud. O'quvchi adabiy qahramonni o'zicha tasavvur qiladi, unga munosabati shakllanadi. O'zgalarning tuyg'ularini qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Ularni o'z qalbida tuyish, his qilib, tasavvur orqali anglash kerak bo'ladi. O'quvchi bu jarayonni o'z intellektual imkoniyatlari doirasida kechiradi. Adabiy ta'limda o'quvchilarning ayni shu holatlariga emotsional ta'sir ko'rsatiladi: xayolot olami, tasavvurlarini boyitishga; tafakkuri va mushohadalarini o'stirishga; nutqining yanada takomillashuviga erishish uchun sharoit yaratiladi. Badiiy asarni tahlil qilish jarayoni o'quvchi faolligini ta'minlash orqali uni insonlararo munosabatlarga aralashtiradi; hayotiy muammolar ildizini topishga, to'qnashuvlar asosini aniqlashga undaydi; hayot haqida, inson to'g'risida o'z xulosalari va muhokamalarini chiqarishga imkon yaratadi; nimalarnidir yoqlab, nimalarnidir rad etadi, tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Asar qahramoni uni odamlarga yaqinlashtiradi, uning qismati o'zi va o'zgalar taqdiriga befarq bo'lmaslik tuyg'usini uyg'otadi. Bunday tuyg'u umuminsoniy mohiyatga egaligi jihatidan o'quvchilar ma'naviyatining yuksalishiga ta'sir ko'rsatadi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi, asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'quv malakalarini takomillashtirish topshirig'i deb hisoblanadi.
2. Asarning g'oyaviy asoslarini, uning obrazlari, syujet chizig'i va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi.
3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.
4. Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va atrofmuhit haqidagi bilishlarini kengaytirish hamda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Badiiy asarda borliqni, voqeilikni obrazlar vositasida tasvirlash, ob'ektni mazmun va sub'ktiv bahoni konkret materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'qish darolarida to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish vazifani o'quvchilarda asarni tahlil qilish bilan barcha amalga oshiriladi.

Tabiat go'zalligidan bahra olishni biladigan, tabiatni suyardigan, tabiat bilan til topishish istagida bo'lgan inson ma'naviy qashshoqlikdan yiroqlashadi. Tabiat go'zalliklarini sevgan kishi qalbi ezgulik nuri ila charog'on bo'ladi. Tabiat orqali olam sirlari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shoir Abdulla Oripov:

*Faqat tabiat bor ilohiy makon,
Faqat o'shanga sen bepisand boqma.
Loaqal uni sen tanigin, Inson,
Yolg'iz boshpanangni o't qo'yib yoqma, –*

deya xitob qilish orqali barchamizni ona tabiatga bepisand boqmaslikka, uni asrab-avaylashga undamoqda. Aks holda insoniyat boshiga og'ir kulfatlar tushmog'i aniq. Inson ona tabiatdan yiroqlashsa, o'zini bilishdan uzoqlashadi va qalbi kambag'allashadi. Demak, ilohiy boshpanamiz tabiatdagi har bir o'zgarishlar quvonch yoki qayg'u, alam, yo'qotishlar tabiat fasllariga qiyosan ochib beriladi.

Insonni tabiatga yaqinlashtiradigan, uning ko'nglini Ona Tabiat go'zalliklariga oshno aylaydigan fasl – bahor fasli hisoblanadi. Shuning uchun qadim davrlardan boshlab olamni yoshartiradigan bu fasl shoirlarning ilhom manbai bo'lib kelgan.

Haqiqatda ham bahor va she'r o'ziga xos egizak tushunchalardir. Bahorni go'zalliklardan zavqlanish mavsumi deyish mumkin. Bunda tabiatning yashil ranglarga bo'yanishidan boshlab, suvlarning sharqiroq ovozi, qushlarning qiy-chuvigacha barchasi sirli va jozibali. Bu sir va joziba esa insonni doimo o'ziga maftun etadi. ana shunda uyg'onish shavqini yangidan his qilib, yana ilgari intiladi. Bahor shu tarzda uning hayotiy intilishlarini quvvatlab yashashga, sevishga va yaratishga ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, bahor inson xotirasini ham bedor etadi. Shunda u o'tgan umrini emas, bu dunyoni tark qilgan kishilar xotirasini ham yodga oladi. Bahor va ko'klam manzaralarini odam o'z qalbida his etganda ko'ngliga ilohiy va hayotiy quvvat oqib kiradi. Mana shu sabablarga ko'ra, Sharq shoirlari bahor faslini yangi orzu, umid, shodlik, ezgulik, bunyodkorlik fasli sifatida madh etib kelganlar. Masalan, Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonining alohida bo'limida Bahorni madh etib shunday satrlarni bitgan:

*Esa keldi Sharqdan bahorning yeli,
Olamga ochildi janatning yo'li.
Bu bo'z yer iporlandi qorlar ketib,
Bezandi olam chiroy ko'rsatib.
G'olib keldi qishdan bahor chiroyi,
Qurildi yangidan bahorning yoyi...*

Bu satrlarning davomini o'qirkansiz, yashil, sariq, ko'kdan liboslar kiygan daraxtlar, o'zini erkin qo'yib butunlay yashillikka burkangan «tog'u qir, dalalar», yerdan shodon bosh ko'targan «ming alvon chechaklar», iporning hidiga ko'milgan olam, o'yinga berilgan «g'oz, oqqushu o'rdak» ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Yusuf Xos Hojib tasvirlarida tog' aro «qizil og'zi qondek, qoshi qop-qora» kaklik va uning bag'rida quvnayotgan bulbul qo'shiqlarini tinglatgandek bo'lasiz. Xuddi shunday ianzara tasvirlarini «Devoni lug'otit-turk»dagi she'rlarda ham uchratish mumkin.

Xullas, uzoq asrlardan e'tiboran bahor fasli mumtnoz she'riyatimiz vakillariga mavzu, obraz, manzara, poetik tasvir vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Lekin bularning barchasi insonning taqdiri, fikr-xayoli, orzu-umidlari va ichki kechinmalari bilan bevosita uyg'un ravishda badiiy tadqiq etilgan. O'tmish she'riyatimizda jumladan, bahor manzaralari ko'pincha, simvolik xarakterda bo'lib, real lavhadan ko'ra ko'proq kishi kayfiyatiga ko'proq ko'tarinki his-tuyg'ular uyg'otadi. Ammo, Lutfiy, Atoiy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa iste'dodli shoirlarimizning she'rlarida tabiat manzara-

lari shartli simvollar emas, haqqoniy va jonli tabiat ko'rinishlarini o'quvchi ko'z o'ngida gavdalaniradi. Masalan, Navoiyning bahor madhiga bag'ishlangan o'nlab g'azallari, Boburning «Bahor faslidurur may havosi boshimda» «Bahor ayyomidur dag'i yigitlikning avonidur», «Yoz fasli, yor vasli do'stlarning suhbatini», «Xotirni bahor faslida gasht oladur», «Xush ulki bahor fasli bu dunyoda» satrlari bilan boshlanadigan she'rlari, Munisning «Chamanlar sayrig'a kelki fasli navbahor o'lmish», Ogahiyning «Qilib oyini mehr og'oz Navro'z, Furqatning

«Fasli navbahor o'lmish» deb boshlanuvchi va boshqa shoirlarning ko'plab she'rlarini eslash mumkin. O'quvchi ko'nglida go'zallikka intilish, ehtiyoj, uni asrab avaylash, qadrlash tuyg'ularini shakllantirishda A. Oripovning tabiat lirikasiga dahldor she'rlaridan foydalanish mumkin.

Shoir o'z yurtining farzandi sifatida xalq dardlarini, iztiroblarini o'z ko'ngli orqali «lirik men» tuyg'ulariga payvandlab ifodalaydi. Hayot qanchalik go'zal, tabiat maftunkor, kuz manzaralari ham o'ziga xos jozibali yashamasa, kuz xirmoni unga baraka, shodligu quvonchlar keltirmasa, zahmatli mehnati unga rohat baxsh etmasa, aksincha, «mehnatga qullik» oqibatida mehnat zahmat, dardi alam keltirsa, jondan aziz xalqini baxtir deyish mumkinmi? Xalqini mehnat qaddini bukan, zahmatlardan ezilgan holda ko'rish shoirni iztirobga solmoqda. Shoir sobiq sho'rolar tuzumi davrida xalqimiz mehnatga qul qilinganligi oqibatida uning taqdiri buyruqlar, shiorlar orqali hal qilinganligini «kuzning falsafasi shudir biz uchun» misrasiga alamli istehzo ma'nolarini yuklab ifoda qilgan. Bunday she'rlarni tahlil va talqin qilish davomida bugungi istiqloq davrining qadr-qimmatini anglash, bu ulug' ne'matni yanada mustahkamlash uchun har birimiz shu yurt, shu millat farovonligi yo'lida kurashmog'imiz lozimligi tushuniladi. O'quvchilar shoirning grajdanlik tuyg'ularini o'z ko'ngli orqali his qilib, millatparvarlik tuyg'ulariga hamdardga aylanadilar. Anglab, his qilgan kechinmalarga tayanib fikrlaydilar, munosabat bildiradilar. Demak, tabiat lirikasiga mansub asarlarni o'qib-o'rganish va tahlil qilish vositasida nafaqat ona tabiatga mehr-muhabbat hissini tarbiyalash, balki o'quvchiga barchamiz shu makonning, shu yurtning bir bo'lagi ekanimizni anglatish; ona Vatan, tabiat va ona zamin oldida barchamiz mas'ul ekanimizni dildan anglab yashamog'imiz lozimligini uqdirmog'imiz zarur. Ona tabiat go'zalligidan, ne'matlaridan bahra olish bilan birga bu ne'matlarni ko'paytirishga, tabiatni asrash, avaylashga barchamiz burchimiz. ana shunday mas'ullik tuyg'usini his qila oladigan yoshlarni milliy va umuminsoniy tuyg'ularga ega vatanparvar deyish mumkin.

XULOSA VA MUNOZARA

Abdulla Oripov kabi iste'dod egalarning ruhiy olami, e'tiqodi, shaxs sifatidagi xislat va fazilatlarini, tafakkur tarzi, uslubi uning ijodkor sifatidagi qiyofasini namoyon etadi. Adabiyot darslari davomida shoir hayoti va ijodini o'rgatish vositasida yaratuvchi shaxsga xos fazilatlar namuna tarbiyasini o'taydi; shoir kechinmalariga o'quvchilarni kechinmadosh, hafikr, hammaslakka aylantirish natijasida o'quvchilarda ham insoniy sifatlar kurtak yoyishi; muayyan masalalarga o'z nuqtai nazariga tayanib fikr yurituvchi mustaqil tafakkur egalari shakllantiriladi. Yaratuvchilikka, ezgulikka, go'zallikka intiluvchan yoshlarni tarbiyalash, ular ko'nglida yetuk insonlarga nisbatan havas hissini uyg'otish, el e'zoziga sozovor bo'lgan so'z san'atkorlari kabi qalbi uyg'oq, fidoyi shaxslarni voyaga yetkazish mumkin. Shu yo'l bilan o'quvchilarda milliy va umuminsoniy tuyg'ularni shakllantirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Birinchi va ikkinchi jildlar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. -T.: 2000. - 432 b.
2. Yo'ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. doktori diss... -T.: 1997. - 306 b.
3. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dok. diss... - T.: 1995. - 253 b.
4. Atamuradova R. Talim jaraenida A.Oripov ijodini urgatish usullari metodik kullanma T.; 2016-50 b
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 2019
6. Safarova R. Ona tili o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: 2016

Jo'rayeva Zilola Sayfiddin qizi
Mustaqil tadqiqotchi
Namangan davlat universiteti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARIGA INTEGRATSION YONDASHISH ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari, vazifalari, shart-sharoitlari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Integratsiya, barkamol avlod, ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanish, ravon nutq, rivojlantirish kontseptsiyasi, yaxlit tizimli yondashuv.

Джораева Зилола Сайфиддиновна
Независимый исследователь
Наманганский государственный университет

ВОЗМОЖНОСТИ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К РАЗВИТИЮ КОМПЕТЕНЦИЙ

Аннотация. В данной статье говорится о возможностях, задачах и условиях нравственно-этического воспитания детей дошкольного возраста на основе комплексного подхода к направлениям развития компетенций.

Ключевые слова: интеграция, зрелое поколение, духовно-нравственное, эстетическое, физическое развитие, свободная речь, концепция развития, комплексный системный подход.

Joraeva Zilola Sayfiddinovna
Independent researcher
Namangan State University

POSSIBILITIES FOR SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH TO COMPETENCY DEVELOPMENT

Abstract. This article talks about the possibilities, tasks and conditions of moral and ethical education of preschool children based on an integrated approach to the areas of development of competencies.

Key words: integration, mature generation, spiritual and moral, aesthetic, physical development, free speech, concept of development, integrated system approach.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilib, bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida[1] maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Ustuvor yo'nalishda maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, bolaning kelgusida o'zini muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida olib borilishi zarur bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga integrativ yondashish eng maqbul yo'llardan biri bo'lishi mumkinligiga asos bo'ladi.

Xususan, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartida[2] maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmunning tarkibiy qismlariga integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya Davlat standartining 1-ilovasi sifatida berilgan "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan "Davlat talablari"da integratsiya tushunchasiga alohida to'xtalib o'tilgan va integratsiya – bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi jarayon ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

"Integratsiya" so'zi lotincha "integratio" so'zidan olingan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish ("integ" – to'liq, butun, yaxlit) degan ma'noni anglatadi[3]. Shuningdek, boshqa lug'atlarda "integratsiya" – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, "интегрировать" – bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq, deyilsa, sohaviy lug'atlarda "integratsiya" – o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish, deb izohlanadi.

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tushunchalarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma'naviy-axloqiy ongini qaror toptirish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlar (vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, qat'iylik, ma'suliyatlilik, ozodalik, orastalik, o'zaro do'stlik, ahillik, shirinso'zlik, saxiylik, jasurlik, go'zallikni his qilish, go'zallik yaratishga intilish va hokozolarni) qaror toptirish.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanadigan ma'naviy-axloqiy sifatlar bevosita ularning yosh va individual xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir; go'daklik davridan 3–4 yoshgacha bo'lgan davrda salomlashish, xayrlashish, minnatdorchiilik bildirish, yaxshi va yomon to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar, "mumkin", "mumkin emas" tushunchalari, ma'naviy-axloqiy ko'nikmalari, odatlari, o'zi tug'ilib o'sgan uyi, oila a'zo-

lariga, atrof-muhitga, mehnatga, insonlarga mehr-muhabbat, kabi dastlabki ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllantirilsa, 5–7 yoshgacha bo'lgan davrda o'zi tug'ilib o'sgan Vataniga, ota-onasiga, do'stlariga mehr-muhabbat shakllantiriladi. Intizom, o'zini tuta bilishlik, kamtarinlik, rostgo'ylik, saxiylik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, go'zallikni his qila olish, turli salbiy tahdidlarga o'z munosabatini bildira olish, mardlik, shijoat, qat'i-yat, zukkolik, jasorat, go'zallik, olijanoblik, mehr-shafqat, oriyat kabi yuksak fazilatlarini jamlab olgan ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi takomillashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashuv asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni "Til va nutq"; "Qurish yasash, konstruksiyalash va matematika"; "San'at"; "Syujetli rolli o'yinlar va dramalashtirish"; "Ilm-fan va tabiat" rivojlanish markazlarida amalga oshiriladi. Rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini amalga oshirish jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalari talabalarini bajarilishini va tarbiyalanuvchilarda turli ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Jumladan, "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasida bolada sezgi organlari yordamida o'z xatti-xarakatlarini boshqarish, o'z salomatligini saqlash ko'nikmalarini namoyon qilish, xavfsiz sog'lom ovqat va hayotini saqlash qoidalarini o'zlashtirish, o'zini o'z xususiyatlariga ega, ijobiy shaxs sifatida qabul qilishi, mustqail shaxs sifatida o'ziga javob berish, "Ijtimoiy-xissiy rivojlanish" sohasida bola boshqalarning his-tuyg'ularini farqlashi va o'zining xis-tuyg'ularini ifodalashi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishi, "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasida bola nutqni tinglash va tushunish, gapirish va muloqot qilish, asosiy harakatlarni egallash, qo'llarning mayda motorli ko'nikmasiga egalik, "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasida bola qiziquvchan, faol, intiluvchan, bilishga qiziqish bildirish, boshlang'ich matematik malakalarga egalik, o'zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qilishi, yangiliklarni o'rganishda faollik ko'rsatishi, "Ijodiy rivojlanish" sohasida bola turli san'at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish va tushunishini namoyish etishi, atrofdagi borliqni ijodiy o'zgartirish kabi ko'nikma va malakalarni egallab boradilar.

Tadqiqot doirasida tarbiyalanuvchilarda shakllanadigan ma'naviy-axloqiy sifatlarni bolalar rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish jarayonidagi imkoniyatlari tahlil etildi (1-rasmga qarang).

№	Rivojlanish sohalari	Ma'naviy-axloqiy sifatlar
1	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi	Chaqqonlik, ziyraklik, matonatlilik, chidamlilik, botirlik, irodalilik, kuchlilik, jasurlik...
2	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Vatanparvarlik, o'zaro do'stlik, g'amxo'rlik, hayrixoxlik, ochiq ko'ngillilik, o'z-o'zini baholay olish, ozodalilik, mustaqillik, ma'suliyatlilik, jasurlik...
3	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari	Ravon nutq, kitobxonlik, mustaqil fikrlash, onglilik, muomalalilik, intizomlilik, kattalarni hurmat qilish, milliy g'urur, badiiy asarlarni sevish...

4	Bilish jarayonining rivojlanishi	Qiziquvchanlik, intiluvchanlik, faollik, erkin fikrlash, ma'naviy savodxonlik, tashabbuskorlik, g'oyaviylik, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabat, tanqidiy fikrlash...
5	Ijodiy rivojlanish	Go'zallikni sevish, go'zallik yaratishga intilish, mehnatsevarlik, boshqalar mehnatini qadrlash, nafosatlilik, boy tasavvurga ega bo'lish, milliy an'analarni qadrlash...
Bolalar rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish jarayonida ushbu ma'naviy-axloqiy sifatlarni yaxlit shakllantirishga erishiladi.		

1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish jarayonida shakllantiriladigan ma'naviy-axloqiy sifatlarni

Masalan, "O'zbekiston-jonajon yurtim" mavzusidagi mashg'ulotini faollik markazlarida tashkil etish, mavzuga oid yangi bilimlarni berish, Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar, she'r va hikoyalar tinglash, mavzuga oid rasm chizish, aplikatsiya topshiriqlarini berish, harakatli yoki didaktik o'yinlar o'tkazish, kichik tajribalar o'tkazish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish asosida bolalar rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish imkoniyati yuzaga keladi va ularda vatanparvarlik, o'zaro do'stlik, go'zallikni his etish, mehnatsevarlik, millatparvarlik, ziyoraklik, chaqqonlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni yaxlit rivojlantirishga erishiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, rivojlanish sohalariga integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonining muhim xususiyatlaridan biri – bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4312–son qarori
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to'g'risida" gi 802-son qarori.
3. M.Zunnunov, A.Sulaymonov. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash omillari. –Toshkent. 2004.–B.6.
4. M.J.Turdiyeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion metodlari. Uslubiy qo'llanma. Buxoro. Durdona nashr. 2021-y. 20-22-b.
5. N.J.Abdusamatova. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish.: Ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) ...diss. avtoref. – Namangan, 2021. – B.23-25.

Nurov Shakir Rozikovich

Katta o'qituvchi

Qarshi davlat universiteti

YOSH FUTBOLCHILARNI MUSOBOQAGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Annotasiya: maqolada yosh futbolchilarni musoboqaga psixologik tayyorlash imkoniyatlari, shart-sharoitlari, nazariy asoslari va murabbiyning hamda futbolchining vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'z-o'ziga buyruq berish, ichki intizom, o'z-o'ziga ta'sir, sportchining imkoniyatlari, modellashtirish

Нуров Шакир Розикович

Старший преподаватель

Каршинский государственный университет

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СТУДЕНЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ И ПОЭЗИЮ

Аннотация: в статье рассматриваются возможности, условия, теоретические основы и задачи тренера и игрока по психологической подготовке юных футболистов к соревнованиям.

Ключевые слова: самообладание, самодисциплина, само эффективность, возможности спортсмена, моделирование.

Nurov Shakir Rozikovich

Senior Lecturer

Karshi State University

MECHANISMS FOR FORMING STUDENT THINKING THROUGH ARTWORKS AND POETRY

Abstract: the article discusses the possibilities, conditions, theoretical foundations and tasks of the coach and player for the psychological preparation of young football players for competitions.

Key words: self-control, self-discipline, self-efficacy, athlete's capabilities, modeling.

Futboldagi yangi va samarali usullarning paydo bo'lishi, futbolchilarning psixologiyasini yuksak darajada bo'lishini talab etmoqda. Har bir futbolchi bir o'yin davomida jamoasining g'alaba qozonishi uchun ko'pgina harakatlarni bajarishadi. Bu esa yosh futbolchilarning psixologik jihatdan o'yinga yuqori darajada tayyorlangani, o'yin vaqtida o'zlarini tutishlari harakat faoliyatida yaqqol sezilib qolishi hammamizga ayon. Bu esa bugungi kunga kelib ko'pgina murabbiy va futbolga oid mutaxassislarni qiziqtirib keladi.

Psixika - bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya`ni bilishimiz, anglashimizni ta`minlaydi. Psixikaning turli shakllarda ko`rinishlari: psixik jarayonlar, psixologik holatlar, xususiyatlar mavjud bo`lib, psixik aks ettirish bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, ya`ni shaxs individualligi orqali namoyon bo`ladi; shaxsning faoliyati jarayonida yuzaga keladi; atrof-dagi voqelikni to`g`ri aks ettirish imkoniyatini beradi. O`z-o`ziga bahoning past bo`lishi ko`pincha atrof-dagilarning shaxsiga nisbatan qo`yayotgan talablarining o`ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e`tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o`qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo`lishi mumkin. O`z-o`ziga baho shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta`sir ko`rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun`iy tarzda bo`rtirilishi, noo`rin maq-tovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o`tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo`ladigan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag`lubiyatga uchraganda yoki o`zida nochorlik, o`quvsizliklarni sezganda ham buning sababini o`zgalarda deb biladi va shunga o`zini ishontiradi ham (masalan, «halaqit berdi-da», «falonchi bo`lmaganida» kabi bahonalar ko`payadi). Ya`ni, nimaiki bo`lmasin, aybdor o`zi emas, atrof-dagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog`i yerdan o`zilgan», «manmansiragan», «dimog`dor» kabi sifatlarni bilan gapira boshlaydilar. Demak, o`z-o`ziga baho realistik, adekvat, to`g`ri bo`lishi kerak.

– o`z-o`zi bilan muloqot (o`zini konkret tarbiya ob`ekti sifatida idrok etish va o`zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);

– o`z-o`zini ishontirish (o`z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo`ysundirish);

– o`z-o`ziga buyruq berish (tig`iz va ekstremal holatlarda o`zini qo`lga olish va maqbul yo`lga o`zini chorlay olish sifati);

– o`z-o`ziga ta`sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan xolda o`zida ma`qul ustanovkalarni shakllantirish);

– ichki intizom - o`z-o`zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o`zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korrektsiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.[1]

Ijtimoiylashuvning mas`uliyat hissiga bog`liq yo`nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsadlar va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish, uzoq va yaqinga muljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta`minlaydi. Maqsad va rejasiz inson - ma`naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsadlar doimo o`zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog`liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o`rnashishida ma`lum ma`noda ideallar ham rol o`ynaydi. Ideallar - shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongda bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo`lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo`lib, o`sha ideallar ob`ekti bilan shaxs imkoniyatlari o`rtasida tafovut bo`lishi mumkin. Masalan, o`smirning ideali otasi, u otasiday mashxur va el suygan yozuvchi bo`lmoqchi. Bu orzuga yaqin kelajakda erishib bo`lmaydi, lekin aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo`yib, unga erishish yo`lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam beradi.

Mazkur mavzuni yoritishda ishga oid ma`lumotlarni to`plash uchun adabiyotlar manbalarni umumlashtirishga e`tiborimizni qaratdik. Olingan ma`lumotlar asosida yosh himoyachilarning harakatlarini amalga oshirishda psixologik jihatdan yo`l qo`yila-

digan kamchiliklarni aniqlash uchun Samarqand shahridagi Olimpiya zaxiralari kolleji tarbiyalanuvchilari tanlab olindi. A.Akramov va R.Nurimov pedagogik kuzatishlarida, futbolchi o'yin paytida futbolchining ruhiy holatinisqaqlash uchun, unga shunday kun tartibi belgilash kerakki, u, bir tomondan, sport rejimi talabiga qat'iy rioya qilsin, boshqa tomondan, rejimga qiziqarli, chalg'itadigan tadbirlarni kiritish kerak. Masalan: jamoaviy sayrlar, kino-komedyalarni ko'rish, sevimli musiqani eshitish, shahar tashqarisiga chiqish va boshqalar. Bunday yinchilarning individual ishtiyoqi, didini hisobga olish lozim [2-3].

A.Tolibjonov fikricha kuzatish natijalaridagi katta farqlar futbolchilarning musobaqa yuklamalarini tahlil qilishni qiyinlashtiradi va mutaxassislardan qayd etish usullarini standartlashtirishni talab qiladi. O'yinchilarni bo'lajak uchrashuvga tayyorlayotgan murabbiyning asosiy vazifasi futbolchilarda maydonga chiqish oldidan ro'y beradigan ortiqcha asabning taranglashishini kamaytirish, ularda o'z kuchiga ishonch jangovar holatini xosil qilishdan iborat. Shuni aytish kerakki, sportchilardagi ishonchning o'ta ishonchga o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki bu hotirjamlik hushyorlikni yo'qotish va diqqatni susaytirishga olib keladi.[4]

A.A.Karimov, A.A.To'laganov tomonidan keltirilgan tadqiqotlarda futbol musobaqalarini pedagogik kuzatish va tahlil qilish natijalari, mutaxassislariga yangi ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu ma'lumotlarga asoslanib esa, hozirgi kun tendensiyalari aniqlanadi. Shunday kuzatish va tahlil qilish ishlari natijalaridan ma'lum bo'lishicha, bir qator e'tiborli jihatlarda hozirda ko'zga tashlanmoqda. So'ngi yillar ichida futbolni rivojlanish tendensiyasi, texnik-taktik harakatlarni qisqa vaqt ichida bajarish, tez fikrlay olish va futbol maydonini har bir qarich yerida qat'iy kurash olib borish tomon rivojlanib bormoqda.[2]

Futbolchining psixologik tayyorgarligi musobaqa oldi davrida quyidagi bo'lim yoki tarkibiy qismlardan iborat:

1. Raqiblar va oldinda bo'ladigan musobaqa shart-sharoitlari haqida kerakli va ishonchli ma'lumotlarni yig'ish.

2. Musobaqa boshlanguncha sportchining imkoniyatlari, mashqlangan holati haqida ma'lumotlarni to'ldirish, aniqlash, kerak bo'lsa ularni o'zgartirish.

3. Musobaqada qatnashishdan maqsadni to'g'ri aniqlash.

4. Musobaqa jarayonini taxminiy programmalash, bo'lajak musobaqaning shart-sharoitlarini modellashtirish va taktik rejaning yo'nalishini aniqlash ehtimoli, ya'ni bo'lajak musobaqa sharoitlariga mos keladigan taxminiy dasturning optimal variantini tanlash.

5. Musobaqada uchraydigan har xil darajali qiyinchiliklarga (ayniqsa, to'satdan vujudga keladigan) to'qnashishga maxsus tayyorgarlik qilish va ularni yengish uchun maxsus mashqlar bajarish.

6. Yuz berishi mumkin bo'lgan ichki salbiy holatlar va tashqi muhit sharoitlarida o'z-o'zini boshqarish usullarini bashorat qilish.

7. Musobaqa boshlanguncha nerv-psixik holatni tetik saqlash usullarini tanlash, ishlata bilish va musobaqa vaqtida o'z-o'zini tiklay bilish.

Musobaqa sharoitini «modellashtirish» – bu musobaqaga dastavval psixologik tayyorlashning muhim vositasidir. O'yinni modellashtirish uchun murabbiy avval bo'lajak musobaqa sharoitini sinchiklab tahlil qiladi, ayniqsa, raqiblarni, tashqi muhitni (haroratni, tomoshabinlarning munosabatini, musobaqa o'tkaziladigan joyi va boshqalar).

Futbolchini psixologik tayyorlashning muhim muommasi – unda o'z emotsional holatini boshqara bilish ko'nikmasini takomillashtirish. O'z psixik holatini boshqara olis-

hga o'rgatishni nafaqat musobaqaga tayyorgarlik vaqtida, balki yil mobaynidagi mashg'ulotlar siklida olib boorish darkor. Shuning uchun murabbiy har bir mashg'ulotda ularni tayyorlash uchun o'z-o'zini tarbiyalash va boshqarish usullari yengishda katta ahamiyatga ega ekanligini chuqur tushuntirishi kerak va sportchilardan tizimli ravishda ushbu usullarni takomillashtirishni talab etishi zarur.

Bo'lajak o'yinga psixologik tayyorgarlik

Futbolchilar ayni uchrashuvga o'zi va raqib harakatlarini aniqlab, o'yinga tayyor bo'lganda, ularni o'yindan oldin dastlabki tayyorgarlik vaqtida o'yin to'g'risida o'ylash kerak emas. O'yinga tayyorlanishning boshqacha variantlari ham bo'lishi mumkin.

Musobaqaga sportchini psixologik tayyorlash amaliyotida bir qator usullar mavjud. Murabbiy ulardan kerakligini tanlab ishlatishi mumkin. Bo'lajak uchrashuvga nafaqat murabbiy, balki sportchining o'zi-o'zini tayyorlashi lozim. Buning uchun uchrashuv oldidan quyidagi usullarni ishlatishni o'rganib olishi kerak.

Bular:

- o'z-o'zigata'siretish;
- o'z-o'zini ishontirish;
- o'z-o'zigadaldaberish;
- o'z-o'zigabuyruqberish;

va hokazolardan iborat. O'yin oldidan, ayniqsa, ortiqcha qo'zg'alib ketadigan, muvozanatsiz o'yinchilar uchun autogen mashg'ulotlar keskin yordam beradi.

Bo'limlar orasidagi dam olish vaqtida jamoani psixologik tayyorlash

Bo'limlar orasidagi vaqtda o'yinchilarni psixologik tayyorlashda murabbiyning to'g'ri ko'rsatma katta o'rintutadi. Shuni ta'kidlash kerakki, agar murabbiy o'zini va salbiy start oldi holatlarini boshqara olmasa, ko'rsatma berishdan o'zini tutishi kerak, chunki uning salbiy holati o'quvchilariga tez o'tadi. Futbolchining irodasini u yoki bu harakatga safarbar etish uchun uning xarakter xislatlariga, nafsoniyatiga ta'sir etish yoki musobaqada qatnashishida jamoaga xos bo'lgan muhim motivlarni ishlatish ham mumkin.

Sportchilar bilan har xil miqyosdagi musobaqalarda ishlash tajribasi shuni ko'rsatdiki, maqsadga erishish vositalarga urg'u bermasdan, sportchining ongi natijaga yo'naltirilsa, maqsadga erishishda to'siq hosil bo'ladi.

Sportchining xulq-atvori va psixikasiga ta'sir etadigan har xil usullarni ehtiyotkorlik bilan, ularga moslashtirib qo'llash lozim. Agar o'yin reja bo'yicha o'tayotgan bo'lsa va o'yinni o'zgartirish zaruriyati bo'lmasa, unda murabbiy o'yinda qo'llanilayotgan taktikani o'zgartirishini hojati yo'q. Chunki o'yinchining ayni daqiqada o'yinga bo'lgan jangovar holatiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan natijalardan bilish mukinki futbolchilar o'yin oldida o'zlariga bo'lgan ishonchni yanada oshirish uchun murabbiylar ularga psixik jihatdan dalda berishi futbolchilarda ruhiyatini ko'tarishi uchun bir qancha amaliy jihatdan yordam berishi kerakligi ko'rinib turipdi. Bunga, futbolchilarga o'yin oldidan yetarli darajada texnik-taktik harakatlarni egallay olmaganliklari hamda yetarli darajada jismoniy tayyorgarlikka ega emasliklari halaqt bermasligi ko'zda tutiladi. Undan tashqari harakatlanish faoliyatiga katta ta'sir etadigan holat aniqlandi. Olingan natijalardan bizga shu narsa ayon bo'ldiki, futbolchilarning psixik jihatdan tayyor bo'lmasligi uning harakatlarida kamchiliklar, o'yin vaqtida jamoviy tashkillashtiriladigan hujumlarda o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishi namoyon bo'lishiga olib keladi. Bu holatdan o'quv-mashg'ulot jarayonida murabbiylar e'tiborga olgan holda hujum harakatlarida futbolchilarga psixikasiga bog'liq bo'lgan mashqlarni joriy etsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Musoboqaga psixologik tayyorgarlikning asosi futbolchida o'yinga tayyorlik holatini yuzaga keltirish, ushbu holat o'yin jarayonida ham saqlanishi lozim. Biz quyidagi psixologik mashqlarni o'yin oldi futbolchilarni ruhiyatini ko'tarish uchun, murabbiylarimizga tavsiya qilamiz.

- o'ziga ishonch;
- oxirigacha kurashishga va g'oliblikni egallashgaintilish;
- emotsional holatning yetarli darajada turg'unligi;
- o'z xatti-harakati, kayfiyati va hislarini boshqara olish;
- maqsadga erishish uchun hamma kuchni safarbar qilish qobiliyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abidov Sh U. "Yosh futbolchilarning o'quv mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish". Uslubiy tavsiyanoma. O'zDJTI 2011- yil.
2. Akramov R.A. Talibjanov A. I. "Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash" Toshkent 1994 yil 125 bet.
3. Nurimov R. "Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash". Toshkent 2005 yil 104 bet.
4. Qo'shbaxtiyev I.A. Futbol mahorati sari. Toshkent, 1990-yil, 4-32 bet.

Sadriddinova Feruza Meliyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrası o'qituvchisi
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti

SHARQ ALLOMALARI TA'LIMOTLARIDA BOSHQARUV FAOLIYATIGA OID PEDAGOGIK FIKRLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada shrq allomarining boshqaruv sohasiga, rahbarlik faoliyatiga oid ma'lumotlar berilgan bo'lib ularning bugungi kun uchun ahamiyati tahlil etib berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, rahbarlik, yakkabosh rahbar, hukmdor, podshoh, odil hokim, insonparvarlik, adolatli, saxovat, muloyimlilik, donishmand, farmonbardor.

Садриддинова Феруза Мелиевна
Доктор философии педагогических наук, (PhD)
Преподаватель кафедры теории педагогического образования
Джизакский государственный педагогический университет
имени Абдуллы Кадыри

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЫСЛИ ОБ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЧЕНИИ ВОСТОЧНЫХ НАУК

Аннотация: в данной статье представлены сведения о сфере управленческой и лидерской деятельности восточного мыслителя и анализируется их значение на сегодняшний день.

Ключевые слова: правление, руководство, единоличный руководитель, правитель, царь, справедливый правитель, гуманный, справедливый, щедрый, мягкий, мудрый, повелевающий.

Sadriddinova Feruza Melievna
Doctor of Philosophy of Pedagogical Sciences, (PhD)
Lecturer at the Department of Theory of Pedagogical Education
Jizzakh State Pedagogical University
named after Abdullah Kadiri

PEDAGOGICAL THOUGHTS ABOUT MANAGERIAL ACTIVITY IN THE TEACHING OF EASTERN SCIENCES

Abstract: This article presents information about the sphere of management and leadership activities of the eastern thinker and analyzes their significance today.

Key words: board, leadership, sole leader, ruler, king, fair ruler, humane, fair, generous, gentle, wise, commanding.

Bizga ma'lumki bugungi kunda ta'lim tizimidagi olib boriladigan islohotlar, yuksalishlar ko'p jihatdan rahbar xodimlarga bog'liq. Bu ayni chog'da rahbarlikning samarali yo'llarini topish, boshqaruv tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan. Tajribalardan shuni ko'rishimiz mumkinki, jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida ham taraqqiyotga aynan shu yo'l bilan erishilgan.

Ayni shu mavzu borasida bugungi kunda bir qancha ilmiy g'oyalar mavjud bo'lsa-da, bundan bir necha asrlar avval ham ushbu mavzu bo'yicha olimlarimiz, allomalari-miz o'zlarining qimmatli fikrlarini bildirishgan. Allomalari-miz ta'limotlarida rahbar shaxsi haqida fikr bildirilar ekan, adolatti va adolatsiz munosabatlarning yuzaga kelishi rahbarlarga, ya'ni shohlarga bog'liq ekanligi to'g'risidagi fikrlarni o'qiy-miz.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida: "Har qanday nisbatan katta miqyosdagi bevosita ijtimoiy yoki birgalikdagi qilinadigan mehnat idora qiluvchiga ma'lum darajada muhtojdir, bu idora qiluvchi shaxsiy ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish organizmini mustaqil organlari harakatidan kelib chiqadigan vazifalarni bajaradi¹ deb keltirib o'tiladi. Bu o'z navbatida "yakkabosh rahbar" bo'lishi muhim ekanligidan dalolat beradi. Busiz boshqaruv to'g'ri va to'liq bo'lmaydi.

To'g'ri rahbarlik qilish uchun oldindan ko'ra bilish, ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarish va qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish, ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarish va qiyinchiliklarni oldindan payqash va nazarga olish zarur. Har bir boshqarish vositasi faoliyatida muayyan tizimning bo'lishi shart. Buning ma'nosi shundan iboratki, bu ish tasodifiy bir-biriga aloqasi bo'lmagan tadbirlar yig'indisidan iborat bo'lmay, balki aniq sharoitni, vaziyat xususiyatini hamda jamoa oldidagi, shuningdek, uning ayrim bo'g'inlari oldida turgan vazifalarning xususiyatlarini qat'iy suratda tartibga solingan, bir-biri bilan bog'langan va chuqur o'ylab ko'rilgan reja va tadbirlar majmuasidan iborat bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Ma'rifatparvar shaxs Ahmad Donish fikriga ko'ra, agar boshqaruvchi odil va donishmand bo'lsa, xalqni qashshoqlikdan saqlab qolishi mumkin. Davlat bir guruh kishilargagina emas balki, xalq manfaatlariga xizmat qilishi zarur. Bu uchun esa hukmdor shaxsi bilimdon, odil, donishmand bo'lmog'i lozim. Mamlakatni idora etishda hukmdor nafaqat o'z fikriga suyanishi, balki muhim davlat arboblari bilan maslahatlashib ish yuritishi lozim ekanligi ta'kidlanadi. Chunki ko'pchilikning aqli bir kishining aqliga qaraganda ko'proqdir. Uning fikricha, mamlakatni shunday kishilar boshqarganda jamiyat-da tartib va intizom o'rnatiladi.

Davlatni adolat bilan boshqarishga aqlu idrok va ilmu tafakkur nuqtai nazaridan yondashish Ahmad Donishning qarashlariga xos xususiyatlardan biridir. Ahmad Donish "agar davlat aql, ong printsiplariga muvofiq tarzda tashkil etilmasa va boshqarilmasa, unday davlatdan yaxshilik kutish mumkin emas"² deb hisoblaydi. Bu fikr Sharq mutafakkirlari ilgari surgan va oqil hukmdorlar amal qilgan davlatni ilm-ma'rifat ahliga tayanib boshqarish g'oyasiga hamohangdir. U xalq ichidagi oqil odamlardan maxsus kengash tuzib, davlatni idora etish g'oyasini ilgari suradi: "Podshohga lozimdirki, kata bir mashvaratxona ochsin. Bunday ish hozirgi nizomlik davlatlar ichida mamlakat tushishning eng muhim ishlardan hisoblanadi. Mamlakat xalqining turli tabaqalaridagi eng aqlli va ilmi odamlardan u mashvaratxonaga a'zo saylab, ularga maosh tayin qilsin. U joyga yig'ilgan mashvaratchilar xalqning hamda davlatning manfaatini kuzatib fikr yurgizsinlar. Ular nima narsaga ittifoq qilgan bo'lsalar, u ishni amalga oshirsin. Mash-

¹ Abdulla avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq». www.zuyuz.com.

² Jamshid Niyozov. Ahmad Donish saboqlari. www.kh-davron.uz

varatxonada doimiy lozim emasdir, balki saylanmish odamlar har kuni bir necha soat to'planib, mamlakatning foyda va zararlarini tekshirib tursalar kifoya". Ahmad Donish kuchli demokratik davlat hamda ijtimoiy adolat ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etish orzusi bilan yashagan.

Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig" asari ayni shu masalalarni o'z ichiga olgan asarlar sirasiga kiradi. „Qutadg'u bilig" markaziga 4 masala qo'yilib, ular 4 obraz vositasida ochib berilgan: birinchisi — adolat bo'lib, u podshoh Kuntug'di timsolida, ikkinchisi — davlat bo'lib, vazir Oyto'ldi, uchinchisi — aql bo'lib, vazirning o'g'li Ugdilmish, to'rtinchisi — qanoat bo'lib, uning qarindoshi O'zg'ur-mish qiyofasida tasvirlanadi³.

Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig" asari boshqaruvchi shaxsi, ya'ni podsho xalq bilan birga va adolatli bo'lishi lozimligi g'oyasi ilgari suriladi. Uning o'g'it va nasihatlari hokimlarga qaratilgan bo'lib, boshqaruvchi rahbar tevaragida tabiatan yaxshi niyatli, yuksak axloq sohibi bo'lgan kishilar bo'lgandagina, u to'g'ri farmonlar chiqarish mumkin, shundagina mamlakat farovon bo'lib ravnaq topadi. Alloma kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin, u baribir kamtar bo'lib qolishi lozim deb ta'kidlaydi.

O'rta Osiyo buyuk donishmandlaridan biri bo'lmish Abu Rayhon Beruniy ham boshqaruv va boshqaruvchi shaxsi xususida o'zining bir qator fikr-mulohazalarini bayon etgan. U har bir kishiga baho berish uchun, uning qilgan ishini kuzatish mumkinligini ta'kidlaydi: „Har bir kishining bahosi o'z ishini ajoyib bajarishidadir"⁴. Beruniy o'zining „Hindiston" asarida ushbu g'oyani ilgari suradi: Tabiati jihatidan boshqarish va siyosat ishlariga qiziquvchi boshliq bo'lishga fazilat va kuchi bilan haqli, fikr va maqsadda sabotli, davlatni o'zidan keyingilarga qoldirib, ularning ota-bobolariga qarshi bo'lmasliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida turg'un tog'lar singari mahkam bo'lib, u buyruqqa ko'p vaqtlar va uzoq zamonlar o'tsada, keyingilar ham bo'ysunadilar.

Uning fikricha, tabiatan boshqarishga moyil bo'lgan hokim o'z n va qarashlarida qat'iy shi, o'z ishlarini amalga oshirishda doar tomonidan bildirilgan ilg'or mulohazalar bo'ysunishi lozim. Odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqlar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik va adolat o'rnatishdan iboratdir. Hokimning muhim vazifalaridan yana biri fan taraqqiyotiga olimlarga g'amxo'rlik qilishdir.

Beruniy o'z insonparvarlik g'oyalari bilan boshqaruv va rahbarlik psixologiyasi ta'limotlari rivojiga o'z hissasini qo'sha oldi. U insonlar orasida o'zaro tushunish, tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiqdiki, bu fikrlar hamisha qadrlidir.

Abu Nasr Farobiyning „Fozil odamlar shahri" asarida oqilona davlat tuzumi, odil hukmdorlar, aholining ma'naviy va psixologik jihatdan boshqarilishida fozil odamlar shahrida shahar aholisining stratometrik xususiyatlariga ko'ra tabaqalanishi lozimligi uqtiriladi. Bunda jamiyat a'zolarining o'zlarini boshqarishlarida jamiyatning o'zini-o'zi boshqarilishiga olib kelishi lozim, lekin bu bilan bir vaqtning o'zida har bir a'zo o'z psixologik-ma'naviy kamolotini usul hamda yo'nalishiga ko'ra yakkaxol tarzda mavjud bo'ladi. Shularning hammasini ikki yo'l bilan olish mumkin.

Bunda birinchidan yuqoridagi hodisalar aslida qanday mavjud bo'lsa, inson qalbiga ko'ngliga o'shanday o'mashib qolsa, boshqalarning ko'ngliga bu bilimlar qiyosiy yoxud taqlid asosida vujudga keladi⁵. Ba'zi odamlar o'sha narsalarni o'zlari his etishlari tufayli ko'ngillarida shu bilimlar vujudga keladi. Farobiy bu fikrni davom ettirib: Ikkinchi-

³ Yusuf Xos Hojib. „Qutadg'u bilig". T.: „Fan". 1971. 162 b.

⁴ Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari. Ziyonet ta'lim portali.

⁵ Abu Nasr farobiy. «Fozil odamlar shahri». - T. Abdulla Qodiry nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.

dan, ushbu sifatlarga ega bo'lmagan odamlar birikmasi esa, jaholatdagi va adashgan shaharlarning aholisini tashkil qiladi.

Fikrlashlar, g'azab, hasad, nafratga asoslangan bunday shahar aholisi doimo bir-birlariga qarshi kurashib bir-birlariga dushmanlik qiladilar, eng kuchllari boshqalarga nisbatan mukammalroq tuzilgan bo'ladi. G'olib kelganlar ham bir-birlarini yo'qotishga urinadilar, guyo boshqa mavjudotlar nomukammalday, ularning borligi bularga zarar keltiradiganday, yoxud boshqalar ularga faqat qulday xizmat qilish uchun yaratilganday, barchasi bir-birini ezib ishlatishga intilishadi.

Farobiy insonlarning yaxshi hayot kechirishi boshqaruvchi, ya'ni rahbar shaxsiga bog'liq ekanligini, uning turli fazilatlarini bu borada unga yerishini uqtiradi. Farobiyning fikriga ko'ra bu o'rinda rahbar shaxsi gumanistik insonparvarlik xususiyatlari muhimdir: "Kimki birovni baxt va saodatga erishtirish uchun zarur bo'lgan ish-harkatlarga ruhlantira olish qobiliyatiga ega bo'lmasa va bu ish- harakatni bajara olishga qudratsiz bo'lsa bunday odam sira ham rahbar bo'la olmaydi" alohida keltirib o'tadi.

Ular yo'l-yo'riqlarni o'tmishda yashab o'tgan boshliqlardan o'rganadilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak o'tmishdagi rasm-rusm, yo'l-yo'riqlarni isloh qilishni lozim topsa, turmush sharoiti taqozosiga qarab o'zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o'zida ofodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishning talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi. Farobiyning bu fikrlaridan ko'rinadiki, rahbar shaxsi birinchi navbatda o'zini yomon odatlardan ozod qila olishi, boshqalarni yaxshi ishlarga ruhlantira olishi kerak ekan. Bu fikrlarning bugungi kunimiz uchun ham ahamiyati pasaymaganligini kuzatish mumkin.

Darhaqiqat sharq allomalari bizga qoldirgan ma'naviy meroslarida, asarlarida umuman ular ta'limotlarida boshqaruv faoliyati alohida ahamiyatga ega mavzulardan biri hisoblanadi. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhob Beruniyning "Hindiston" Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kabi asarlari ayni shunday manbaalar sirasiga kiradi.

Bu donishmandlarimizning rahbarlik uchun zarur bo'lgan fazilatlar, davlatni idora etish uslubi va rahbarlik odobiga doir fikrlari ulkan ahamiyatga ega. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida shuni ko'rishimiz mumkinki, bizning yurtimizda yashab ijod etgan davlat arboblari, mutafakkirlarining asarlarida va qarashlarida boshqarish, rahbarlik mavzulariga alohida e'tibor qaratiladi. Ularga ijtimoiy voqelikka nisbatan ijtimoiy-psixologik yondashish, insonparvarlik g'oyalari ustuvor etib olingandir.

Bugungi kunda biz ularning ma'naviy meroslari, g'oya va qarashlarini o'rganish orqali, boshqaruv sohasini, rahbarlik fazilatlarini yaxshi o'zlashtirib borishimiz mumkin bo'ladi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ularning ta'limotlari bugungi kunda ayni shu sohada dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq». www.zuyuz.com.
2. Jamshid Niyozov. Ahmad Donish saboqlari. www.kh-davron.uz
3. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". T.: "Fan". 1971. 162 b.
4. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari. Ziyonet ta'lim portali.
5. Abu Nasr Farobiy. «Fozil odamlar shahri». - T. Abdulla Qodiry nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.

INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta'lim muhitida pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yoritib berilgan. Shuningdek, davlatimiz tomonidan nogironligi bor o'quvchilar ta'lim muhitida yaratib berilayotgan sharoitlar va ishlab chiqilgan qonun va qarorlar ijrosi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Inklyuziv ta'lim, nogironligi bor o'quvchilar, pedagogik kompetensiya, qarorlar ijrosi, xorij tajribasi, tadqiqot, tashviqot.

Umaralieva M. Отчество

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ В ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. В статье освещается вопрос развития социально-педагогической компетентности педагогов в среде инклюзивного образования. Также проведено анализ условий, создаваемых нашим государством в образовательной среде учащихся с ограниченными возможностями здоровья, и исполнения разработанных законов и постановлений.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, учащиеся с ограниченными возможностями здоровья, педагогическая компетентность, исполнение решений, зарубежный опыт, исследования, пропаганда.

Umaralieva M. Отчество

METHODS FOR FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE OF A GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTION TEACHER IN AN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract. The article covers the issue of the development of socio-pedagogical competence of educators in the environment of inclusive education. Also, the state has analyzed the conditions created by students with disabilities in the educational environment and the implementation of developed laws and decisions.

Key words. Inclusive education, students with disabilities, pedagogical competence, decision making, foreign experience, research, propaganda.

Kirish

Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi o'zgarishlar alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun ta'lim tashkilotlariga qo'shilish imkoniyatini beradi. Infratuzilmaning yetarli daraja-

da rivojlanmaganligi, alohida ehtiyojli bolalarga ta'lim olishda tegishli yordam ko'rsata oladigan mutaxassislarning yetishmasligi qishloq joylarda inklyuziv jarayonlarni amalga oshirishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Binobarin, davlatimizdagi integratsiya jarayonlari inklyuziv ta'limning milliy modelini shakllantirish imkonini berishi kerak. Bu model tarixiy-madaniy xususiyatlarni, madaniy-pedagogik an'analarni hisobga olishi, inklyuzivlik yo'nalishi bo'yicha rivojlangan mamlakatlarning yetakchi tajribasini o'z ichiga olishi kerak.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish respublikamizda o'qituvchilarning umumiy pedagogik malakasini oshirish, inklyuziv madaniyatni rivojlantirish, inklyuziv kadrlar tayyorlashni shakllantirish masalalarini hal etishni taqozo etadi.

Ayni paytda alohida ta'limga muhtoj bolalarning ota-onalari faollashdi, ijtimoiy tashkilotlar tuzila boshlandi. Nodavlat jamoat tashkilotlari jamoatchilik e'tiborini nogiron bolalarni himoya qilish, ularning huquqiy maqomi masalalariga qaratishga harakat qila boshladi.

Bunday holda, ota-onalar jamoasi alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun yangi texnologiyalar va mahsulotlarni ishlab chiqishga harakat qildi.

Davlat organlari alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun yangi ijtimoiy paketlarni tashkil etish choralari ko'rdi. Shu bilan birga, bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash sohasida ham ko'plab islohotlar amalga oshirildi.

Asosiy qism: Mamlakatimizda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash, ijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta'lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo'lgan mehr-shavqat hamda ezgulik tuyg'ularini hisobga olgan holda nogironlarning muhim ehtiyoj va talablariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrda PF-6018-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonlari, 2020-yil 13-oktabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrda 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normative huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-sonli "2022-226-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lom bolalar qatoridan o'rin olib o'z qobiliyati, imkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrda "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya

(shu jumladan, inklyuziv ta'lim-tarbiya) olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo'yicha alohida vazifalar qayd etib o'tilgan.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassis) bilan ta'minlash;

- jamoatchilik o'rtasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

- o'quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini optimallashtirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internetlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda ta'lim muassasalari har tomonlama yordam ko'rsatishi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilab berilgan.

Birlashtirilgan, inklyuziv ta'lim – inson huquqlarining dolzarb muammosi bo'lib kelmoqda. Hali juda ko'p bolalar ota-onalarining bola uchun qulay sharoiti mavjud, deb hisoblagan maxsus internatlarda o'qitishi tarafdori bo'lib kelmoqda. Lekin voyaga yetgan katta yoshli nogironlar, o'zlarini inklyuziv ta'lim shartlarini boshidan kechirgan deb ta'riflab, alohida ta'limning bekor qilinishini talab qilmoqdalar. Chunki qulay, imtiyozli sharoitda, hamma narsa tayyor bo'lgan sharoitdan chiqqach, tashqari moslashish, o'z o'rnini topish mashaqqati uzoq yillar davom etadi. Har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqliligini ta'minlash har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga xizmat qiladigan inklyuziv ta'lim tushunchasi ham qonuniy kuchga kiritilishi uzoq kutilgan yangiliklardan biri hisoblanadi.

Shular nazarda tutilgan holda hozirgi kunda birlashtirilgan inklyuziv davlat siyosati darajasida ko'rilmogda. Birlashtirilgan ta'limga o'tish jarayoni uchun quyidagilar amalga oshirilishi talab etiladi:

- ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosabatlarning o'zgarishi;
- oilaning bunga tayyor bo'lishi;
- maxsus maktab ta'limida bolalarning o'qitilish vaqti qisqartirilib bolalar boshlang'ich bosqichda reabilitatsiya bo'lishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratilishi;
- maxsus maktab ta'limi sohasi malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi, korreksiya va reabilitatsiya jarayonini sifatli va tezkor amalga oshirilishu uchun zarur jixoz-

lar bilan ta'minlanishi;

– maxsus maktab ta'limi va oila hamkorligiga erishish, oilaning rehabilitatsiya jarayonida faol bo'lishiga erishish.

Bolalarning ta'lim olish huquqining kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Ijtimoiy va tibbiy yordam to'g'risida" gi qonunlarida

Nogiron bolalarni pedagogik tuzatish, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasida integratsiya bosqichi 3 shaklga ega edi

1. To'liq integratsiya.

2. Kichik integratsiya.

3. Profilaktik integratsiya.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

– me'yoriy-huquqiy, iqtisodiy, ilmiy-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish.

– inklyuziv ta'lim xizmatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun erta aralashuv dasturlarini takomillashtirish.

– pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini tartibga solish.

Umumta'lim muassasasida alohida ta'limga muhtoj bolalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib, biz "o'rganish" tushunchasi orqali uning mohiyatini bilib olamiz. Demak, N.Volkova ta'limni o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri jarayoni sifatida belgilaydi, buning natijasida o'quvchi bilim oladi, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Hozirgi kunda, ayniqsa, inklyuziv ta'lim sharoitida "o'rganish", "o'rgatish" tushunchalarini qayta ko'rib chiqish zarur.

Albatta, alohida ta'limga muhtoj bolalarning inklyuziv ta'limi tibbiy-ijtimoiy va psixologik-pedagogik yordam bilan ta'minlangan individual o'quv rejasiga muvofiq amalga oshiriladi (A.Kolupaeva), bu uning moslashuvchan, individual o'quv jarayoni ekanligini ko'rsatadi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, inklyuziv ta'lim – bu alohida ta'limga muhtoj bolalarning umumiy ta'lim muassasalarida shaxsiy yo'naltirilgan o'qitish usullarini qo'llash asosida ularning ta'limini tashkil etish yo'li bilan ularning sifatli ta'limdan teng foydalanishini ta'minlashning murakkab jarayoni.

Yuqoridagi talqinlarni hisobga olgan holda, ular inklyuziv ta'lim – bu umumiy ta'lim muassasasida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning maxsus tashkil etilgan va boshqariladigan ta'lim jarayoni, buning natijasida barcha o'quvchilarning shaxsiy ta'lim ehtiyojlari qondiriladi, degan xulosaga kelishdi.

Bundan tashqari, umumta'lim muassasasida alohida ta'limga muhtoj bo'lgan kichik maktab o'quvchilarini inklyuziv ta'lim olish uchun ularga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun alohida sharoitlar, ya'ni boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan inklyuziv muhit nazarda tutilgan.

"Umumiy ta'lim muassasasining inklyuziv muhiti" tushunchasining terminologik mohiyatini biz oldingi bo'limda ochib bergan edik. Shuni ta'kidlaymizki, biz buni quyidagicha tushunamiz: 1) bunday bolalarni samarali o'rganish, tarbiyalash va rivojlantirishga yordam beradigan va bir vaqtning o'zida boshqa maktab o'quvchilarining ta'lim olishiga to'sqinlik qilmaydigan pedagogik, psixologik, ijtimoiy sharoitlar majmui; 2) maktab va uning atrofidagi hududlarni qamrab olgan maktab muhiti dizaynini birlashtirish, shunda o'quvchilar darslar va dinamik tanaffuslar paytida xavfsiz harakat-

lanishlari mumkin; 3) ijobiy hissiy muhitni ta'minlash va pedagogik jamoaning alohida ta'limga muhtoj shaxslarga va ularning ota-onalariga munosabatini o'zgartirish; 4) talabalarning birgalikdagi ishini va o'zaro yordamini tashkil etish; 5) ta'lim dasturlari va rejalarini, ta'lim usullari va shakllarini moslashtirish va o'zgartirish va boshqalar.

Ko'pgina olimlar e'tiborni an'anaviy ta'lim tamoyillarining inklyuziv ta'lim talablari-ga va inklyuziv ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisining kognitiv qobiliyatini rivojlan-tirishga mos kelmasligi faktiga qaratadi.

Хулоса: Zamonaviy talqinda "ijtimoiy yordam" – bu odamlarga hayotiy qiyinchiliklarni yengish yoki yumshatish, ularning ijtimoiy mavqeini va to'la huquqli hayotini saqlab qolish, jamiyatga moslashish uchun ko'rsatiladigan yordam, qo'llab-quvvatlash va xizmatlar ko'rinishidagi ijtimoiy chora-tadbirlar tizimi.

Inklyuziv muhitda boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan kichik maktab o'quvchilariga ijtimoiy-pedagogik yordam ijtimoiy-pedagogik xarakterdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik harakatlar majmuasini ta'minlash sifatida talqin etiladi, xususan:

– ta'lim jarayoni barcha o'zaro ta'sir subyektlarining ta'lim ehtiyojlari va manfa-atlarini qondirishni o'z ichiga olgan o'zaro yordam, o'zaro tushunishni tashkil etishga qaratilgan yagona funksional tizimga aylanadigan shunday hamkorlikni yaratish;

– ta'lim jarayonining o'zaro ta'sirining boshqa subyektlari bilan identifikatsiya qilish holatini yaratadigan yangi motivlarning shakllanishi yoki mavjud motivlar, munosabatlar va qadriyatlarining motivatsion kuchining o'zgarishi;

– nafaqat kommunikativ kognitiv jarayonga, balki sinfda qulay hissiy muhitni ta'minlashga, inklyuziv muhitda og'zaki va og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarni rivoj-lantirishga qaratilgan muloqotni tashkil etish;

– shaxsni ijobiy rivojlantirish maqsadida subyekt-subyekt munosabatlari tizimida qulay xarakterni, ularni ijtimoiylashtirish shartlarini ta'minlash

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari buning uchun ularning kasbiy mahorat da-rijasini oshirishni taqozo etishi, shuning uchun oliy ta'lim muassasasida o'qish davrida uni yuqori saviyada o'zlashtirishi, tayyor va tayyor bo'lishi lozimligi aniq. funksional vazifalarda ko'zda tutilmagan, ammo inklyuziv ta'lim tufayli keng ko'lamli ijtimoiy-peda-gogik faoliyatni amalga oshirishga qodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 28-iyul kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 39-sonli bayoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 1-dekabr-dagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tub-dan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son Farmoni.

4. O. Musurmonova, F. Kodirova, M. Umaraliev. "Oila – nogironligi bo'lgan bola-larni ijtimoiylashtirishning ko'prigidir"// "Mahalla va oila" nashriyoti, – Toshkent., 2022 Uslubiy qo'llanma –160 bet.

5. M. Umaraliev. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish.// Umumiy o'rta talim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. [Matn] Monografiya / M. Umaraliev. – T.: "Nodirabegim" nashriyoti, 2022. 148b.

ЛИДЕРЛИК МУАММОСИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

АННОТАТСИЯ

Ушбу мақола шахслараро таъсир жараёни сифатида лидерлик гуруҳдаги шахслараро ўзаро таъсир тизимида устунлик ва бўйсунушни, таъсир ва эргашишни ўз ичига олган кўп қиррали жараён ҳақида.

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о лидерстве как процессе межличностного влияния, многогранном процессе, включающем доминирование и подчинение, влияние и подчинение в системе группового межличностного взаимодействия.

ANNOTATION

This article is about leadership as an interpersonal influence process, a multifaceted process that includes dominance and subordination, influence and followership in a group interpersonal interaction system.

Кириш

Е. П. Ильин фикрига кўра, “лидер” атамаси жуда кенг қўлланилади. Лидер (leader) - инглизча сўз бўлиб, “етакчи, бошловчи” деб таржима қилинади. Бироқ, ижтимоий психологияда у биров бошқача мазмун олди. Шундай, лидер деганда гуруҳдаги шахслараро (норасмий ёки ноформал) муносабатларни тартибга солувчи гуруҳ аъзоси тушунилади.

Асосий қисм

Лидер – бу биргаликдаги фаолиятни ташкил этишда ва гуруҳдаги муносабатларни тартибга солишда ҳақиқатан ҳам марказий роль ўйнайдиган авторитет шахсдир. Муаллиф лидерга хос бўлган баъзи белгиларни ажратиб кўрсатади:

- унинг лидер (авторитет) вазиятига кўтарилган гуруҳга мансублиги;
- ўз ҳаракати билан у гуруҳ мақсадига эришишга ҳисса қўшади. Мазкур белги уч вариантлидир:
 - ўз ҳаракатлари билан у бошқаларга қараганда гуруҳ мақсадига эришишга кўпроқ ҳисса қўшади (масалан, кўпроқ гол урган);
 - бошқа аъзолар томонидан гуруҳ мақсадига эришишга ҳисса қўшади (дарвозабон томонидан муваффақиятли қайтарилган шайба бутун жамоани руҳлантириши мумкин);
 - гуруҳ аъзоси ўзининг раҳбарлиги билан гуруҳнинг бошқа аъзолари томонидан умумий мақсадга эришишга ҳисса қўшади;
- лидернинг ташаббускорлиги (қоидалар, умумэтироф этилган меъёрлар, ўйин учун амалий ишланмаларга расмий риоя қилиш талаб қилинганидан кўра, ихтиёрий равишда анча каттароқ масъулиятни ўз зиммасига олади);
- гуруҳ аъзоларининг унга бўйсунуши истаги ёки эҳтиёжи.

Муаллифнинг фикрича, ҳақиқий амалиётда лидер ролига кўтарилишнинг учта ҳолати мавжуд:

1. Шахс лидер бўлишни хоҳлайди, лекин гуруҳ унинг лидерлигини қабул қилмайди.

2. Гуруҳ шахсни лидер сифатида илгари суради, лекин унинг ўзи лидерликка интилмайди.

3. Шахс лидер бўлишга интилади ва гуруҳ уни қўллаб-қувватлайди (бу мавжуд лидерлик қобилиятларидан: ташкилотчилик, тактика ва бошқа дарак берадиган энг мақбул ҳолат).

Лидерларнинг турларини аниқлашда Э.П.Ильин (1-жадвалга қаранг) Б. Дж. Кретти томонидан берилган лидерларнинг қиёсий тавсифини келтиради:

а) шахслараро муносабатларга йўналган лидер;

б) вазифага йўналган лидер.

J. Downton ва J. Rebel таъкидлаганидек, лидерлик шахснинг жамиятдаги мавқеи бўлиб, уни эгаллаб турган шахснинг жамиятнинг айрим ёки барча аъзоларининг жамоавий хулқ-атворини бошқариш ва ташкил этиш қобилиятини тавсифлайди. Лидерлик – бу бошқа одамларга таъсир қилиш қилиб, куйидаги шартларга жавоб бериши шарт:

а) таъсир доимий бўлиши керак;

б) лидернинг таъсири бутун гуруҳга (жамоага) амалга оширилиши керак, жумладан лидернинг ўзига ҳам гуруҳ аъзолари таъсир қилиб, унинг хусусияти мазкур таъсирнинг кенглиги ва бутун гуруҳга тарқалишидан иборат;

в) лидер таъсир қилишда яққол устуворликка эга бўлиши керак. Лидер ва издошлар ўртасидаги муносабатлар ўзига хосдир: улар ўзаро таъсирдаги асимметрия ва тенгсизлик, лидердан гуруҳ аъзоларига таъсирнинг аниқ йўналганлиги билан ажралиб туради;

г) лидернинг ташкилотчилик таъсири тўғридан-тўғри куч ишлатишга эмас, балки раҳбариятнинг мавқеига ёки ҳеч бўлмаганда қонунийлигини тан олишга асосланиши керак.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда кичик ўқувчилар гуруҳларида лидерлик муаммосини тадқиқ қилиш XX асрнинг бошларида, америкалик психологлар уларнинг лидерлигининг намоён бўлишини ўрганиш бўйича тадқиқотларидан бошланган. Демак жамиятимизда лидерларнинг купайиши билан биз келажак авлод раҳбарларини шакллантирган буламыз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Shodiev R.D. Methods and Forms to Ensure Understanding in Educational Process. Eastern European Scientific Journal. DOI, 10.

2. Нуруллаева Ш.У. (2021). Бўлажак ўқитувчиларни методик тайёрлаш тизими. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. №2. Нөкис.

3. Аслонова О.П. (2020). Бошланғич синф ўқувчиларининг когнитив функциясини психо-педагогик аспекти. Уз Академия. Илмий услубий журнал. – Б. 171–175.

VARIATIV TA'LIMNI IJTIMOY FAOLLIK MODEL

Аннотация

Mazur maqolada rivojlantiruvchi ta'limning ijtimoiy faollik modeli va uning xususiyatlari, rivojlantiruvchi ta'limning amaliy komponentlari, loyihalash texnologiyasi haqida fikr bildiriladi. Shuningdek, mazkur ta'limni variativlash muammosi nazariy – amaliy yoritib berilgan.

Калит so'zlar: rivojlantirish, rivojlantiruvchi ta'lim, loyihalash, variativlik, yondashuv, ta'lim texnologiyalari.

Аннотация

В статье высказано мнение о социально-деятельностной модели развивающего обучения и ее особенностях, практических компонентах развивающего обучения, технологии проектирования. Также теоретически и практически объясняется проблема вариативности этого образования.

Ключевые слова: развитие, развивающее обучение, дизайн, вариативность, подход, образовательные технологии.

Annotation

The article expresses an opinion about the social-activity model of developmental education and its features, the practical components of developmental education, and design technology. The problem of variability of this formation is also theoretically and practically explained.

Key words: development, developmental education, design, variability, approach, educational technologies.

Ijtimoiy faollik – ishlab chiqarishni jadallashtirish, ilmiy va texnologik taraqqiyotni o'rnatish, jamoatchilik bilan aloqalarni yaxshilash va shaxsning o'zi uchun eng muhim shartdir. O'quvchilar ijtimoiy faolligining o'sishi insonning eng yaxshi xususiyatlari va fazilatlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilishni o'z ichiga oladi.


“Ijtimoiy faollik” modeli o'quvchilar ijtimoiy faolligi darajasining oshishiga xizmat qiladi. Bunda muammoli vaziyatlarni o'quv jarayoniga kiritish, o'quvchining ijtimoiy ehtiyojlari va intellektual his-tuyg'ulariga tayanish natijasida yuzaga keladi. Ushbu modeldagi asosiy psixologik element “ijtimoiy faollik”. Ushbu variativ o'quv modeli doirasida muammoli vaziyatni yaratish, faollashtiruvchi harakatlar, o'qituvchining savollari, bilim obyektining yangiligi, ahamiyati, hayotiyliigi va boshqa ajralib turadigan xususiyatlarini ta'kidlagan holda amalga oshiriladi. Psixologik nuqtai nazardan muammoli vaziyatni yaratish faqat individualdir. Gap shundaki, juda qiyin yoki juda oson bo'lgan kognitiv vazifa o'quvchilar uchun muammoli vaziyatni keltirib chiqarmaydi. Shuning uchun muammoli vaziyatni yaratish maxsus turdagi vazifalar bilan bog'liq deb aytishimiz mumkin [1].

Muammoli vaziyatlar o'quv jarayonining barcha bosqichlarida yaratilishi mumkin: yangi materialni o'rganishda, bilimlarni mustahkamlashda, uni nazorat qilishda va hokazo.

Muammoli vaziyatni yaratishda o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini uni hal qilishga yo'naltiradi, o'quvchi o'rganish sub'ekti sifatida harakat qilish uchun imkoniyati va tajribasi asosida bilish jarayonini tashkil qiladi. Ijtimoiy ahamiyatga ega muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish turli metodik usullardan foydalanish bilan bog'liq. Ular orasida quyidagilar muhim ahamiyatga ega emas:

- eng dolzarb, muhim ijtimoiy vazifalarni tanlash;
- har xil turdagi o'quv ishlarida muammoli ta'lim xususiyatlarini aniqlash;
- muammoli ta'limning optimal tizimini yaratish, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish;
- o'qituvchining o'quvchi faol kognitiv faoliyatini qo'zg'atishi mumkin bo'lgan shaxsiy yondashuvi va mahorati.


Ijtimoiy muammoli vazifalarning variantlari ijodiy va tadqiqot usullari bo'lib, unda o'quvchilar muammolarni hal qilishda mustaqil izlanishlar olib boradilar, mavjud bo'lgan bilimlarni ijodiy qo'llaydilar va yangi bilimlarni oladilar. Ijtimoiy faollik modelining uchta asosiy komponenti va olti bosqichi quyida tavsiflanadi (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy faollik modeli tuzilmasi.

Ushbu modelning uchta komponenti oldindan belgilangan tartibni bajarishi shart emasligini ko'rsatadi. Har bir bosqichning batafsil tavsifi jarayonni yaxshiroq ko'rib chiqish imkonini beradi. Ushbu modeldan qanday foydalanishni bilgandan so'ng, o'qituvchilar qaysi bosqichda nima ishlarni amalga oshirish lozimligini hal qilishlari mumkin. Vaqt o'tishi bilan ular har bir komponent ham divergent, ham konvergent fikrlashni o'z ichiga olishini bilib oladilar.

Ijodiy muammolarni hal qilish modelining birinchi komponenti muammoni tushunish bo'lib, muammo (mavzu) haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish uchun vaziyatni o'rganishni o'z ichiga oladi. Mazkur komponent 3 bosqichda amalga oshadi:



Birinchi bosqich quyidagi yo'naltiruvchi savollardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Yo'naltirilgan savollar	Tushuntirish uchun savollar	Konvergensiya masalasi	Natija
Qanday vaziyatni tahlil qilish kerak? Qanday qiyinchiliklar bor?	Menga aniq bir misol keltiring... .. deganda nimani nazarda tutyapsiz?	Eng muhim tushunchalar nima?	Umumiy mavzu bo'yicha aniq ma'lumotlar taqdim etilganda, bu bosqich yakunlanadi.

Ikkinchi bosqich ma'lumotlar ichida yangisini topish bo'lib, bunda ma'lumotlar bo'ylab harakatlanish vaziyat haqida ma'lum faktlarni ro'yxatga olishni o'z ichiga oladi. Mavzu taqdim etilganda, ushbu elementlar tomonidan yetkazilgan ma'lumotlar yangilikni ifodalaydi. Bunda mavjud tajriba va olingan bilimlardan ma'lumotlarni izlashimiz muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari muammo yuzasidan ma'lumotlarni topib, bilishi kerak bo'lgan hamma narsani sanab o'tish orqali vaziyatga aniqlik kiritadi. Keyin esa yetakchi savollarga javob berishi talab etiladi. Bundan tashqari, kerak bo'lganda tekshirish uchun savollar berilishi mumkin.

Yo'naltirilgan savollar	Tushuntirish uchun savollar	Konvergensiya masalasi	Natija
Vaziyat haqida biz bilgan ba'zi narsalarni nomlang. O'qishimiz (yoki tajribamiz, muhokamalarimiz) asosida biz nima haqida bilamiz...?	Vaziyat haqida nimani bilishni xohlaysiz? Noma'lum ma'lumotlarni qanday topish mumkin? Qanday qilib mavzu haqida ko'proq bilib olishimiz mumkin?	Buni qanday yozish (bajarish, amalga oshirish) mumkin edi?	Muammo haqida axborotlar, resurslar taqdim etilganda, bu bosqich yakunlanadi.


Uchinchi bosqich muammoni topish bo'lib, taqdim etilgan ma'lumotlardan iloji boricha ko'proq savol yoki muammolarni aniqlash uchun ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashni o'z ichiga oladi. Bir nechta muammolar aniqlanadi. Keyin uni hal qilish mumkin bo'lgan tarzda bayon qilingan, tanlangan yagona asosiy muammoga qisqartiriladi. Harakatning (fe'lining) tanlanishi muammoga yo'nalish beradi. Masalan, "Biz o'simlik va hayvonlarni asrash bilan bog'liq qonunlarni qanday yo'llar bilan rag'batlantirishimiz, qo'llashimiz yoki bekor qilishimiz mumkin?" Majburiy bosqichlarni tashkil etuvchi elementlarning aniqlangan muammo bayoni uchun asoslarini shakllantirish, tanlash va shakllantirishga urg'u berib, muammoli vazifani ishlab chiqish kerak bo'lishi mumkin.

Yo'naltirilgan savollar	Tushuntirish uchun savollar	Konvergensiya masalasi	Natija
Bizning muammomiz ushbu vaziyatning qaysi qismlarida yotadi? Qanday ma'lumotlar bizning muammomizni aniqlaydi?	Muammoni qanday aniq ko'rsatishimiz mumkin?	Ushbu bayonotlarning qaysi biri muammoni yaxshiroq ifodalaydi?	Mulohaza yuritish asosida eng yaxshi bayonot taklif etilganda bu bosqich maqsadiga erishadi.

Ijodiy muammolarni hal qilish modelining ikkinchi komponenti fikrlarni shakllantirish bo'lib, bosqichda asosiy e'tibor g'oyalarni o'ylab topishga qaratiladi. Ushbu bosqichda biz imkon qadar ko'proq ishonchli g'oyalarni qidirishga ahamiyat beramiz. Shunda ular aniqlangan muammo bayoniga yechim bo'lib xizmat qiladi. Ushbu bosqichda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

Yo'naltirilgan savollar	Tushuntirish uchun savollar	Konvergensiya masalasi	Natija
Bu muammoni qanday yo'llar bilan hal qilishimiz mumkin?	Qanday butunlay boshqacha yechimlarni sanab o'tishimiz mumkin?	Ushbu yechimlardan qaysi biri birlashtirilishi, kuchaytirilishi, o'zgartirilishi mumkin?	Fikrlash ko'nikmalari rivojlangan o'quvchi.

Ijodiy muammolarni hal qilish modelining uchinchi komponenti harakatlarni rejalashtirish bo'lib, bu bir nechta qadamdan tashkil topadi:



Yechim topish bosqichida qaysi variantlar muammoni eng yaxshi hal qilishini aniqlash uchun baholash mezonlari olinadi. G'oyalar tahlil qilinadi, so'ngra diqqat bilan va tizimli ravishda baholanadi. Belgilangan mezonlar eng istiqbolli yechimlarga qo'llaniladi. Har bir yechimni aniqlangan mezon bo'yicha tasniflash mumkin.

Yo'naltirilgan savollar: Ushbu fikrlarni qanday yo'llar bilan baholashimiz mumkin?

Qabul qilish – bu qaysi o'quvchi yakuniy yechimni qabul qilishi yoki rad etishini hisobga oladigan haqiqiy mahoratdir. Muammoning real yechimini qabul qilish uchun to'siqlar, e'tirozlar va qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda yechimni amalga os-

hirish bo'yicha harakatlar rejasi ishlab chiqilishi kerak. Yo'naltirilgan savollari: Bizning yechimimizni kim qabul qilishi mumkin? Nega? Bizning yechimimizni kim rad qilishi mumkin? Nega?

Rejalashtirish bosqichi – taklif etilgan yechimni amalga oshirish uchun qanday qadamlar qo'yishimiz kerak, ushbu yechimni samarali amalga oshirish uchun qanday tashkil qilish mumkin kabi savollarga javob topishga xizmat qiladi.

Muammoli vaziyat. (4-sinf, "Tarbiya" fani). Respublikamizda har kuni restoranlarda iste'mol qilinmagan ko'plab oziq-ovqatlarni tashlab yuborishadi. Sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunlarga ko'ra, restoranlarga bu taomni qayta ishlatishga ruxsat berilmaydi. Shunga o'xshash sabablarga ko'ra, restoran xodimlari ham och odamlarga bu taomni bera olmaydilar.

Sizningcha, garchi bu taomni qayta ishlash va iste'mol qilishning iloji bo'lmasa ham, ehtimol tashlab yuborilgan ovqatdan foydalanishning ijodiy usullari mavjudmi?

Ushbu muammo doirasida sizning vazifangiz iste'mol qilinmagan va tashlab yuborilgan oziq-ovqat uchun yangi va innovatsion foydalanish usullarini ko'rib chiqish va bu muammoning istiqbolli yechimini topishdir.

Ma'lumotlar ichida o'zingizga ma'qulini toping.

Oziq-ovqat haqidagi mazkur muammo sizda qanday taassurot qoldirdi?

Restoranlar iste'mol qilinmagan taomlarni tashlab yuborishadi.

Qonun restoranlarga yeyilmay qolgan taomlarni bron qilishiga to'sqinlik qiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtojlarga qolgan ovqatni berish mumkin emas.

Muammoni toping:

Oyiga necha kilogramm oziq-ovqat tashlanadi?

Qaysi toifadagi oziq-ovqatlar ko'proq tashlanadi? Masalan, sabzavotlar, mevalar, go'sht va baliqlar, parranda go'shti, sut mahsulotlari va boshqalar.

Oziq-ovqat mahsulotlarini utilizatsiya qilishni tartibga soluvchi sog'liqni saqlash qonunlarini o'rganib chiqing.

Yuqoridagi vaziyatdan qanday muammolar kelib chiqadi?

Qanday qilib restoranlarda oziq-ovqat iste'mol qilinmasligini rejalashtirish mumkin?

Yeyilmay qolgan ovqatni keyinchalik ishlatish uchun qanday saqlash mumkin? Sog'liqni saqlash qonunlari juda cheklanganmi?

Ko'p iste'mol qilinmagan oziq-ovqatlarni qayta ishlash mumkinmi? Restoranlardagi yeyilmay qolgan taomlardan qanday usullar bilan foydalanish mumkin? Foydalanilmagan va iste'mol qilinmagan oziq-ovqatlarni qanday qilib qayta ishlash mumkin?

G'oyalarni o'ylab topish.

Quyida bir nechta tipik javoblarga namunalar:

uni hayvonot bog'idagi hayvonlarga topshirish;

qishloq xo'jaligi hayvonlariga jo'natish;

uni kompostga solish mumkin.

Quyidagi mezonlarni hisobga olish lozim:

amalga oshirish qiymati, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlarini saralash, tashish;

talab qilinadigan vaqt;

mumkin bo'lgan yechimning qonuniyligi;

tegishli deb topilgan boshqa mezonlar;

eng ko'p ball to'plagan yechimni tanlang.

Harakatni rejalashtirish.

Qabul qilingan yechimni restoran egalari va qayta ishlash sohasida ishlaydigan boshqa asosiy odamlarga qanday targ'ib qilish.

Yechim topish.

plakatlar;

e-mail e'lonlari;

tashlab ketilgan oziq-ovqatlarni tashish uchun mos konteynerlarni sotib olish.

Yangi muammolar

Tijoriy uy hayvonlari uchun oziq-ovqat yetkazib beruvchilar e'tiroz bildiradilar.

Tashlab qo'yilgan oziq-ovqatga bo'lgan talab taklifdan ko'proq bo'lishi mumkin.

Taklif etilgan muammoli topshiriqlar o'quvchilarning mavzular yuzasidan mustaqil o'qib o'rganishlari uchun samarali variativ model hisoblanadi. Chunki mustaqil ta'lim – bu o'quvchilar mavzuni tanlashi, muammo yoki savollarni aniqlashi, ma'lumot to'plash va tahlil qilish, ko'nikmalarni mashq qilish va o'rganganlarini namoyish qilish uchun yangi g'oyalar taklif etishi mumkin bo'lgan individual ta'lim tajribasidir.

Mustaqil ta'lim uchun asoslar barcha o'quvchilar uchun umumshtirilishi mumkin bo'lsa-da, o'quvchilarning asosiy qobiliyatlari va qiziqishlari kabi shaxsiy omillar turli sabablarni bir o'quvchida ikkinchisiga nisbatan ahamiyatliroq bo'ladi. O'z-o'zini bos-hqarishning ba'zi umumiy sabablari quyidagilardan iborat:

mustaqil o'rganuvchi bo'lish;

o'quvchilarga qanday o'rganishga yordam beradigan usullarni taklif etish;

axborotni to'plash va tahlil qilishni o'rganish va bu ma'lumotlar haqida hisobot berish;

shaxsiy manfaatlarni o'rganishni rag'batlantirish;

ayrim sohalarni chuqurroq tushunishga yordam berish;

ilg'or rejalashtirish va tadqiqot ko'nikmalariga ega bo'lish.

Muvaffaqiyatli mustaqil elektron sayt uchun quyidagi asosiy elementlar tan olinishi va rejalashtirilishi kerak:

o'quvchi o'rganiladigan mavzuni tanlanadi;

o'qituvchi va o'quvchi birgalikda o'rganiladigan muammoni va u qanday tushuntirilishini rejalashtiradilar;

axborotni yig'ish va qayta ishlash bo'yicha turli g'oyalar taqdim etiladi;

oson kirish mumkin bo'lgan bir nechta manbalar;

rasmiy va norasmiy o'quvchi va o'qituvchi muloqotlari orqali o'qituvchining aralashuvi;

o'rganilayotgan fan sohasiga integratsiyalashgan malakalar;

munozara, fikr-mulohaza va baholash imkoniyatlari;

o'quvchi tomonidan ekspertiza va yakuniy mahsulot tan olinishi;

belgilangan muvaffaqiyat mezonlari;

mustaqil ta'lim uchun taklif etilgan elektron sayt manzilini ota-onalarga yetkazish.

Xulosa shuki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'ziga xos qobiliyatlarini, salohiyatini rivojlantirishda taklif etiladigan variativ modellarning imkoniyati samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Воронцов А. Б. Практика развивающего обучения по системе Д. Б. Эльконина-В. В. Давыдова / А. Б. Воронцов. - М.: ЦПРО «Развитие личности», 1998. - 360 с.

2.Мусина В. П. Социальный интеллект студентов и обучение в высшей школе //Алмаматер (Вестник высшей школы). 2015. № 6. С. 22-28.

Болтаева Раъно Амириллаевна
Место работы и должность на узб???

ТАЛАБАЛАРДА ИЛМИЙ ХАБАРДОРЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация. Шахснинг ҳукмларининг объектив хусусиятлари ҳар хил бўлиши мумкин. Инсоният тараққиёти тарихида дунёқарашнинг мазмуни ва унинг илмий билимлар, одамларнинг ҳаётий билимлари билан боғлиқлигига қараб, дунёқарашнинг асосий нуқталари ажратиб кўрсатилади.

Мақолада замонавий таълим муассасаларида талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантиришнинг асосий йўллари аниқланган, илмий хабардорликнинг моҳиятини ташкил этувчи билим, қарашлар, эътиқод ва идеаллар таърифи келтирилган.

Калит сўзлар. Ривожлантирувчи таълим, қобилият, илмий хабардорлик, дунёқараш, хулоса, ғоя, ҳодиса, билим, эътиқод.

Болтаева Раъно Амириллаевна
Место работы и должность на рус???

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНО- ОЗНАЧИТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. Объективные характеристики суждений человека могут быть разными. В истории развития человечества выделяют основные моменты мировоззрения в зависимости от содержания мировоззрения и его связи с научным знанием и жизненным знанием людей.

В статье определены основные пути формирования компетенций научного сознания у студентов в современных образовательных учреждениях, а также дано определение знаний, взглядов, убеждений и идеалов, составляющих сущность научного сознания.

Ключевые слова. Развивающее образование, способности, научное сознание, мировоззрение, вывод, идея, явление, знание, убеждение.

Bohtaeva Rano Amirillaevna
Место работы и должность на англ???

THEORETICAL FRAMEWORK FOR FORMING STUDENTS' SCIENTIFIC COMPETENCIES

Abstract: The objective characteristics of a person's judgments may be different. In the history of human development, the main points of the worldview are distinguished depending on the content of the worldview and its connection with scientific knowledge and the life knowledge of people.

The article identifies the main ways of developing the competencies of scientific consciousness among students in modern educational institutions, and also provides a definition of knowledge, views, beliefs and ideals that constitute the essence of scientific consciousness.

Keywords. Developmental education, abilities, scientific consciousness, worldview, conclusion, idea, phenomenon, knowledge, belief.

Дунёқараш - бу бизни ўраб турган олам, бу дунёдаги таърифимиз, воқелик билан боғлиқлигимиз ҳақидаги ғоялар ва қарашлар мажмуасидир. Бу одамларнинг фалсафий, илмий, сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий, эстетик идеаллари ва эътиқодлари тизимидир. Илмий хабардорлик эса инсон фаолияти ва хатти-ҳаракатларининг умумий йўналишини боғлайди. Илмий хабардорлик - бу бизни ўраб турган олам, яъни табиат, жамият ва тафаккур ҳақидаги қарашлар, тушунчалар ва ғоялар мажмуасидир.

Талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантириш бутун умр таълим олиш давомида шаклланади, чунки талабалар йиллар ўтган сари реал дунёни тобора тўлиқроқ ўрганадилар, уларнинг таълим фаолияти ва ижтимоий фойдали меҳнати тобора кўп қиррали ва ўз ўрнига эга бўлади. Талабаларнинг ишлаб чиқариш корхоналарига экскурсиялари уларга катта билим беради. Талабаларнинг нафақат ўзи нимадир қилишга ҳаракат қилиши, балки у ёки бу объект қандай яратилганлигини ўрганишни ёқтиришида ҳам бу нарса сезилади. Талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантириш уларнинг одамлар меҳнати билан таништириш истагига таянилиши керак, чунки меҳнат - бу атрофдаги дунёнинг катта соҳаси, ижтимоий ҳаётнинг асосидир.

Талабаларнинг касбий компетенцияларини такомиллаштириш масалалари М.Усмонбоева, Ў.Толипов ва бошқаларнинг тадқиқотларида ўз аксини топган [6].

Кимёни ўқитиш орқали ўқувчиларда илмий хабардорлик компетенциясини ривожлантириш масалалари Д.Алижанов, И.Зоҳидовлар томонидан ўрганилган [1].

Илмий фикрга эга бўлган шахс мослашувчанлик ва мустақилликка эга бўлади. У атрофдаги дунёда содир бўлаётган нарсаларни объектив равишда идрок этади, асосий билимларни ўз хоҳиши билан олади, янги маълумотларни ўзлаштиради ва ҳар қандай ўзгаришларга тайёр бўлади.

Илмий тафаккур фундаменталлик билан ажралиб туради. Оддий ақлий фаолиятдан фарқли ўлароқ, у универсаллик, асослилик, мақсадга мувофиқлик, билимларни умумлаштиришнинг юқори даражаси, муаммоларни шакллантириш ва гипотезаларни яратиш қобилияти, мантиқий изчиллик ва далиллар, олинган маълумотларнинг объективлиги ва ишончлилигига интилиш билан тавсифланади.

Талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантиришда уларга илмий дунёқараш элементлари берилади, яхлит дунёқарашни шакллантириш истиқболига мос равишда табиат ва ижтимоий ҳаёт ҳодисаларига реалистик қарашлар асослари яратилади.

Бугунги кунимизда дунёқарашнинг шаклланиши тарихий ютуқларимизни малакали тарғиб қилиш билан чамбарчас боғлиқ. Талабаларнинг маънавий қизиқишларини ривожлантириш ва юксалтириш, уларнинг сиёсий ва ахлоқий фазилатларига фаол таъсир кўрсатиш ўқитувчининг энг муҳим вазифасидир. Талабаларнинг олий таълим муассасаларида оладиган асосий билимлари уларга

билишнинг ушбу босқичида табиат ҳодисалари ва жамиятдаги муҳим алоқалар ва боғлиқликларни англаш, уларнинг фаолияти, хатти-ҳаракати ва маънавиятига бўлган талабларни белгилайдиган бир қатор асосий ғояларни ўзлаштиришга ёрдам беради.

Таълим жараёнига замонавий ёндашувлар шароитида талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантиришнинг асосий мақсади - ижодий фикрлайдиган шахсни шакллантиришдир.

Бинобарин, талабаларни тарбиялашнинг асосий вазифаси қуйидагича шакллантирилади:

- замонавий талаба шахсининг ички маданиятини, унинг фаолиятининг когнитив мотивларини ташкил этиш ва ривожлантириш;

- талабаларнинг ақлий фаолият кўникмаларини ва уларнинг диалектик тафаккурини шакллантириш;

- талабаларнинг ўқув ишларини оқилона ташкил этиш кўникмаларини ошириш;

- талабаларда илмий дунёқарашни шакллантириш.

Талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантиришнинг асосий босқичларида қуйидаги омиллар асосий ҳисобланади:

а) бизнинг атроф-муҳитимиз;

б) оммавий ахборот воситалари;

в) фан ва техниканинг энг янги ютуқлари;

д) санъатнинг барча турларининг ривожланиши.

Замонавий таълим муассасаларида талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантиришнинг ривожлантиришнинг асосий йўллари аниқланган, уларга қуйидагилар киради:

1 - ривожлантирувчи таълим тамойиллари асосида талабаларни тизимли тайёрлаш;

2 - ақлий қобилиятларни ривожлантириш учун дарсдан ташқари ишлар.

Талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантиришнинг назарий асослари уларнинг илмий дунёқарашини шакллантириш билан боғлиқ. Асосий ролни дунёқараш қобилиятлари бажаради, улар:

- назарий фактларни умумлаштириш ва дунёқараш хулосаларини чиқариш;

- дунёқараш ғоялари мазмунини аниқлаш, табиий ва ижтимоий ҳодисаларни баҳолаш қобилияти;

- ўз позициясини ҳимоя қилиш ва баҳслаша олиш, суҳбатдошининг асоссиз фикрларини исботлаш.

И.Ф.Харламовнинг сўзларига кўра, педагогикада дунёқараш унинг билимлари, қарашлари, эътиқодлари, идеаллари тизимини ўз ичига олган, табиат ва жамиятга муносабатини ифодаловчи, унинг ижтимоий, ахлоқий ва эстетик позициялари ва хатти-ҳаракатларини белгилайдиган инсон онгининг характерли шакли сифатида талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантириш мумкин [4].

Шахснинг ҳукмларининг объектив хусусиятлари ҳар хил бўлиши мумкин. Инсоният тараққиёти тарихида дунёқарашнинг мазмуни ва унинг илмий билимлар, одамларнинг ҳаётий билимлари билан боғлиқлигига қараб, дунёқарашнинг асосий нуқталарини ажратиб кўрсатиш мумкин:

- мифологик – табиат ҳодисалари тўғрисидаги илмий билимларнинг этиш-

маслиги туйфайли одамларнинг дунё ҳақидаги мавжуд бўлмаган ғоялари;

- диний – турли динлар нуқтаи назаридан ҳаёт ва дунёнинг келиб чиқиши ҳақидаги ғоялар; худонинг борлигига, руҳнинг ўлмаслигига ва бошқаларга ишониш; шу билан бирга, айрим ҳодисаларни тушунтириш учун жисмоний, тарихий, фалсафий ва ижтимоий билимлардан фойдаланиш;

- ҳар куни (кундалик) – руҳий тажриба; оқилона маъно; инсоннинг дунё ҳақидаги спонтан ва ҳар доим ҳам таснифланмаган ғоялари;

- илмий-табиий ва ижтимоий ҳодисаларнинг ривожланишини тушунтирувчи сабаб-оқибат муносабатларини тушуниш.

Талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантиришда турли фанлар дунёқараш ва эътиқодларнинг ривожланиши учун манба бўлиб хизмат қилади.

Талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантиришнинг назарий асослари мураккаб ва кўп қиррали тузилишга эга. Олимлар томонидан фалсафий, педагогик ва социологик нуқтаи назардан берилган таърифларни ҳисобга олсак, илмий хабардорликнинг моҳиятини билим, қарашлар, эътиқод ва идеаллар ташкил этади, деган хулосага келиш мумкин.

Билим - бу табиий ва ижтимоий ҳодисаларнинг моҳиятини англаш ва ўзлаштириш билан боғлиқ бўлган илмий ҳақиқатлар мажмуасидир. Билим илмий хабардорликнинг ривожланиши ва шаклланишига ҳисса қўшиши учун у шахс учун индивидуал маънога эга бўлиши керак.

Қарашлар - бу табиий ва ижтимоий ҳодисаларни тушунтириш билан боғлиқ бўлган ва унинг ушбу ҳодисаларга муносабатини кўрсатадиган тушунчалар, шахснинг индивидуал хулосасидир.

Эътиқодлар - бу шахснинг ҳаётий позицияларининг қатъийлигини, унинг фаолияти ва хатти-ҳаракатларининг табиатини белгилайдиган чуқур онгли ва кенг тажрибали ғоялар мажмуаси. Эътиқод - бу инсоннинг ҳаётий тажрибалари натижасида эришган ўз қарашларининг тўғрилигига қатъийлигидир.

Академик Б.Т.Лихачев, шунингдек, бу элементлар қаторига интеллектуал туйғуларни ва назарий тафаккурни қўшади, уларни субъектив компонент сифатида таснифлайди [3]. Шу билан бирга, Б.Т.Лихачев интеллектуал туйғуларни билим қувончи, ҳақиқатга ишониш, ижтимоий оптимизм ва қатъият кўринишидаги эътиқодларнинг органик хусусиятлари деб ҳисоблайди. У назарий тафаккурни билимли инсоннинг билимларни, воқелик ҳодисаларини ижодий идрок этиш, талабаларда илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантириш, дунёқарашини такомиллаштириш ва эътиқодларни амалга оширишга йўналтириш қобилияти сифатида ифодалайди.

Ахлоқий ҳис-туйғулар - бу ўқувчининг ўзига, атрофидаги одамларга, табиатга, содир бўлаётган воқеаларга, бутун атрофдаги воқеликка муносабатида ифодаланган ахлоқий меъёрлар, тамойиллар, идеалларни субъектив идрок этиши.

Ахлоқий хулқ-атвор - бу шахснинг ўз ҳаракатлари ва ҳаракатларида ахлоқий тамойиллар ва меъёрларга риоя қилишидир (Б.Т.Лихачев).

Инсоннинг ахлоқий тарбияси мезонлари (Н.Горожанкина):

- ахлоқий қоидаларни чуқур тушуниш;
- ахлоқий қобилиятлар, ахлоқий хулқ-атвор кўникмалари ва одатларини ривожлантириш ва шакллантириш даражаси;
- мураккаб ахлоқий вазиятларда ахлоқий йўналиш характери;

-
- яхлитлик даражаси;
 - ўзига ва одамларга нисбатан ахлоқий талаблар ўлчовлари;
 - ёлғиз ва гуруҳдаги хатти-ҳаракатларнинг табиати;
 - инсонпарварлик характери ва хулқ-атворининг мавжудлиги;
 - одамларга ҳурмат ва дўстона муносабатда бўлиш даражаси;
 - ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг ривожланиш даражаси;
 - виждон, ор-номус, уятнинг ривожланиш даражаси.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алижанов Д.А., Зоҳидов.И.О. Фанлараро алоқаларнинг тарихий ривожланиш босқичлари. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6838734>
2. Есипов Б.П. Самостоятельная работа учащихся в процессе обучения / Б.П. Есипов. М.: Логос, 2002. 284 с.
3. Лихачев Б.Т. Л65 Философия воспитания: спец. курс / Б.Т. Лихачев. —Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2010.
4. Педагогика. Харламов И.Ф. Учебник. Опубликовано в Литература. 29 Сен 2013.
5. Пидкасистый П.И. Самостоятельная деятельность учащихся в обучении: Единство и особенности овладения учащимися знаниями и методами самостоятельной познавательной деятельности. / П.И. Пидкасистый, В.И. Коротяев. М.: Педагогика, 2012. 183 с.
6. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологийа: назарийа ва амалийот. – Т.: Фан, 2005. – 205 б
7. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. /Д.Б. Эльконин. М., 2008. 275 с.

Лафасов Бегзод Жавлиевич
Профессионал таълим методикаси кафедра ўқитувчиси
Низомий номидаги ТДПУ

ТАЛАБАЛАРНИНГ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ПЕДАГОГИК КЛАСТЕР ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МАЛАКАВИЙ ПЕДАГОГИК АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ

Аннотация: ушбу мақолада талабаларнинг касбий тайёргарлигини педагогик кластер ёндашув асосида такомиллаштиришда малакавий педагогик амалиётнинг ўрни, бугунги кунда педагогик олий таълим муассасаларида педагогик амалиётни ташкил этиш муамолари ва ечимлари тўғрисида.

Калит сўзлар: касбий компетенция, амалий фаолият, кўникма, педагогик амалиёт, компетентлик, интеграция, олий таълим, бўлажак ўқитувчи, назария.

Лафасов Бегзод Жавлиевич
Преподаватель кафедры методики профессионального образования
ТДПУ имени Низами

РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

Аннотация: в данной статье рассматривается роль квалификационной педагогической практики в совершенствовании профессиональной подготовки студентов на основе педагогического кластерного подхода, о проблемах и решениях организации педагогической практики в педагогических вузах на сегодняшний день.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, практическая деятельность, навыки, педагогическая практика, компетентность, интеграция, высшее образование, будущий учитель, теория.

Lafasov Begzod Zhavlievich
Lecturer at the Department of Vocational Education Methodology
TDPU named after Nizami

THE ROLE OF PROFESSIONAL TEACHING PRACTICE IN IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS BASED ON THE PEDAGOGICAL CLUSTER APPROACH

Abstract: this article examines the role of qualifying pedagogical practice in improving the professional training of students based on the pedagogical cluster approach, on the problems and solutions of organizing pedagogical practice in pedagogical universities today.

Keywords: professional competence, practical activity, skills, pedagogical practice, competence, integration, higher education, future teacher, theory.

Тадқиқотимиз предметидан келиб чиққан ҳолда, компетентли ўқитувчи таёрлаш масаласини ўрганишнинг асосий йўналишларини очиб бериш мақсадида бу жараёндаги муаммоларнинг ечимини кўрсатадиган психологик-педагогик адабиётларни таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ. Мавжуд хулосаларнинг турли-туманлигига қарамай, барча тадқиқотлар учун умумий бўлган нарса шундаки, уларда касбий компетенция даражаси талабаларнинг педагогик маҳоратини шакллантириш даражасига боғлиқ. Соҳага оид илмий адабиёт ва изланишлар таҳлилидан маълум бўладики, ўқитувчи соҳага доир билимларни (психологик-педагогик, методик, илмий ва мутахассислик фанлари) ўзлаштириши, улар ёрдамида таълим сифатини ошириш талаб этилади. Шу сабабли мутахассиснинг касбий компетенциясини шакллантириш масаласини ҳал қилишда пойдевор яратадиган ва касбий тайёргарликнинг муваффақиятини белгилайдиган педагогик фан ва амалиётнинг асосий қоидаларини танлаш ва уларни ишлаб чиқиш вазифаси устувор масалага айланади. Мамлакатимиз ҳозирда “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” қадам қўймоқда, демократик жамият, ҳуқуқий давлат курмоқда экан, бундай шароитда таълимнинг аҳамияти нафақат иқтисодий, балки бутун жамиятни янги тараққиёт босқичига олиб чиқишнинг энг муҳим омили сифатида янада ошади. Таълимнинг роли кундан-кунга ортиб боради, таълим сиёсатининг асосий вазифаси – замонавий таълим сифатига эришиш, унинг шахс, жамият ва давлатнинг ҳозирги ва бўлғуси эҳтиёжларига мувофиқ бўлиши ҳисобланади. Шу сабабли ўқитувчиларни тайёрлашга катта эътибор берилмоқда. Олий таълим тизимини тубдан такомиллаштириш, мутахассислар тайёрлаш сифатини ва ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини ошириш, замонавий ҳаёт талабларига жавоб берадиган педагогик корпусни тайёрлаш ва шакллантириш вазифаси мамлакат келажаги учун муҳим аҳамиятга эга. Ушбу муаммони ҳал қилиш учун бугунги педагогик таълим муассасаларида тайёрланаётган ўқитувчилар замонавий мактаб талабларига тўлиқ жавоб бера олмайгани уни баратараф этишни тақозо этмоқда. Педагог кадрларни тайёрлаш тизимини: унинг ташкил этилиши, тузилиши, мазмуни, малакавий амалиёти (малакавий педагогик амалиёти ми?) ва таълим жараёнидаги инновацион жараёнлар билан ўзаро боғлиқлик тамойилларини, ўқитувчилар таркибини кўпайтириш ва сифатини яхшилашни комплекс ислоҳ қилиш учун бир неча моделларни ишлаб чиқиш ва экспериментал равишда синовдан ўтказиш зарур. Замонавий мактабларимиз учун мутлақо бошқача педагогик кадрлар керак. Қоидага риоя қилишга одатланган ва ҳар бир қадамда кўрсатмалар кутиб турадиган ўқитувчи бундай мактабларга мос келмайди. Замонавий мактаб ўзига жонли муносабатни, индивидуал ёндашишни талаб қилади. Компетентликка асосланган таълим шароитида ўқитувчи таълим жараёнида анъанавий таълимга нисбатан бир оз ўзгача функция ва ролни бажаради. Бундай таълим шаклида ўқитувчидан:

- талабаларнинг мустақил фаол билим фаолиятини ташкил этувчи;
- компетентли маслаҳатчи ва ёрдамчи;
- талабалар ҳаракатини психологик-педагогик аспектда баҳолай оладиган, уларга самарали ҳаракатлари билан тез ёрдам беришга ва ўзлаштирилган малака ва кўникмаларни амалда қўллаш жараёнида учрайдиган қийинчиликларни

бартараф этишга қодир мутахассис бўлиш талаб этилади. Ҳар бир таълим муассасаси таълим жараёни талабаларни ҳақиқий ҳаётга, фаолиятга, шу билан бирга, ўзлигини англаш, такомиллаштиришни мақсад қилади. Фақатгина бу ҳолат эртанги кун, келажакка йўналтирилган таълим тизими ва педагогика фанида ҳар қандай ижобий ўзгаришларни муваффақиятли амалга оширилиши билан кафолатланади. Ҳозирги кун мактабига ўз касбий компетенцияларига эга, бошқача айтганда, касбий компетентли мутахассис керак.

Амалиёт ва унинг касбий компетенцияларни ўзлаштиришдаги аҳамияти фалсафанинг ҳам илмий-тадқиқот муаммоларидан бўлиб келган. Дарҳақиқат, илмий соҳага оид билимларни ўзлаштириш ва ривожлантиришда амалиётнинг аҳамияти жуда катта ва бу классик фалсафа намояндаларидан тортиб ҳозирги давр файласуфларини ҳам қизиқтириб келмоқда. Фалсафий дунёқараш бўйича амалиёт моддий, сезиш мумкин бўлган, объектив, мақсадга йўналтирилган инсон фаолияти, билиш натижалари ҳақиқати мезони ҳисобланади. Бу бутун билиш жараёнининг бошланиши, чиқиш нуқтаси, табиий якунидир. Амалиёт, кенг маънода, билиш ва инсоният бутун ҳаётининг асоси сифатида билимлар манбаи, уни ҳаракатлантирувчи куч бўлиб хизмат қилади. Бу билим мазмунининг объективлигини асослайди. Билишнинг якуний мақсади ўз-ўзидан билимнинг пайдо бўлиши эмас, балки уларни амалий воқеликка ўзгартирилиши, уларни ҳақиқий ҳаётда гавдалантириш саналади. “Назарий билимларнинг объектига айланган ҳар бир нарса вақт ўтиши билан амалий онгнинг, сўнгра инсон амалий ҳаракатининг объектига айланади” [3; 69-с.]. Бу эса назария бирламчи ва амалиёт унинг ҳосиласи сифатида пайдо бўлиши ҳамда улар ўртасидаги бирлик моҳияти ҳақидаги фикрни тасдиқлайди. Фалсафий нуқтаи назардан қаралганда, назария ва амалиётни ўзаро ажралмас алоқадандир. Бу алоқадорлик ва муносабатда амалиёт етакчи аҳамият касб этади. Шу билан бирга, тор маънода, малакавий амалиёт – бу олий ўқув юртларида касбий тайёргарликнинг муайян шакли бўлиб, у соҳавий билимларга таянади, муайян қонуниятларга асосланади. Амалий фаолиятнинг ўзига хос хусусияти ўқитувчи фаолиятининг касбий ўзига хослиги билан характерланади. Амалиёт ўзига хос бўлган педагогик шарт – шароитни талаб қилади ва унда ўқитувчи фаолиятидаги барча жиҳатлар эътиборга олиниши зарур. Бу жараёнга фалсафий нуқтаи назардан ёндашиш унинг моҳиятини очиб беришга кўмаклашади.

Талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш шакли сифатида малакавий амалиётнинг имкониятларини очиб бериш учун мамлакатимиз олий таълим тизимида амалиётнинг шаклланиш тарихига, уни ташкил этиш тажрибасига мурожаат қилиш орқали қуйидагилар мақсад қилинади:

- 1) тарихий тажрибани ҳозирги кун шароитида самарали қўллаш имкониятлари борасида фикр билдириш;
- 2) самарасиз амалиёт шаклларида фойдаланиш каби кенг тарқалган хато ва камчиликларнинг такрорланишига йўл қўймаслик. Амалиётнинг бундай таҳлили уни ташкил этишнинг замонавийлашган ва компетенциявий мақбул шаклини (моделлини) ишлаб чиқишга эҳтиёж мавжудлигини кўрсатади.

Маҳаллий тадқиқотларда Ўзбекистон таълим тизимидаги малакавий амалиётнинг пайдо бўлиши, шаклланиш тарихи муайян даврларга бўлиб ёритилмаган бўлса-да, уни шартли равишда қуйидаги босқичларга ажратишимиз мумкин: биринчи босқич – мамлакатимиз мустақилликка эришгунгача бўлган давр; иккин-

чи босқич – мустақилликдан то таълимнинг “кредит-модул тизими”га ўтгунгача бўлган давр; учинчи босқич – мамлакатимиз олий таълимига “Кредит-модул тизими ёки компетентликка асосланган таълим тизими” кириб келгандан кейинги давр.

1-босқич, яъни Ватанимиз ўз мустақиллигини қўлга киритгунгача бўлган даврда ҳозирги МДХ мамлакатлари таълимида алоҳида тизимлар ажралиб турмаганлиги ва Ўзбекистон таълим тизими ҳам бундан мустасно бўлмаганлиги, ўша тизимни миллий тизимимиз дея эътироф эта олмаганлигимиз сабабли ушбу даврга батафсил тўхталиш мақсадга мувофиқ эмас, деб топилди.

2-босқич, Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни [2] ва “Кадрлар таёрлаш миллий дастури” [1] нинг қабул қилиниши билан бевосита боғлиқ. 1998 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси “Олий таълим муассасалари талабаларининг малакавий амалиёти тўғрисида”ги Низом муайян талаблар асосида ҳозирги кунгача барча олий таълим муассасаларида малакавий амалиётни ташкил этиш учун меъёрий асос бўлиб хизмат қилмоқда. Бундан ташқари, Олий ва ўрта махсус, Халқ таълим ва Мактабгача таълим вазирликларининг 2019 йил 5-мартдаги 10-к/к-13-4-сон қарорига мувофиқ “Педагогика таълим соҳаси талабаларининг малакавий педагогик амалиётини ташкил этиш тартиби тўғрисида” муваққат Низом қабул қилинган бўлиб, унда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сон “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ҳамда 2018 йил 5-июндаги ПҚ-3775-сон “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорларига мувофиқ олий таълим муассасалари бакалаврият таълим йўналишлари синон-тажриба асосида малакавий педагогик амалиётини ўташ тартиби белгиланган бўлсада, ОТМларда амалиётни ташкил этишда дастлабки, яъни 1998 йилдаги “Олий таълим муассасалари талабаларининг малакавий амалиёти тўғрисида”ги Низомга таянилмоқда. Мазкур ҳужжатлар мазмунан бир-бирини тўлдирди. Уларда амалиётни ташкил этиш, унга раҳбарлик қилиш, амалиётчи-талабаларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, амалиётни ўташ босқичлари, уни яқунлаш, унинг моддий таъминоти каби аспектлар ёритиб ўтилган бўлса-да, амалиётчи-талабалар қайси амалиёт турида қандай малакаларни, замонавий тилда айтганда, компетенцияларни ўзлаштириши борасида фикрлар учрамайди.

3-босқич, яъни Ўзбекистон Олий таълимига “Кредит-модул тизими ёки компетентликка асосланган таълим тизими” кириб келгандан кейинги даврда бўлажак малакавий амалиёт 4+2 тизимини жорий этиш билан бошланди. Ўзбекистон олий таълим тизимининг малакавий амалиёт тарихи ва ҳозирги ҳолатини таҳлил қилиш фан ва амалиётда ушбу муаммонинг аниқ, яхлит кўринишини шакллантиришга имкон беради. Замонавий талаблар бўлажак ўқитувчилар малакавий амалиётининг шакл ва мазмунига муайян тузатиш ва ўзгартиришлар киритиш зарурати мавжудлигини кўрсатади. Олий таълимда таҳсил олган ҳар бир битирувчи – Давлат таълим стандарти (ДТС) талабларига мувофиқ – ўз таълим босқичи ва мутахассислиги бўйича қуйидаги касбий амалий фаолият турларини бажаришга тайёр бўлиши керак:

- ўқитиш - дарс бериш;

- ташкилий-тарбиявий;
- тузатувчи-ривожлантирувчи;
- маданий-маърифий;
- консултатив;
- ижтимоий-педагогик;
- илмий-тадқиқий;
- бошқарув.

ДТСда педагог ходимларнинг мажбуриятлари сифатида таълим-тарбия жараёни иштирокчиларининг шаъни, кадр-қиммати ва ишчанлик обрўсини ҳурмат қилиши; ўқув машғулотларини сифатли ташкил қилиши, ахборот-коммуникация технологияларидан, ўқитиш ва тарбиянинг илғор ҳамда инновацион шакл ва усулларидан фойдаланиши, таълим олувчиларнинг психологик ва ўзига хос хусусиятларини, жисмоний ва руҳий саломатлигини, физиологик ривожланишини ҳисобга олиши, жисмоний, ақлий, сенсор (сезги) ёки руҳий нуқсонлари бўлган шахсларни ўқитиш учун шарт-шароитлар яратилишига эътибор қаратиши, вояга етмаган таълим олувчилар билан таълим-тарбия ишларини уларнинг ота-онаси ёки бошқа қонуний вакиллари билан ҳамкорликда олиб бориши кабилар қайд этилган. Амалий кўникма ва маҳорат психологик, педагогик ҳамда методик билимларга воситасида шаклланади. [4]

Ўзлаштирилган назарий билимлар амалиёт натижасида бўлажак ўқитувчи томонидан эгалланган тажрибанинг ошишига кўмаклашади. Педагогик амалиёт ўзига хос хусусиятларга эга ва ўқув жараёнининг педагогик тамойилларига асосан ташкил қилиниши мақсадга мувофиқ. Педагогик жараён мазмуни ва тамойиллари ўзида ўқитувчилик фаолиятини йўлга қўйишнинг асосий талабларини намоён қилади: йўналишларини белгилайди, ўқитувчилик касбига нисбатан ижодий ёндашиш кўникмасини шакллантиришга ёрдам беради. Тадқиқотимиз натижаларига кўра биз педагогик ОТМда компетентликка асосланган малакавий амалиёт тамойилларини аниқлаштирадик. Улар қуйидагилар:

- инсонпарварлик – бу тамойил жамият талаблари билан шахс мақсадларини уйғунлаштиришни ифодалайди. Бу эса таълим муассасаларида ташкил қилинадиган ўқув ва тарбиявий жараёнларнинг ўқитувчи шахсини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилиши билан изоҳланади.

- илмийлик – бу тамойил ўрганиш учун таклиф қилинаётган билимлар илмий, ижтимоий ва маданий тараққиётнинг сўнгги ютуқлари билан мувофиқ бўлишини назарда тутди. Ўқитувчилар ўз касбий фаолиятини илмий таҳлил қилиш учун етарлича тайёргарликка эга бўлмаганда илмий ёндашувнинг аҳамияти янада ошади;

- назария ва амалиёт уйғунлиги – ушбу тамойил педагогик тажрибани амалий фаолият давомида тўплаш, уни назарий дарсларда тушуниб етиш, шунингдек, таълим самарадорлиги ва сифати текшириш, тасдиқлашга асосланади.

- узлуксизлик, изчиллик ва тадрижийлик – бунда амалиёт мазмунида бўшлиқларнинг бўлмаслиги, жараённинг мунтазамлиги ва оддийдан мураккабга қараб тадрижий ривожланишда ташкил қилинишини ифодалайди. Шунингдек, бўлажак ўқитувчиларда педагогик билим, кўникма ва малакаларни ривожлантириш аниқ дастур асосида ташкил этилиши зарурлиги ҳамда янги ўзлаштирилаётган билим аввалгисига таяниши ҳамда уни мустаҳкамлаши, ушбу билимлар курсдан курсга такомиллаштирилиши назарда тутилади. [5]

Педагогик амалиёт узлуксиз педагогик таълим тизимининг таркибий қисмидир;

- интеграллашганлик – бу тамойил, биринчи навбатда, амалиётни ўташ жараёнидаги муаммоларни ечишда қўл келадиган психологик-педагогик, методик ва фанларга доир билимлар ҳамда кўникмаларнинг таҳлилини қамраб олади;

- мослашувчанлик – бу эса нафақат амалиё-талабанинг ўрта умумий таълим муассасаларида турли ўқув-тарбиявий ишларни ташкил этиш билан танишишидангина иборат, балки талабаларнинг педагогик жараёнга мослашиши, мактаб ички муносабатларида иштирок эта бошлашида намоён бўлади. Ушбу тамойилларга асосланиб, мутахассиснинг касбий компетентлигини шакллантириш воситаси сифатида малакавий амалиётнинг асосий функциялари белгиланади. Малакавий амалиётнинг асосий мазмуни – бу педагогик фаолият бўлиб, унда фаолият юритиш ёндашуви нуқтаси назаридан асосий компонентлар сифатида дастлабки ҳолат, мақсад, восита, шарт ва натижа қаралиши мумкин. Малакавий амалиёт мазмунига тўхталган тадқиқотчилар “амалиёт талабаларнинг назарий билимларини фаоллаштириши ва чуқурлаштириши, уларнинг педагогик маҳорат ва қобилиятларини шакллантириши, педагогик фикрлаши ва ижодий фаолиятини ривожлантиришга ҳисса қўшиши керак” [109; 34-с.] ҳамда “педагогик амалиётнинг мазмуни педагогик жараённинг энг муҳим хусусиятларини белгилаб бериши зарур” [110; 134-с.], деб ҳисоблашади. Педагогик олий таълим муассасаларида ташкил қилинган малакавий амалиётнинг ҳозирги ҳолатини ўрганиш мазкур йўналишда бирқатор камчиликлар мавжудлигини кўрсатди: 1) назарий машғулотларда бўлажак ўқитувчилар томонидан ўзлаштирилаётган замонавий педагогик ёндашувлар ҳамда таълим тизимининг ҳозирги ҳолатдаги ташкилий масалалар ўртасидаги номувофиқлик; 2) ўқув юртлари ўқитувчилар жамоасига талабалар қўшилишининг қийинлиги; 3) назарий тайёргарлик ва амалий фаолият билан боғлиқликнинг паст даражада эканлиги; 4) таълимда интеграция масаласининг етарли даражада таъминланмаганлиги; 5) талабалар ижодий қобилиятларини ривожлантириш, уларнинг индивидуаллигини намоён қилиш ва ривожлантириш учун малакавий амалиёт имкониятларидан етарли даражада фойдаланмаслик; 6) ОТМ ва малакавий амалиёт билан боғлиқ ташкилотлар ўртасида яхлит педагогик ёндашувнинг ўрнатилмаганлиги.

Ушбу камчилик ва мулоҳазалардан келиб чиқиб малакавий амалиётнинг мақсадларни қуйидагича белгилаш мумкин: талаба шахсидаги касбий компетенцияларни ривожлантириш, соҳага оид назарий билим ва амалиёт кўникмаларни ўзлаштирган бўлажак ўқитувчиларда касбга оид фазилатларни шакллантириш. Ушбу мақсад малакавий амалиётнинг мазмуни ҳам белгилайди. Малакавий амалиётнинг интеграл табиати яхлит бир жараён сифатида бўлажак ўқитувчи шахсида шаклланадиган барча жиҳатларга комплекс таъсир этади. Малакавий амалиёт ташкилотчилари олдида турган муаммолардан бири бу ўқитувчининг касбий компетентлигининг ҳамма компонентларини ривожлантиришга қаратилган барча турдаги вазифа ва топшириқларни тайёрлашдан иборат. Малакавий амалиёт касбий тайёргарликнинг ҳар бир босқичида ўқитишнинг мақсад ва вазифалари, назарий билимдонлик даражаси, талабаларнинг мустақил ўқув жараёнларида иштирок эта олиш ва тайёргарлик даражаси ҳамда индивидуал хусусиятларига монанд курсдан курсга қараб босқичма-босқич мураккаблашиб бориши талаб этилади. Малакавий амалиёт босқичларида бўлажак ўқитувчилар

педагогик фаолиятнинг муайян кўринишларини ўзлаштирадилар. Бу эса малакавий амалиёт жараёни касбга оид ўқув ва тарбиявий ишларни талабалар томонидан босқичма-босқич ўзлаштирилиши асосига кўра ташкил қилиниши лозимлигини кўрсатади. Педагогик фаолиятга киришишда, имкон қадар, барча ўқиган фанларни амалий қўллашга интилиш тавсия қилинади. Талабаларга назарий фанларни олиб бориш жараёнида ўзлаштирилган билимларни амалиёт билан боғлаш, Фанни ўқитиш методикасига доир билимлар Фанга доир билимлар Педагогик билимлар Психологик билимлар амалий бажариб кўришни ўргатиш талаб этилади. Бунинг учун ўқитувчилардан қуйидагилар талаб қилинади: малакавий амалиёт жараёнида талабалар учун зарур бўлган метод ва усуллардан фойдаланган ҳолда дарс машғулотини ташкил қилиш; талабалар учун ўқитиш жараёнида керак бўладиган таълимий вазиятларини яратиш; педагогик фикрлашни ривожлантириш; ҳамкорликда ишлаш, ўзаро муносабатларни ўрнатишни машқ қилиш; талабаларнинг умумий маданиятини юксалтириш йўлларида кенгроқ фойдаланиш; бўлажак ўқитувчи, тарбиячи ва ҳақозо сифатида талабаларнинг индивидуал интилишлари ва қобилиятларини ривожлантириш ва бошқалар.

Мақолада педагогик кластер, талабаларнинг касбий тайёргарлигини педагогик кластер ёндашув асосида такомиллаштириш масалалари тўлиқроқ ёритилса мақола қиймати янала ошар эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”. – Т.: 1997 йил 29 август // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 15-сон, 150-модда; 2013 й., 41-сон, 543- модда
2. Ўзбекистон Республикаси Қонуни, “Таълим тўғрисида”. – Тошкент, 1997 йил 29 август // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997-й., 9-сон, 225-модда; 2013-й., 41-сон, 543-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.01.2018-й., 03/18/456/0512-сон; 19.04.2018-й., 03/18/476/1087-сон
3. Воронович Б.А. Философский анализ структуры практики. -М.: Мысль, 1972.
4. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: 2004. – 314 б.
5. Пардабаев Ж.Э. Таълим жараёнида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш мазмуни // “Меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантиришда инновацион ёндашувлар” Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Бухоро, 2019. – Б. 25-27.

KURSANTLARARO MULOQOT VA MUNOSABATLARNI TASHKIL ETISHDA QADRIYATLI YONDASHUVNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada kursantlararo munosabatlardagi qadriyatli yondashuvni ro'yobga chiqarish orqali kursantlarning harbiy jamoalarda o'z o'rnini topishi, erkin faoliyat yuritishi, jamoadagi boshqaruvchanlik, tartibga solish, birgalikda faoliyat yuritish, safdoshlarini o'zaro qo'llab-quvvatlash kabi funksiyalarining namoyon bo'lishini amalyotga tadbiiq etishga bag'ishlangan pedagogik ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mujassam etilgan.

Kalit so'zlar: kursant, qadriyat, harbiy jamoa, jamiyat, shaxslararo munosabat, avtoritet, ma'naviyat, yondashuv.

Aksiologiya ijtimoiy fanlarning maxsus sohasi sifatida shakllangan G'arb mamlakatlarida, bu sohada maxsus qo'llanmalar va kitoblar chop etilmoqda, qadriyatshunoslik bo'yicha mutaxassislar bor, xilma-xil ilmiy anjumanlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan. hozirgi davrda G'arb mamlakatlarida aksiologiya bilan bog'liq xilmaxil ilmiy yo'nalishlar dunyoga keldi. G'arb qadriyatshunosligida mashhur nemis faylasufi I.Kantning izdoshlari V.Vindelband, G.Rikkert, M.Sheler, N.Gartman, G.Elzenberg va boshqalarning qarashlari keng tarqalgan. Ushbu olimlar reallikdan alohida yashashi mumkin bo'lgan muayyan qadriyatlar olami borligini e'tirof etadilar. Ularning qariyb hammasi uchun umumiy bo'lgan ushbu qarash tarixi uzoq o'tmishga, qadimgi falsafaning mashhur namoyandasi bo'lgan Aflotun zamonlariga, uning g'oyalar dunyosi bilan bog'liq fikrlariga borib taqaladi. Nemis olimlari V.Vindelband (1848-1915) va G.Rikkert (1863-1936) qadriyatlar muammosi borasida qariyb bir xil mulohaza yuritganlar va ularning qarashlari haqli ravishda Vindelband – Rikkert aksiologik ta'limoti, deyiladi. Bu olimlarning fikricha, qadriyatlar o'ziga xos ideal ahamiyat sifatida zohir bo'ladi, ob'ektdan ham, sub'ektdan ham alohida mustaqil olamni vujudga keltiradi, bu olam makon va zamon qonunlaridan ustun turadi. Ana shu ma'noda qadriyatlar olamdagi mavjud narsalardan ko'ra bir qadar ulug' zohiriylik va mutlaq haqiqatlaridir. Qadriyatlar muammosiga ob'ektiv nuqtai nazardan yondashgan olimlar orasida M.Sheler (1874-1928) va N.Gartmanni (1882-1950) ham tilga olmoq kerak. M.Sheler G'arb aksiologiyasining va undagi «O'zgarma axloqiy qadriyatlar» nomli nazariyaning asoschisi hisoblanadi (Vindelband V.Prelyudin. SPb., 1904; Rikkert G.O. ponyatii filosofii. SPb., Logos, 1914; sennosti jizni i kulturnye sennosti. SPb., Logos, 1912-1913. Kn. I-II. www.ziyouz.com kutubxonasi). Bu nazariyaga ko'ra qadriyatlar mustaqil yashashlari mumkin, ular o'zgarmaydilar, balki bizning qadriyatlar haqidagi fikrimiz o'zgaradi, bugun olam qadriyatlar bilan to'yingandir, qadriyatlarining mavjudligi borliqqa ma'no baxsh etadi, voqelik qadriyatlarining «o'ziga xos namoyishi»dan iborat. M.Sheler ma'naviy qadriyatlarini tahlil qilishda ularni ideal ob'ektlar, deb ataydi. Ana shu ideal ob'ektlar, uning nazarida, kishilarga doimo ta'sir qilib turadilar, ularning hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadilar, qadriyatlarini anglash insondan chuqur bilim va muttasil ilmiy izlanishni talab qiladi. M.Sheler qarashlarini N.Gartman ko'p jihatdan davom ettirgan,

«Etika» (1926 y), «Ontologiya asoslariga doir» (1935 y), «Tabiat falsafasi» (1950 y) kabi asarlarida qadriyatlar muammosining juda ko'p masalalarini tahlil qilgan. Gartman o'zgarmas axloqiy qadriyatlar nazariyasini rivojlantirishga harakat qiladi. Ushbu aksiologlar uchun umumiy bo'lgan asosiy fikrlar qadriyatlar ob'ektivdir, ular narsalar, voqelik shakllarining mohiyati, mazmuni, ahamiyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi deb qarashdan iborat. Shuning bilan birga ularning fikricha, qadriyatlar dunyosining o'ziga xos yashash qonunlari bor, ularning amal qilishi inson irodasiga bo'ysunmaydi. Qadriyatlar voqelik shakllarining mohiyati, ahamiyati, mazmuni sifatida mavjud bo'lganliklari uchun, kishilarning amaliy faoliyatini belgilaydi, odamlar o'z hayot tarzlarini ularning talablariga moslashtirishlari shart. G'arb qadriyatshunosligida sub'ektiv jihatlariga ko'proq e'tibor beradigan aksiologlar ham bor. Ular qadriyatlarining vujudga kelishini inson, uning sifatleri va faoliyati bilan bog'laydi. Bu oqimga xos qarashlar mashhur sofizm ta'limotiga borib taqaladi. Uni U.Jeyms, J.Dyui (1859-1952), A.Meynong (1873-1920), A.Bergson (1879-1961) kabi ko'zga ko'ringan namoyandalari bor, bu yo'nalish borasida D.Perri, G.Murrey, E.Tolmen, E.Fromm, R.Uilyams kabi olimlar va tadqiqotchilar ish olib borganlar. Ularning g'oyalari G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan. Masalan, XX asrning boshlarida U.Jeyms qarashlari, keyinchalik Jon Dyui g'oyalari keng yoyilgan va G'arb madaniyatining barcha sohalariga juda katta ta'sir ko'rsatgan. G'arb olimlari orasida V.Diltey, X.Erenfels, O.Shpengler, A.Toynbi, P.Sorokinlarni alohida ta'kidlash lozim. Bu olimlar nazarida qadriyatlarni mavhum emas, balki aniq tahlil qilmoq kerak. Ana shunda ularning kelib chiqishi, mohiyati va namoyon bo'lish shakllarini aniqlash oson bo'ladi. Bu diqqatga sazovor fikr bo'lib, undan hozirgi zamon qadriyatshunoslari ijodiy foydalanmoqdalar. Bizning fikrimizcha, qadriyatshunoslik muammolarini tahlil etish borasidagi qarashlarni hisobga olib, bu oqim vakillarini «plyuralistik aksiologiya» tarafdorlari, deb atash mumkin. Ular qadriyatlarni bir tomondan, voqelik shakllarining mohiyati, ahamiyati, ikkinchi tomondan, shaxs kechinmalari, tuyg'u va xususiyatlari bilan bog'laydilar. G'arb qadriyatshunosligining B.Yesup, M.Roder, T.Munro kabi olimlar mansub bo'lgan individual-psixologik yo'nalishi ham mavjud bo'lib, bu yo'nalish vakillari kishining shaxsiy-individual qadriyatlarini atroficha talqin qilganlar. Ular hozirgi zamon industrial jamiyati sharoitida shaxs qobiliyati, tashabbuskorligi juda qo'l keladi, u aynan shular bilan bog'liq shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirishga erishishi lozim, deya alohida ta'kidlaydilar. Ijtimoiy jarayonlar juda tezlashgan, kapitalistik bozor munosabatlari hukmron bo'lgan davrda shaxsning o'z kuchiga tayanishi, o'z baxtini o'zi yaratishi uchun kurashi, davlat va korporatsiyalarga emas, o'z qobiliyatiga umid bog'lashi uning qadrini belgilaydigan eng asosiy xususiyatlar bo'lib hisoblanadi. G'arb qadriyatshunoslarining asosiy fikrlari va qarashlarining qisqacha tahlili oxirida yana quyidagilarni ta'kidlash lozim: ular qadriyatshunoslikning ijtimoiy fanlar tizimida o'ziga xos o'rni va ahamiyati borligini isbotlash uchun muayyan xizmat qildilar. Sobiq ittifoqda bu fan «burjua aksiologiyasi» nomi bilan tanqid qilingan davrda, g'arb olimlari qadriyatshunoslikning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari, zamonaviy muammolari to'g'risida ilmiy izlanishlar olib bordilar. Ayniqsa, jamiyat, davlat, fuqaro munosabatlari hamda demokratiya, oshkoralik, inson huquqlarini barqaror qilish bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni qadriyatlar mezoni talablari asosida hal qilishga harakat qildilar. ular turli qadriyatlar tizimlari bilan xarakterlanadigan «sivilizatsiyalar evolyusiyasi», «industrial jamiyat», «postindustrial jamiyat» va boshqa zamonaviy nazariyalarni o'rtaga tashladilar, zamona muammolariga o'zlari yashayotgan jamiyat manfaatlarini ko'zlab yondashdilar.

G'arb olimlarining ijodini faqat maqtashning foydasi yo'q. Ular mansub dunyoda barcha umuminsoniy qadriyatlar barqaror etilgan, bu boradagi hamma muammolar hal bo'lgan, ushbu olim va mutaxassislar uchun qadriyatlar mavzusining tadqiq etilmagan sohasi qolmagan, degan optimistik xulosalarga kelish uchun asoslar ham yetarli emas. Qadriyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishning asrimizdagi yo'nalishlaridan biri – sobiq ittifoqda yashagan olim, mutaxassis va tadqiqotchilarning ko'pchiligi mansub bo'lgan marksistik oqimdir. Avvalo, qadriyatshunoslik alohida, mustaqil falsafiy fanmi? – degan masala ko'p bahslarga sabab bo'ldi. Uni «burjua fani», degan nom bilan ayblash 1960-yillargacha ta'qiqlab qo'yilishiga olib keldi. Mamlakatda I.Stalin hukmronlik qilgan davrda bevosita aksiologiya muammolari bilan shug'ullanishga izn berilmadi. Asrimizning oltmishinchi yillariga kelib bu mavzuda kitob, risola va maqolalarni chop etish, turli ilmiy izlanishlar olib borish boshlandi. Qadriyatlarni mustaqil falsafiy mavzu va muammo sifatida – tahlil qilish zarurligi V.P.Tugarinov va uning tarafdorlari tomondan ilgari surildi. Bir qator olimlar, masalan O.G.Drobniskiy, V.P.Ivanov, M.A.Lifqislar, qadriyatlar muammosining ahamiyatini va uni ilmiy tahlil qilish zarurligini butunlay inkor qilmasalarda, qadriyatshunoslikni mustaqil fan sifatida e'tirof qilish noto'g'ri, deb hisoblar edilar. O.G.Drobniskiyning fikricha, mustaqil qadriyatlar mavzusi va qadriyatshunoslik g'oyasi xomxayoldir. Drobniskiyning yuqoridagi nuqtai nazarini ko'pgina mutaxassislar tanqid qilganlar. Qadriyatlarni tahlil va tadqiq qilishda V.P.Tugarinov, V.A.Vasilenko, M.S.Kagan, V.V.Grechaniy va boshqalar ba'zi yutuqlarga erishdilar. Sobiq ittifoqda hukmron bo'lgan marksizm-leninizm mafkurasi qadriyatshunoslik, siyosatshunoslik, ziddiyatshunoslik kabi fanlarning rivojiga imkon bermasligini juda yaxshi tushungan V.P.Tugarinov boshqacha yo'l tutadi. U aksiologiyani faqat burjua fani sifatida qoralamasdan, uni o'rganmoq, foydali tomonlarini olmoq ziyon keltirmaydi, degan fikrni asoslashga harakat qiladi. Xullas, V.Tugarinov fikricha aksiologiyani mustaqil fan sifatida ijtimoiy fanlar tizimiga kiritish mumkin bo'lmasada, ammo qadriyatlar muammosini falsafaning juda kichik va juz'iy mavzusi sifatida emas, balki uning tarkibiy qismi bo'lgan alohida mavzu sifatida qabul qilmoq maqsadga muvofiqdir.

Kundalik muloqotlarda, ommaviy axborot vositalarining xabarlarida qadriyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar kabi so'zlar nihoyatda ko'p qo'llanilmoqda. Madaniy boyliklar, yodgorliklar, ma'naviy meros, an'ana, urfodatlariga nisbatan ham qadriyatlar iborasini, umumiy atama sifatida ishlatish hollari uchramoqda. Bu ibora kitob, risola, maqola va xabarlarining nomlarida ham uchrab turibdi. Uning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari to'g'risida, xilmaxil fikrlar bayon qilinmoqda. Bularning barchasi quyidagi savollarning tug'ilishiga sabab bo'lmoqda. Xo'sh, qadriyat nima? Biz nimaga asoslanib biror narsa, voqea, xodisa, munosabat, faoliyat va boshqalarni qadrlaymiz? Bu savollarning birinchisi qadriyat tushunchasini ta'riflash, ikkinchisi esa uning mazmunini tahlil qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Qadriyat tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda, turli sohalarda qo'llaniladi. Qadriyatlar iborasining xilma-xil ma'noda ishlatilishi unga berilgan ta'riflarni turlicha bo'lishiga olib kelgan bo'lishi ham mumkin. Biz bu mavzuga bag'ishlangan kitob, risola, maqolalarda uning o'ttizdan ortiq ta'riflarini uchratdik, bu ta'riflarning yanada ko'proq ekanligiga shubha yo'q. Ijtimoiy fanlarning qanday sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilish odat tusiga kirib qolgan. Holbuki, qadriyat kategoriyasi aksiologiya (qadriyatshunoslik)dan boshqa fanlarning birortasi uchun ham xususiy kategoriya emas. Qadriyat iborasining kundalik hayotdagi ma'nosi kishilar o'rtasidagi muloqotlarda, ommaviy axborot vositalarining xabarlarida o'ziga xos

tarzda namoyon bo'lmog'da. Kundalik hayotda, ko'pchilik nazarida narsalar (masalan, qimmatbaho buyumlar, taqinchoqlar), tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, jamiyatdagi talablar, orzu-umidlar, an'ana va marosimlar, madaniy boyliklar va boshqalar qadriyat sifatida tushuniladi. Kishilar hayot va faoliyat jarayonida muqarrar suratda o'zlari uchun bunday qadriyat bo'lgan narsalarga duch keladilar, ularning ahamiyati, foydasi va qadrini anglashga, baholashga intiladilar. Bundan tashqari odamlar o'zlari ishonib, gohida intilib, qiziqib yoki orzu qilib yashaydigan maqsad, orzu yoki ideallarga ham qadriyat tushunchasini qo'llaydilar. Xullas, kundalik hayotda ko'pchilik tomonidan qo'llaniladigan qadriyat iborasi, odamlar uchun biror zarur ahamiyat kasb etadigan ob'ekt, narsa, hodisa va boshqalarga nisbatan ham ishlatiladi. Qadriyatni aksiologiya nuqtai nazaridan talqin qilish uning kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, ob'ektiv asosi, sub'ektiv jihatlarini, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Qadriyat tushunchasini ba'zi faylasuflar talqin qilganlaridek, «tabiatning, moddiy va ma'naviy madaniyatning buyumlari inson ehtiyojlarini qondirish, uning maqsadlariga xizmat qilish qobiliyatiga egadir. Ana shu ma'noda ularga qimmatdorlar, deb qarash mumkin va zarurdir», degan ma'noda tushunish noto'g'ri. Bu ta'rifda avvalo tabiat va madaniyat buyumlari biror qobiliyatga egaligi ta'kidlanadi. Agar buyumlar biror qobiliyatga ega bo'lganlarida va ana shu qobiliyatlar odamlar uchun qadriyatga aylanganida, tabiiy-tarixiy jarayon butunlay boshqacha kechgan bo'lar edi.

Qadriyatni muayyan sub'ekt uchun biror boshqa ob'ektning yoki ma'naviy hodisaning qadrini ifodalaydigan falsafiy-aksiologik tushuncha sifatida qaralmasa, bunday ta'riflarning son-sanoqsiz bo'lishi aniq. Negaki, dunyoda qadrlanadigan narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko'p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun to'g'ridan-to'g'ri ism, atama yoki bevosita nom bo'la olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatni falsafiy-aksiologik tushunish, uning kundalik hayotdagi ishlatilish ma'nosidan farq qiladi. Bu esa qadriyat tushunchasini uning o'zi bog'liq bo'lgan ob'ektdan farqlash (aslo ajratish emas) bilan birga, uni ob'ektlarning turli jihatlarini (foydalilik, keraklilik) bilan ayniylashtirmaslik imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, qadriyat biror bir tarzda va shaklda zohir bo'ladigan, sub'ekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning sub'ekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir. Odamlar garchand bitta jamiyatda, bir davrda va o'xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvuri, qarashlari o'zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qiladi. Ijobiylik va salbiylik, baholanishi va ahamiyatiga ko'ra birbiriga mutlaqo ziddek bo'lib ko'rinadigan yaxshilik va yomonlik, haqiqat va haqsizlik, baxt-saodat va am-kulfat, evolyusiyasi va revolyusiyasi taraqqiyot va tanazzul, borliq va yo'qlik kabi tushunchalar hayotning bir-biriga zid va chambarchas bog'langan tomonlarini ifodalaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qadriyatlar va jamiyatning rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onasiga chiqib oladi, boshqalarini xiralatirganday bo'lib tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, ol-

dinga chiqib olgan qadriyatni barqaror qilishga nisbatan intilish kuchayadi. Masalan, yurti yov bosganida – ozodlik, ipmeriya hukmronligi nihoyasida – istiqlol, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, kasal va bemorlik onlarida – sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi, ularga intilish kuchayadi.

Shaxsning muloqot jarayonidagi qadriyatli yondashuvi munosabat uslublaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv shaxs namoyon bo'lmagan, "noreal" ideal va real hayotdagi amaliy jarayon o'rtasidagi tafovutlar va qarama-qarshiliklar asosida yuzaga keladi.

Shaxslararo qadriyatli munosabatlar tizimi quyidagi uch guruhga bo'lgan holda o'rganiladi:

Avtoritet-qadriyatli munosabatlar – rahbar va xodim, yo'l boshlovchi va bo'ysunuvchi shaxslar o'rtasida amalga oshirilib, bu asosan qat'iy qilib belgilangan qadriyatlar tizimiga asoslangan holda "topshiriq va ijro" munosabatlari tarzida kechadi. Avtoritet qadriyatlar tizimiga o'zaro hurmat, sifatli ijro, mukammal ishlangan topshiriq, qat'iy ijro, ijro haqidagi aniq hisobot shaklida amalga oshirilishi mumkin. Avtoritet-qadriyatli munosabatlarda huquqiy-me'yoriy qadriyatlar yetakchilik qiladi.

Ishonchli-qadriyatli munosabatlar – o'zaro yaqin va ishonchli munosabatlar o'rnatgan shaxslararo amalga oshadi. Bunday munosabatlar o'zaro qadriyatlari umumiy yoki yaqin bo'lgan, temperamenti, yoshi va yoshi xususiyatlari mutanosib bo'lgan, xarakter xususiyatlari o'zaro mos bo'lgan insonlar o'rtasida kechadi. Ishonchli-qadriyatli munosabatlar davomida shaxslararo o'zaro umumiy ma'lumotlar (sir) mavjud bo'ladi va u sir saqlanadi. Bundan tashqari barcha uchun e'lon qilinishi mumkin bo'lgan, ochiq ma'lumotlar ham bo'ladi. Ammo har doim bunday munosabatlar davomida qadriyat bo'lgan o'zaro hurmat, o'zgalarni qadrlash, mehribonlik, insonparvarlik kabi g'oyalar ustuvorlik qiladi. Bunday munosabatlarda emotsional qadriyatlar yetakchilik qiladi.

Diffuz (aralash)-qadriyatli munosabatlar – bu rasmiy va norasmiy muloqot jarayonida, ikki yoki undan ortiq shaxslararo muloqot tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Ya'ni bunday munosabatlar davomida sub'ektiv qadriyatlar, shaxsiy qadriyatlar, jamoaviy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar o'zaro uyg'unlashgan holda shaxslararo munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Bunday munosabatlarda ham adolat, tenglik, huquqiy madaniyat me'yorlari amal qiladi. Diffuz-qadriyatli munosabatlarda umuminsoniy, shaxsiy va jamoaviy qadriyatlar yetakchilik qiladi.

Shaxslararo qadriyatli munosabatlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Motivatsion funksiya – jamiyat a'zolari o'rtasida munosabatlarga kirishish ehtiyojini rag'batlantiradi, shaxslararo munosabatlarga kirishga chorlaydi, munosabatlarni amalga oshirishni sub'ektiv ehtiyojga aylantiradi. Shu sababli ham motivatsion funksiya shaxslararo munosabatlarda dastlabki va munosabatlar sarasini belgilab beruvchi asosiy funksiya hisoblanadi.

Boshqaruv funksiyasi – shaxslararo munosabatlar qadriyatli yondashuv asosida tashkil etilganda munosabatlarni, shaxsni, jamoani boshqarish vazifasini bajaradi. Ya'ni boshqaruvdagi shaxslararo munosabatlarni tartibga solish, topshiriqlarni qat'iy me'yorlar asosida yetkazish, adolatli va demokratik boshqaruv tamoyillariga amal qilish asosida jarayonni me'yorlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi.

Emotsional ta'sir funksiyasi – shaxslararo munosabatlar ma'naviy qadriyatlarga asoslanganda emotsional ta'sir etish xususiyatiga ega bo'ladi. Ushbu funksiyaning amalga oshirilishi muloqot sub'ektlarining shaxsiy va milliy qadriyatlarini bilish hamda hurmat qilishni, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishni taqozo etadi.

Kommunikatsiya funksiyasi – muloqot jarayonida shaxslararo axborot almashinuv jarayonini tartibga solib turadi. Ya'ni munosabatlar qadriyatli yondashuv asosida amalga oshirilganda kommunikatsiya jarayoni adolatli, insonparvar, ma'naviy-axloqiy me'yorlarga mos bo'lishi ta'minlanadi.

A.S. Belkin originally introduced the idea of vitagenic education to pedagogy in the late 1990s. The author cites as one of the reasons for its creation the discrepancy between the accepted pedagogical science notion of teaching interaction based on cooperation and subject-subject relations of the participants in the educational process and the reality. Vitagenic education is training, which is based on the actualization of the life experience of an individual, his personal and intellectual potential for pedagogical purposes. In vitagenic education, life experience is essential. However, it is necessary to distinguish between experience of life and life experience [3]. According to A.S. Belkin, these are completely different concepts that have different contents. Experience of life is vitagenic information that is not obtained independently, but is based on a person's awareness of certain aspects of life and activities. The experience of life is not of sufficient value for a person. However, as it was established by A.S. Belkin, it is based on the experience of life that the learning process is built in most educational technologies [1, 2].

Life experience is vitagenic information that was obtained by a person on his own and is his property. Life experience is deposited in the personality's memory reserves and is in a state of constant readiness for actualization in various life situations [7, 8, 9]. In pedagogy, it is customary to call this competence. The classification parameters of the vitagenic education technology are:

- The level and nature of the technology is the sectoral macrotechnology;
 - Existential philosophical basis;
 - A set of sociogenic and biogenic factors;
 - Associative-reflex scientific concept of development;
 - Orientation to personal structures and spheres, such as: ZUN, COURT and key competencies;
 - Socio-pedagogical activity is represented by the socialization of the individual;
- The secular and educational nature of the content;
- The nature of the management of the educational process is represented by work with small groups;
 - Communication methods are leading;
 - Classroom-lesson form of work with students in the framework of the educational process;

Vitagenic learning is learning aimed at actualizing and turning into a necessity life experience, the intellectual, psychological and pedagogical potential of the individual

in the process of education, which is based on two types of life experience. Life experience is vital information that has not been lived by a person, connected only with his awareness of certain aspects of life and activity, but not having sufficient value for him. Life experience is vital information that has become the property of the individual, deposited in the reserves of long-term memory and in a state of constant readiness for actualization in adequate situations. This is what in modern pedagogy is called competencies. Vitagenic learning is the living of feelings, the living of actions, the living of activities soldered into something indivisible. From these positions, the teacher is not so much an informer as an accomplice, an inspirer who knows how not only to lead, but also has the ability to sympathize, empathize with successes and failures. The meaning of vitagenic education is the formation of a social image of a person, a unique personality, i.e. individuality. Vitagenic education uses the student's resources hidden in the subconscious. The reliance on the subconscious in vitagenic education is, first of all, the creativity and fantasies of the student in various manifestations, intuition, i.e. the ability to perceive the world and make decisions based on "intuition", without the participation of consciousness, at the level of instantaneous comprehension. Intuition, like fantasies, reflects vital experience, the actualization of which is an excellent tool for organizing the educational process. The fact is that the vital technology, unlike others, considers life experience as the basis for the formation of a personality, while other technologies that I worked with use life experience only as an illustrative material, which is also, of course, a big plus. . If earlier I solved problems through introspection and self-education, now I see this solution in the fact that children themselves are a unique material that you just need to learn how to work with. Vitagenic education proceeds precisely from the understanding of the uniqueness, unconditional significance, value of the child's vital experience, and considers this experience as the key to cooperation, which is understood as a joint activity of the participants in the educational process aimed at achieving common goals. At the same time, not only an auxiliary, but, above all, an independent educational function of vital experience is recognized [4].

I believe that the systematic application of knowledge to expand life experience gives an active and purposeful nature to the activities of students, creates in them the habit of peering into life, accumulating knowledge "in reserve". The result of my work within the framework of this technology will be my own style, to which I have been going for so long. The author of this technology is August Solomonovich Belkin. A.S. Belkin distinguishes the following methods of the vitagenic method in teaching: (I want to dwell on certain methods of the vitagenic technology that I have already tested)

List of used literature:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 3, 2019 No. PP-4307 "On additional measures to improve the efficiency of spiritual and educational work".
2. Belitskaya G.E. Social competence of the individual // Consciousness of the individual in a crisis society. M., 1995. S. 42-57.
3. Belkin A.S. Success situation. How to create it. The book for the teacher. - M.: Enlightenment., 1991. 176s.
4. Botcheva, L. Shih, J. Huffman, L.C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. N2. P. 176-188.

ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА Ота-оналар педагогик маданиятини ривожлантириш МЕХАНИЗМЛАРИ

Аннотация Мақолада фарзанд тарбиясида ота-оналарнинг мактаб ёшидаги фарзандлари билан ўзаро муносабатларида тарбиянинг замонавий методлари билан таништирилади. Оиладаги педагогик маданиятини тўғри ташкил этиш, замонавий технологиялар ёрдамида юзага келадиган муаммоли вазиятлардан чиқиш борасида тавсиялар келтириб ўтилади.

Калит сўзлар. Тарбия, педагогик маданият, маънавий тарбия, ота-она масъулияти, тарбиянинг замонавий технологиялари.

Азимова Сайёра Тоштемировна
Докторант ЎзПITI имену Кори Ниязия

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ РОДИТЕЛЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ

Аннотация: в статье изложено мнение касающейся современные методы воспитания во взаимоотношениях родителей с детьми школьного возраста. Даны рекомендации по правильной организации родительской культуры в семейных взаимодействиях при воспитании детей помощью современных технологий.

Ключевые слова: воспитание, педагогическая культура, духовное воспитание, родительская ответственность, современные технологии воспитания.

Azimova Sayyora Toshtemirovna
Doctoral student of UzPITI named after Kori Niyazia

MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF PARENTS' PEDAGOGICAL CULTURE IN CHILDREN'S EDUCATION

Abstract: the modern methods of education in the relationship of parents with their children of school age. Recommendations are given on proper organization of parenting culture in family interactions in child rearing, getting out of problematic situations with the help of modern technologies.

Key words: education, Pedagogical culture, spiritual education, parental responsibility, modern educational technologies.

Жамиятнинг ривожланиши бевосита унда вояга етаётган ёш авлоднинг таълим ва тарбиясига узвий боғлиқ. Фарзанд аввало тарбияни жамиятнинг бош бўғини бўлмиш оиладан олади. Шу сабаб ўғил-қизлар тарбияси аввало ота ва она, ундан сўнг эса МТТ ва мактаблар зиммасига юкланади. Шарқ халқларида таълим ва тарбия бир-бирига узвий тарзда олиб борилади. Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев 2020 йил, 30 октябрда бўлиб ўтган видеоселектор йиғилишида:

“Ҳар бир оила, ҳар бир бола ҳаёти мактаб билан боғлангани, бу масала давлатнинг, жамиятнинг энг муҳим иши экани таъкидланди.”¹ (Нутуқни кўриб аниқлик қиритиш керак) Ёш авлодга таълим берар эканмиз, уни тарбия билан узвий ҳолда олиб бориш кераклиги таъкидлаб ўтдилар. Тарбия масаласи давлат эътиборидаги долзарб масалалар қаторига киритилди.

Дарҳақиқат, фарзанд ўзи туғилиб, вояга етадиган хонадонда ота-оналарнинг ўзаро муносабатлари соғлом тарзда кечса, фарзандлар ҳам комил бўлиб вояга етади. Бола тарбияси масъулиятли иш бўлиб, унинг илмий асос ва хусусиятлари қуйидагича таснифланади.

Конгнетив хусусиятлар фарзанд тарбиялашда зарур бўлган жисмоний, ирсий, руҳий, тарбиявий ва ҳуқуқий билимлар жамланмасидан иборат бўлади. Оилада фарзанд дунёга келгач, жисман ўсади, шаклланади юқорида келтирилган билим ва кўникмаларга эга ота-оналар болаларини шу кўникмалар асосида тарбиялайди. Ота-оналарнинг педагогик билимлари қуйидаги таркибий қисмларга ажратилади.

Ташкилий-таркибий қисм – Оилада бола учун зарур шароитларни яратиб бериш, унинг қобилият ва имкониятларини тўғри англаган ҳолда, уларни шакллантиришга кўмаклашиш.

Маиший-таркибий қисим – вояга етаётган фарзанд учун ота-оналар томонидан қулай маиший шароит яратиб бериш тушинилади.

Ҳаракатлар таркибий қисми – ота-оналар фарзандларининг хатти-ҳаракатларини танқидий фикрлаш орқали болага ўз ҳаракатларини таҳлил қилиш ва баҳолашни ўргатишлари талаб этилади.

Кутилмаган вазиятларда эмоционал компонент – болалар муаммоли вазиятларга кўп тушишади. Бундай қийин ва муаммоли вазиятларда ота-оналар қийинчиликларни бартараф этиш учун фарзандларига ёрдам бериши ва бунинг учун етарли билим ва тажрибага эга бўлиши зарурлиги назарда тутилади.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қатор меъёрий ҳужжатларда ота-онанинг фарзанд олдидаги бурч ва масъулиятлари аниқ кўрсатиб ўтилади. Шарқ мутафаккири Абу Али ибн Сино таърифи билан айтганда: “Оилада катта ёки кичик нарса бўлмайди. Ҳамма нарса, ҳатто, энг оддий бўлиб кўринган оилавий муносабатлар ҳам болага таъсир кўрсатади. Айниқса, ростгўйлик, самимийлик, садоқатлилик, ширин сухан бўлиш бола камолотидаги зарур ҳаётий воситалардан биридир”, дейилади.

Бугунги кунда ёшлар ўртасида юзага келаётган муаммолар, ҳуқуқбузарликларнинг аксар қисми ота-оналарнинг педагогик маданиятининг шаклланмаганлигидан юзага келади.

Ота-оналарнинг педагогик методларига қуйидагилар кирилади:

- ўрнатилган қилиб кўрсатиш;
- талаб қилиш;
- педагогик машқлар;
- сингдириш, ўқитиш;
- сўз орқали таъсир кўрсатиш;
- ўргатиш;

¹ Ш.Мирзиёев “Таълим-тарбия тизими: тараққиётнинг янги босқичи” мавзусида сўзлаган нутқи 30 октябрь 2020 йил, “Янги Ўзбекистон” газетаси.

– рағбатлантириш ва жазолаш².

Шарқ халқларида асрлар давомида фарзандлар тарбиясига аввало ота ва она масъул бўлган. Болага тўғри тарбия бериш гўдак дунёга келган кундан бошлаб эмас, балки она фарзандга хомиладорлик давридаёқ бериб борилган. Тарбиянинг бу методи бугунги кунда фанда тўлиқ исботини топган.

“Кўзгу” методи мисол бўлади – Кўзгуга боққанимизда ўз аксимизни кўрамиз, болаларнинг ижобий фазилатлари ота-оналарнинг феъл-атвори андозасидан шаклланади. Болаларда ижобий фазилатлар ҳам атроф-муҳит таъсирида шаклланади ва аввало бу фазилатларни ота-оналар ўзларида мужассамлаштирмоғи зарур. Ота-оналар оиланинг катта-кичиклари билан бўладиган мулоқотда ўзаро хушмуомила бўлишлари, мавжуд муаммоларни ўғил-қизлар олдида муҳокама қилмасликлари зарур.

“Талаб қиламан” – тарбиянинг бу методида ота-она фарзандига бирор бир топшириқ бериши ва унинг натижасини талаб қилиши билан ифодаланади ота-оналарнинг талабчанлиги ўғил-қизларнинг келажакда уларга юклатилаётган вазифаларга нисбатдан масъулият билан ёндошишни ўрганадилар.

“Рағбат ва жазо” – болаларга тарбия беришда уларнинг ёш хусусиятлари эътиборга олинади, чунки, кичик ёшдаги болалар физиологик жиҳатдан кўпроқ рағбат ва мақтов эшитишга мойил бўлади. Ўрта ёшдаги болалар эса хатти-ҳаракатларини мустақил бошқара оладилар ва улар салбий хатти-ҳаракат қилсалар, ота-оналардан бундай иллатлар такрорламаслиги учун танбеҳ бериш тақазо этилади.

Ота-оналарнинг педагогик маданиятини ривожлантириш узвий равишда йиллар давомида шаклланади. Ота-оналарда педагогик маданият тўғри шаклланса, улар тарбиялаётган фарзандлар ҳам комил шахслар бўлиб вояга етади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил, 30 октябрда бўлиб ўтган видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқи. Нутқи nomi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.03.2017 yildagi 140-son, “Umumiy o‘rta ta’lim tog‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”
2. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. – Т.: Фан, 1972. 962-б.
3. Абу Насир Фаробий “Фозил одамлар шаҳри” www.book.uz
4. Кайковус “Қобуснома”. – Т.: Истиқбол, 1994.84-б.
5. Зверева В. И., Неустроева Е. А. Методы воспитания детей в семье // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 26. – С. 288–291. – URL: <http://e-koncept.ru>

² Зверева В. И., Неустроева Е. А. Методы воспитания детей в семье // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 26. – С. 288–291. – URL: <http://e-koncept.ru>

ОТА-ОНАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК МАДАИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Мақолада фарзанд оилада фарзанд тарбияси, тарбиянинг турлари, ота-оналарнинг бола тарбиялашда йўл қўядиган камчиликлар ва уларни бартараф этиш бўйича тажриба ва таклифлар билан танишасиз.

Калит сўзлар: Тарбия турлари, ота-она бурч ва вазифалари, демократик тарбия, кўп болали ва кам болали оилалар, тарбиядаги хатолар.

В статье вы познакомитесь с опытом и предложениями по воспитанию детей в семье, типами воспитания, недостатками, допускаемыми родителями в воспитании детей, и их устранением.

Ключевые слова: Виды воспитания, родительские обязанности и ответственность, демократическое воспитание, многодетные и малодетные семьи, ошибки в воспитании.

In the article, you will get acquainted with child upbringing in a family with a child, types of upbringing, mistakes parents make in raising a child, and experience and suggestions for their elimination.

Key words: Types of education, parental duties and responsibilities, democratic education, families with many children and few children, mistakes in education.

Оила жамиятнинг бош бўғини, жамиятнинг тараққиёти ва ривож оилаларнинг фаровонлиги, унда тарбия топаётган ўғил-қизларнинг тарбиясига бевосита боғлиқ. Гўдак дунёга келишининг илк куниданоқ ота-она уни парвариш қилиши билан бирга педогогик тарбия беради. Тарбия узлуксиз ва узвий жараён бўлиб, ота-оналарнинг педогогик тарбияси ва тажрибаси етарлича бўлмаса, бу жараёнда камчиликлар ва тузатиб бўлмас хатолар юзага келиши мумкин.

Оилада тарбия боланинг ҳаётини фаолияти билан узвий боғлиқ бўлиб, қуйидаги турларга ажралади:

- ақлий тарбия;
- руҳий тарбия;
- жисмоний тарбия;
- ахлоқий тарбия;
- эстетик тарбия;
- ҳуқуқий тарбия;
- ватарпарварлик руҳидаги тарбия;
- иқтисодий тарбия;
- экологик тарбия;
- когнитив;
- меҳнат тарбияси;
- маънавий тарбия;
- қадриятлар тарбияси;
- бадиий тарбия

- ижтимоий тарбия¹.

Фарзандни тарбия қилишдан аввал ота-оналарнинг ўзи юқоридаги таснифлар бўйича етарли билим ва малакага эга бўлишлари зарур. Чунки турмуш давомида буларнинг барчаси бола тарбиясида зарур бўлган билим ва омиллар саналади. Фарзанд гўдаклигида ота-оналар унинг ақлий ва жисмоний тарбияси билан кўпроқ шуғилланадилар, эсиниб таниб улғая бошлагач, унга экологик (атроф муҳитни тоза сақлаш, жониворларга ғамхўрлик қилиш, сувдан тежаб фойдаланиш каби) билимлар қўшилиб боради. Мактаб ёшига етгач, маънавий-ахлоқий, ватанпарварлик руҳидаги тарбиявий тушинчалар босқичма-босқис синдирилади. Меҳнат тарбияси эсини таний бошлагандан бошлаб, касб-хунарли бўлгунга қадар узвий давом этади.

Шахс тарбияси оилада шаклланади, соғлом муҳитли оилада соғлом фикрли ўғил-қизлар улғаяди. Афсуски, бу жараён барча оилаларда бир хил кечмайди. Социологлар оилаларни қуйидагича таснифлайди:

Оила турлари:

- Бутун таркибли (ота-она ва фарзандлар);
- Ёлғиз боқувчили (ота ёки она ва фарзандлар);
- Кўп болали (уч ва ундан ортиқ болали оилалар);
- Кам болали (2 нафар фарзанд ва фарзанди йўқ оилалар);
- Катта оилалар (бир неча авлод ва оилалардан таркиб топган оила) бўлинади. Ёш оилалардаги муҳит, бува-бувиси бор оилалардаги муҳитдан бироз фарқ қилади.

Бола вояга етадиган оилавий муҳит маънавий ва моддий шариот унинг тарбиясига бевосита ва билвосита таъсир этади. Ота-оналар болани тўғри тарбиялаши учун фарзандлари билан ўзаро дўстона муносабатда, хушмуомила бўлиши, катталарга ҳурмат, кичикларга бағрикенглик, кўп болали оилаларда ака-ука, опа-сингиллари билан тотувлик ҳислатларини шакллантириши керак. Чунки тарбиянинг асосий қисми оилада берилади. Таълим муассасаларида бу тушинчалар тўлирилади. Баъзи бир оилаларда ота-оналар демократик тарбия тамойиллари асосида йўл тутадилар. **Демократик тарбия нима?**

Демократик тарбия ота-она ва фарзанд ўртасидаги муносабатлар суҳбат ва ўзаро таъсир орқали қарор қабул қилишни ўз ичига олади. Бундай ҳолда, ота-оналар ўз фарзандларини тарбиялаш жараёнида қанчалик муҳимлигини тушунишади, шу билан бирга ўз-ўзини ривожлантириш ҳуқуқини боланинг ўзида қолдирадилар. Боланинг қарорини ҳурмат қиладилар, қўллаб-қуватлайдилар, инobatга оладилар. Бундай тарбия услуби фарзанднинг ўз-ўзини ривожлантиришга отан-она муносабати очиқлигини кўрсатади.

Аксинча яна бир гуруҳ ота-оналар фарзандининг хатти-ҳаракатларига қараб болага муносабатларини ҳам ўзгартиришади. Аммо бу каби йўл тутиш тўғри эмас. **Қуйида Бола тарбиясида ота-оналар йўл қўядиган хато ва камчиликлар санаб ўтилади: Бу камчиликлар ота-оналарнинг педагогик билимлари етишмаслигидан вужудга келади.**

- * Боланинг имкониятларини тўғри баҳолай олмаслик;
- * Болада ўзи амалга ошира олмаган орзуларни кўриш;
- * Тарбияда меъёридан ташқари қаттиққўллик;
- * Бола орзусига бефарқлик;

¹ Х. Ибраимов, М. Қуръонов, “Умумий педагогика” – Т:2023, “Шаффоф” нашриёти.

* Қайсидир хатти-ҳаракати учунгина болани яхши кўриш.

Кўпчилик ота-оналар болани бошидан эгиб олиш зарур, деган тушинчада бўлишади. Фарзанд тарбиясида болаги меъеридан ортиқ қаттиққўл бўлишади. Бу тарбиянинг энг тўғри усули, деб ўйлашади. Бола бажарадиган ҳар бир хатти-ҳаракат ота ёки онанинг истагига биноан амалга ошириш керак, деб ўйлашади. Бу тоифадаги ота-оналарнинг болалари мустақил фикрига эга бўлмаган, ота-онасининг ихтиёридан ташқари ўзи бирор ишни мустақил бажара олмайдиган бола бўлиб вояга етишишади. Болани имкон қадар мустақил қарор чиқаришга, унинг имкониятларини юқори баҳолашга ўрганиш зарур. Бола имкониятлари тўғри баҳланса, ўзига ишончи янада ортади.

Болада ўзи амалга оширолмаган орзуларни кўришни хоҳлаш ҳам ота-оналарнинг хато мулоҳаза юрилтаётганидан далолат беради. Боланинг эркинлигини чегаралайди. Чунки у алоҳида индивид, феъл-атвори ўхшаш бўлгани билан қизиқишлари ота-она қизиқишларига бутунлай ёт бўлиши мумкин. Бунда табиий муҳит ҳам сабаб бўлолмайди. Масалан бастакорлар оиласида дунёга келган фарзанд мусиқага қизиқади, деган фикрга келиш ноўрин. Гарчи бу фарзанд барча мусиқа асбоблари билан яхши таниш ва уларни чалишдан хабардор бўлса-да.

Бола орзусига бефарқлик – ота-оналар йўл кўядиган энг катта хатолардан. Ҳар бир бола қайсидир соҳага қаратилган қобилияти бўлади, бу қобилият рағбат ва эътибор орқали ривожлантирилади. Агар ота-она томонидан боланинг қизиқиш ва орзулари қўллаб-қуватланмаса, индивиддаги қизиқиш сўниб бориши мумкин.

Фарзандни қайсидир қилган иши ёки хатти-ҳаракати учун яхши кўриши боланинг руҳиятида таъмагирлик, мақсадидан чалғиш туйғуларини шаклланишига олиб келади. Болани тўғри тарбиялаш учун ота-онанинг педагогик билими бой бўлишига керак. Бу жараёнда боланинг жинси, феъл-атвори, ёш хусусиятлари алоҳида аҳамият қаратиш зарур бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ибраимов Х., Қуронов М.Қ. Умумий педагогика. Дарслик. – Тошкент, 2023.
2. Сафарова Р.Г. Иқтидорли ўқувчиларда креатив фикрлаш кўникмаларини шакллантириш методлари ва воситалари. “Таълимда когнитив жараёнларни фаоллаштиришнинг илмий-методик талқини (5 ёндашуви: муаммога, лойиҳага, ишлаб чиқаришга, жараёнга ва шахсга йўналтирилган ўқитиш)” мавзусидаги анъанавий кўп тармоқли халқаро илмий-амалий конференция. 2023-йил 16-17-июн.
3. Қуронов М. “Оталар китоби”. – Тошкент, “Ғ.Фуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 2007. 190 б.
4. <http://pedagog.uz>.

TIFLOPEDAGOGIKADA O`QITISH MUAMMOLARI

Tiflopedagogika (yunoncha “typhlos” – ko`r) – maxsus pedagogikaning bir yo`nalishi bo`lib, ko`r va zaif ko`ruvchi bolalarni o`qitish, tarbiyalash va mehnatga tayyorlash vazifasini bajaradi hamda ularni jamiyatga integratsiyalaydi.

Ko`rishida nuqsoni bor bolalarning (KNB) atrof-olamni ko`rib idrok qilishi chegaralangan, ular predmetlarni yaxshi ko`ra olmaydi. Ularning ta`lim tizimining o`ziga xos murakkabligi ham shundadir. Ko`zi ojiz bolalarga ta`lim berish jarayonida zarur shart-sharoitlar yetarligiga alohida e`tibor berish lozim. Ko`ruv idroki uchun binoning yetarlicha yoritilishi, bolalarni ko`rish darajasidan kelib chiqqan holda ko`rgazmali qurollardan foydalanish, ularning partada va stol atrofida to`g`ri joylashishi, dars davomida korreksion mashg`ulotlardan foydalanish zarur shart-sharoitlardan hisoblanadi.

Ko`zi ojiz bolalarning ham ta`limi sog`lom bolalar ta`limi singari maktabgacha ta`lim tashkilotidan boshlanadi. Aynan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955 son (<https://lex.uz/docs/3923110>) “Maktabgacha ta`lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora – tadbirlari to`g`risida” gi qaroriga muvofiq maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, sog`lom, faol, to`laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish bilan birga rivojlanishida turli nuqsonlari bo`lgan bolalarni reabilitatsiya qilish, ularni o`qitish, tarbiyalash va integratsiya qilishga ham alohida e`tibor qaratilgan. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta`lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi 391- son qarorining (<https://lex.uz/docs/4333062>) 3-ilovasida ko`p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim tashkilotlari va qo`shma turdagi maktabgacha ta`lim tashkilotlarining maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibi haqida belgilab qo`yilgan. Shu nizomga muvofiq, aralash turdagi mujassam nuqsonli bolalar ta`limiga ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim tashkilotlari tashkil etilgan. Mazkur tashkilotlardagi o`qitishning asosiy muammosi ta`lim beruvchi kadrlar – tiflopedagoglarning yetishmasligidir. Bundan tashqari, yuqori maktabgacha yoshdagi bolalar brayl yozuvini o`rganmasligi, bolalar yettita korreksion mashg`ulotlarning (logopediya mashg`uloti; predmet tasavvurini shakllantirish va ko`ruv idrokini rivojlantirish; ijtimoiy maishiy hayotga yo`naltirish; teri tuyishni va mayda qo`l matorikasini rivojlantirish; davolash gimnastikasi; ritmika; mo`ljal olish va harakatlanish) har biriga alohida yo`naltirilmaganligi ham tiflopedagogikaning muammolaridan hisoblanadi.

Mutaxassislar yetishmovchiligining oldini olish maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universitetida Maxsus pedagogika kafedrasida tashabbusi bilan 2022 – 2023-o`quv yilida ilk marotaba O`zbekistonda tiflopedagogika yo`nalishi ochildi. Hozirgi kunda ushbu yo`nalishda jami 26 nafar talaba tahsil oladi.

Ko`zi ojiz bolalarni o`qitishda birgina maktabgacha ta`lim tashkilotlarida emas, balki maktabda ham bir necha muammolarga duch kelish mumkin. Birinchi navbatda, maktabgacha ta`lim muassasasi dasturining maktab o`quv dasturi bilan uzviy bog`lanmaganligi, ya`ni dasturlararo aloqalilikning yo`qligidir. Bu albatta ko`rishida nuqsoni bor bolalarni o`qishida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki bola bir muhitdan umuman boshqa yangicha muhitga o`tganda uning psixologiyasida o`zgarishlar kuzatiladi va yangi muhitga ko`nikish uchun ma`lum bir vaqt kerak bo`ladi.

O`rta umumta`lim muassasalarida ko`rishida nuqsoni bor bolalar uchun keyingi muammo o`quv qurollarining chet davlatlardan eksport bo`lishi. Tabiiyki, o`zimizda ishlab chiqarilmagan mahsulotlar chet eldan olib kelingandan so`ng uning qiymati ham ko`proq summani tashkil etadi. Ma`lumki, “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan davlat umumta`lim maktablarida tehsil oluvchi o`quvchilarning o`quv qurollari davlat tomonidan qoplanadi. Yuqoridagi muammo esa davlat iqtisodiyotiga o`z ta`sirini o`tkazmasdan qolmaydi.

Bundan tashqari, mazkur ta`lim muassasalaridagi darsliklarning yetishmasligi ham asosiy muammolardandir. Maktab darsliklarining barchasi brayl yozuvida emasligi, qolaversa, ayrim darsliklarning davlat umumta`lim darsliklaridan o`n yillab orqada yurishi ko`zi ojiz bolalarni o`qitishdagi eng og`riqli nuqtalardan biridir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “ O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida” gi PF-5712 – son (<https://lex.uz/ru/docs/4312785>) Farmoniga muvofiq O`zbekistonda inklyuziv ta`limni rivojlantirish, alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta`lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko`rsatiladigan ta`lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-yil 13-oktabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta`lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” PQ-4860-son qaror (<https://lex.uz/docs/5044711>) qabul qilindi. Bu qarorning ijrosini ta`minlash maqsadida esa O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 12-oktabrda 638-sonli (<https://lex.uz/ru/docs/5679836>) qarorni imzoladi. Mazkur nizom umumiy o`rta ta`lim tashkilotlarida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo`lgan bolalar uchun inklyuziv ta`limni tashkil etish tartibini belgilaydi.

Inklyuziv ta`lim – alohida ta`lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xiligini hisobga olgan holda barcha ta`lim oluvchilar uchun ta`lim tashkilotlarida ta`lim olishga bo`lgan teng imkoniyatlarni ta`minlagan holda beriladigan ta`lim.

Inklyuziv ta`lim ko`rishida nuqsoni bo`lgan bolalarni ham qamrab olgan. Ushbu ta`limda KNB bolalar uchun korreksion mashg`ulotlar tashkil etilmagan. Bu holat esa KNB bolalarda saqlanib qolgan ko`rish darajasining ham yo`qolishiga olib kelishi mumkin.

Yomonini aytmasa, yaxshisi kelmaydi deganlaridek, yuqoridagi muammolarga ko`z yumib ketsak, ko`rishida nuqsoni bo`lgan bolalarni o`qitish tizimi yaxshilanmasdan boraveradi.

So`nggi yillarda mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida nogironligi bo`lgan shaxslarni qo`llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan ko`zi ojiz va ko`rishda nuqsoni bo`lgan bolalarning jamiyatdagi o`rnini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur yo`nalishdagi islohotlarning izchilligi va tizimligini ta`minlash, ko`zi ojiz va zaif ko`ruvchi bolalarning ta`lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko`maklashish hamda qo`llab-quvvatlash bo`yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2022-yil 18-aprelda “Ko`zi ojiz va zaif ko`ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta`lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” PQ-209-son qaror (<https://lex.uz/uz/docs/5966089>) imzolandi. Bundan tashqari, ko`rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo`lgan shaxslarning savodxonligini oshirish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga ko`rsatiladigan ta`lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda

O`zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo`lgan shaxslarning huquqlari to`g`risida”-gi qonuni ijrosini ta`minlash maqsadida 2022-yil 21-oktabrda “O`zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida” O`zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-407-son qarorni (<https://lex.uz/uz/docs/6248467>) tasdiqladi. Bularning barchasi jamiyatimizda nuqsoni bo`lgan insonlarga , ko`rishida nuqsoni borlarga yordam berish, ularni jamiyatga integratsiyalash uchundir.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi chora-tadbirlar bilan bir qatorda sanab o`tilgan muammolarga ijobiy yechim topsak , nur ustiga a`lo nur bo`lgan bo`lardi. Ushbu muammolarning yechimi ta`lim jaroyini sifat samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. F.U.Qodirova va Z.X.Xusnuddinova (2023). Tiflopedagogika. 5-50.
2. Sunnatilla Dangalov (2010). Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati. Tavsiyanoma.
3. G.A.Anatolyev – (1989 Maskva) Tiflopedagogika.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI FANLAR KESIMIDA FAVQULODDA VAZIYATLARDI HIRAKAT QILISHGA TAYYORLASHDA TA'LIM USULLARI

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'рта ta'lim maktablarida hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda o'quv jarayonini faollashtirish uchun turli xil interfaol usullardan foydalanish qarorlar qabul qila oladigan, ijodiy fikrlashga qodir o'quvchilarni ko'p qirrali tarbiyalashning muhim vositalaridan biri sifatida qaralgan. Dunyoda tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar soni tobora ortib borayotgan sharoitda, favqulodda vaziyatlarni oldini olish borasida hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishning zamonaviy maktab o'quvchilarini tayyorgarligini oshirishda tutgan o'rnini, ularning favqulodda vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: o'quvchi, favqulodda vaziyat, atrof-muhit, xavf, xavfsizlik, ta'lim jarayoni, amaliy ko'nikma, xavfsizlikni ta'minlash.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg'a harakatlantiruvchi asosiy omil bo'lib, kelgan. Shunday ekan, yosh avlodni ijodiy ishlashga, ijodiy mehnatga o'rgatish, uni o'z zamonasining eng ilg'or bilimlari bilan qurollantirish hamma xalqlar uchun eng dolzarb vazifa hisoblangan sharqning buyuk mutaffakkirlari, allomalari o'zlarining ilmiy-tarbiyaviy asarlarida, she'r va g'azallarida, adabiy me'roslarida halol, yaratuvchan, ijodiy mehnatni, kasb-hunar egallashning muqaddasligi va zarurligini ta'kidlagan va ulug'lagan edilar.

Inson hayotiga xavf soluvchi turli avariya, halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik harakatlari va ularning oqibatida ro'y berayotgan iqtisodiy zarar hamda favqulodda vaziyatlarda insonlarning qurbon bo'lishi sonini kamaytirishning yagona yo'li favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish qoidalariga o'rgatishdan iboratdir.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishini oldindan ko'ra bilish, xavfli vaziyatlarda sarosimaga tushmay, to'g'ri harakat qilish hamda atrofda qilargalarga o'z vaqtida yordam bera olish tayyorgarligi umumiy o'рта ta'lim maktablarida "Hayot xavfsizligi asoslari" fani orqali amalga oshiriladi. Mazkur fan bo'yicha o'quv dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, mavzularni yoritish 1-sinf dan boshlab 11-sinfga qadar "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida davom etadi.

Interfaol usullardan foydalangan holda dars o'tilganda o'quvchilarga o'zi shaxsiy va atrofida qilargal xavfsizligi masalalariga mas'uliyat bilan yondashish hissini shakllantirish, ularga xavfli vaziyatlarni anglay olish va xavf ko'lamini baholay olish bilim, ko'nikmalarini singdirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardan muhofazalanishni o'rgatish, ularda xavfli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Ushbu Fan dasturi favqulodda vaziyatlarda harakat qilish, o'qitish tizimini takomillashtirish uchun umumiy o'рта ta'lim maktab o'quvchilariga amaliy yordam ko'rsatishga

mo'ljallangan bo'lib, unda xavfsizlik asoslarini shakllantirish samarasiga ta'sir etuvchi omillar hamda talablar aks ettirilib, soatlar taqsimotida favqulodda vaziyatlarni yuzaga kelishida hududlarni xususiyatlari, hayot xavfsizligiga oid mavzularni uzviy va uzluksizligi, xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vositalari, fanlararo aloqa va o'zaro imkoniyatlari, o'quvchilarda xavfsizlik tushunchalari va ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilib, mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga yetkazib berish nazarda tutilgan.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-11 sinflari uchun tayyorlangan "Hayot xavfsizligi asoslari" Fani o'quv dasturining asosiy maqsadi- o'quvchilarda o'zlari, atrof-dagilar va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish xissini shakllantirish hamda o'z hayotlari va salomatliklarini asrash, favqulodda vaziyatlar sharoitida to'g'ri harakat qilishga o'rgatish, ularda xavfli va favqulodda sharoitlarda harakat qilish chog'ida ruhiy barqarorlikni rivojlantirish, shikastlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish malakasini hosil qilishdan iboratdir. Vazifasi esa, o'quvchilarga nazariy bilimlar berish va bilimlarga asosan, ekstremal vaziyatlarda tez va aniq amaliy harakat qilishga o'rgatishdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrda 754-sonli Qarorining 4-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishgan holda hayotiy faoliyat xavfsizligi va fuqaro muhofazasi yo'nalishlaridagi o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishi va 2020/2021 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga joriy etish vazifalari yuklatilgan.

Bugungi shiddatli davr barchamizdan axloqiy va ma'naviy jihatdan sinf soati ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Ma'naviyat yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun ham sinf rahbarlari va butun o'qituvchilar jamoasi oldida o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi.

Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli g'oyalar o'rtasidagi kurash keskinlashgan, "ommaviy madaniyat" xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmog'i orqali uzatilayotgan buzg'unchi axborotlar inson qalbi va ongini o'ziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

10-sinf "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanida "O'zbekiston Respublikasi hududida texnogen va tabiiy xarakterdagi ehtimoliy sodir bo'ladigan favqulodda vaziyatlar" darsining mavzusi ko'pincha bitta darsda qamrab olish juda qiyin bo'lgan katta miqdordagi ta'lim ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Bunday holda, darsda muayyan vaziyatlarni tahlil qilish usulidan foydalanish o'rinli bo'ladi. Vaziyatlar boshqacha bo'lishi mumkin: kundalik faoliyat ish rejimi masalalaridan tortib, favqulodda vaziyat sharoitidagi tahdidlar haqidagi savollargacha. Shunga o'xshash mavzulardagi munozaralar yoki o'quvchilar tomonidan kichik loyihalarni tayyorlash ham o'rinli bo'ladi. Bunday darslarda aniq vaziyatlarni hal qilish usuli va boshqa interaktiv usullardan foydalanish orqali olingan bilimlarni amaliy faoliyatda, kundalik hayotda qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatishga, tanqidiy mulohazalarni shakllantirishga imkon beradi, boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi, xavfsiz hayot tarziga rioya qilish va xavfli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish va harakat qilish qoidalarini o'rganishga munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf bosqichida "Fuqaro muhofazasi" bo'limini o'rganish natijasida interfaol o'qitish usullaridan foydalangan holda o'quvchi-

larda favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishini oldindan ko'ra bilish, xavfli vaziyatlarda sarosimaga tushmay, to'g'ri harakat qilish hamda atrofdagilarga o'z vaqtida yordam bera olish va inson hayotiga qadriyatli munosabat tarbiyalanadi; vatanparvarlik va Vatanni himoya qilish burchi; hayot va sog'liq uchun xavfli vaziyatlarni baholash ko'nikmalarini o'zlashtirish; favqulodda vaziyatlarda harakat qilish; individual va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish; birinchi yordam ko'rsatish bilim, ko'nikma va malakalari shakllanadi.

Interfaol o'qitish - o'quvchi o'zida oldin mujassamlashgan tajribadan foydalangan holda, o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, mashg'ulot davomida shaxsiy rol o'ynab, yangi tajribalar orttiradi, olgan tajribalari asosida darsni tahlil qilib, o'ziga kerakli muhim materiallarni oladi hamda o'zining kundalik faoliyati bilan bog'laydi.

Interaktivlik, bu o'zaro munosabatda bo'lmoq, dialog rejimida o'qimoq ma'nosi bildiradi. SHu sababli interaktiv o'qitish-dialogi o'qitish demakdir. Dialog an'anaviy o'qitish uslublarida ham mavjud. Jumladan "o'qituvchi-o'quvchi", "o'qituvchi-o'quvchilar guruhi" ko'rinishida. Interaktiv o'qitishda esa dialog "o'quvchi-o'quvchi", "o'qituvchi-o'quvchilar guruhi" ko'rinishda, "o'quvchi-sinf", "o'quvchilar guruhi-sinf" (guruhlar prezentatsiyasi), "o'quvchi-komp'yuter" kabi ko'rinishlarda ham bo'ladi. O'quvchi mashg'ulotda faqat "passiv" o'quvchi sifatida emas, balki "aktiv" ishtirokchi sifatida qatnashadi.

Interfaol o'qitish texnologiyasi an'anaviy ma'ruza o'qish uslubini ko'zda tutmaydi va shu bilan bir qatorda nazariy darslarini amaliy darslarga qarama-qarshi qo'ymaydi. Interfaol o'qitishda ma'ruza va amaliyot bir butun mashg'ulotning qismlari deb qaraladi va bu o'qituvchi hamda o'quvchining o'zaro ta'siri hamda o'quvchilarning mashg'ulot davomida faol ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi. Ma'lumki, an'anaviy nazariy darslarda o'qituvchi faolligi ta'minlansa, amaliy mashg'ulotlarda o'quvchi faolligi talab etiladi. Interfaol uslubda o'qituvchidan mashg'ulot davomida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasining bir ko'rinishidan ikkinchisiga mavzuga bog'liq holda ustamonlik bilan ravon o'tishi talab etiladi.

Ayrim o'qituvchilar o'qitishning interfaol uslublari deganda zamonaviy o'quv-vizual materiallar (oddiy, mul'timedia va animatsion slaydlar, tarqatma materiallar, ma'ruza matnlari, texnik vositalarning modellari, maketlari va boshq.)dan hamda zamonaviy texnik vositalar (komp'yuterlar, elektron doskalar va boshq.)dan foydalanish, ma'ruza matnlarini oldindan o'quvchiga taqdim etib, o'quvchining darsga tayyor bo'lib kelishini ta'minlash kabilarni tushunishadi. Albatta bu to'g'ri fikr emas.

O'qitishning interfaol uslublari deyilganda birinchi navbatda o'quvchining o'quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interfaol uslubdagi mashg'ulotda o'quvchi berilayotgan ma'lumotlarni tinglashi, ko'rishi, yozib borishi, mavzu bo'yicha savollar berishi, o'z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab, mavzu bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishi lozim.

Ta'lim faoliyatida o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish belgilangan shartlarga to'liq mos keladi. O'qitishning interfaol usullari-bu o'quvchilarning bir-biri bilan, o'qituvchi bilan, komp'yuter bilan, o'quv adabiyotlari bilan samarali o'zaro munosabatlarini tashkil etish qoidalari tizimi bo'lib, unda yangi tajribalar o'zlashtiriladi, yangi bilimlar olinadi va o'quvchi shaxsini o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Davlat ta'lim standartlari pedagogik jarayonni tashkil etishning zaruriy sharti sifatida interfaol usullardan foydalanish zarurligini belgilaydi. O'qitishning interfaol usullari ikkita asosiy

vazifani hal qilishga imkon beradi: birinchidan, ular o'quvchilarning kompetensiyalar tarkibiy qismlarini (bilim, ko'nikma va malakalarni) shakllantirish uchun sharoit yarata-di, ikkinchidan, ular o'quvchi shaxsini rivojlantirishga, uning bilim ehtiyojlari va qiziqish-larini qondirishga yordam beradi.

“O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va ular yuz berganda aholining harakatlari” darsida haqiqiy hayotga yaqin vaziyatlarni simulyatsiya qilish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Bunday hayotiy vaziyatlarni hal qilish ko'rib chiqilayotgan muammoni hal qilishning eng maqbul yechimini tanlashga va uni amalda qo'llashga taqlid qilishga, Respublikamiz hudlarining o'zi xos xususiyati va sodir bo'lish mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar (zilzila, sel, suv toshqini, qor ko'chkilari, avariya, halokatlar va h.k.) to'g'risida bilim olishga, ichki va tashqi omillar-ni ta'sirini tahlil qilishga, hayot xavfsizligi qoidalarini shakllantirishga va ularga rioya qilishga o'rgatadi.

“Aholini evakutsiya qilish tadbirlarida harakat qilish” mavzusidagi dars loyihalash usulini xilma-xil qilishga imkon beradi. Loyihani amalga oshirish jarayonida o'quvchilar dizayner sifatida harakat qiladilar, maqsad va vazifalarni shakllantiradilar, o'z maqsad-larini rejalashtiradilar va amalga oshiradilar, axborotni idrok etish va baholash, tahlil qilish, prognoz qilish, qiyinchiliklar va muammolarni tan olish va ularni hal qilish qo-biliyatini rivojlantiradilar va namoyish etadilar, tanqidiy fikrlarni shakllantiradilar, ya'ni loyihalash usuli qo'llash orqali mustaqil ishlashni o'rganadilar.

Hayot xavfsizligi qoidalari yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish ularga vaziyatni idrok etish va baholash, tanqidiy fikrlarni shakllantirish, bilimdagi qiyinchiliklar va muammo-larni tan olish va ularni hal qilish, shuningdek, do'stlari, oila, shaxs va jamiyat hayotida-gi rolini tahlil qilish, uning o'zi va o'zgaralar hayot xavfsizligi va salomatligiga ta'siriga oid birinchi yordam ko'rsatish asoslari bilan tanishish, shuningdek, sinfdoshlari, do'stlari va oila ichidagi muloqot madaniyatini va o'zaro javobgarlikni bilishni talab qiladigan vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 17 avgustdagi “Aholini va hududlarni ta-biiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”-gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi “Fuqaro muhofazasi to'g'ri-sida”gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrda “Aholi-ni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi 754-sonli Qarori,

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 19 iyulda “Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tusdagi) harakat qilishga tayyorlash kompleks dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 208-sonli Qa-rori.

5. Belov S.V. Bezopasnost' jiznedeyatel'nosti. - Visshaya shkola, 2011- 56 s.

6. Gafner V.V. Pedagogika bezopasnosti: ponyatiyno- terminologicheskiy slovar' (osnovi bezopasnosti jiznedeyatel'nosti). yekaterinburg, 2015. 254 s.

7. Xusanova S.I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Hayot xavfsizligi asoslari” kur-si mavzulari orasidagi uzviylikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan. dok.diss. -T., 2021. -329b.

Атахожоев Валихожа
Педагогика фанлари номзоди, доцент,
Алибеков Шерали
Катта ўқитувчи
ТДАУ Андижон филиали

СЕН-МИ ЁКИ СИЗ-МИ?

Аннотация: Ушбу мақолада таълим-тарбиянинг тарихи ва замонавий шароитдаги хусусиятлари, уларнинг такомиллашув омиллари, шахс муносабатларида муомила маданияти, миллий урф-одатлар, анъаналардан самарали фойдаланиш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Сен-ми ёки сиз-ми?, таълим-тарбия, муомила, мулоҳаза, мушоҳада, шахслараро муносабат, бунда тилнинг аҳамияти, ҳадис илмидан фойдаланиш.

Атаходжаев Валиходжа
кандидат педагогических наук, доцент,
Шерали Алибеков
Старший преподаватель
Андижанский филиал ТДАУ

ТЫ ИЛИ ВЫ?

Аннотация: В данной статье описаны история и особенности образования в современных условиях, факторы их совершенствования, культура взаимодействия в личных отношениях, вопросы эффективного использования национальных обычаев и традиций.

Ключевые слова: Ты или вы?, образование, лечение, размышление, наблюдение, межличностные отношения, значение языка в этом, использование науки хадисов.

Atakhodzhaev Valikhodzha
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor,
Sherali Alibekov
Senior Lecturer
Andijan branch of TDAU

YOU OR YOU?

Abstract: This article describes the history and features of education in modern conditions, factors for their improvement, the culture of interaction in personal relationships, issues of effective use of national customs and traditions.

Keywords: You or you?, education, treatment, reflection, observation, interpersonal relationships, the importance of language in this, the use of the science of hadith.

